

BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ

O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAGI INNOVATSİYALARНИ TA'LIM TİZİMIGА TADBIQ ETILISHИ

SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRЛАRNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI

SAMARQAND-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAGI INNOVASIYALARINI
TA'LIM TIZIMIGA TADBIQ ETILISHI”**

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishi: O’zbekiston tarixi

Samarqand -2022

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchilar:

Samarqand davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasи professori F.Nabiев, dotsent O.Irisqulov, dotsent S.Muhiddinov

Taqrizchilar:

Samarqand davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasи mudiri, professor B.G’oibov

Xorijiy ekspert:

Tojikiston davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori Sh.Vaxidov

O’quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-
dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

MUNDARIJA

I.	MODULNING IShChI DASTURI.....	5
II.	INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	10
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	16
IV.	AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI.....	56
V.	GLOSSARIY.....	96
VI.	ADABIYOTLAR RO’YXATI	104

I. MODULNING IShChI DASTURI KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdag'i "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlarihamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdekamaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

I. Modulning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston tarixi fanidagi inovatsiyalarni ta'lif tizimiga tadbiq etish modulining maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston tarixi fanidagi inovatsiyalarni ta'lif tizimiga tadbiq etish modulining vazifalari:

- "O'zbekiston tarixi" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliyatini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

"O'zbekiston tarixi" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarining bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

O'zbekiston tarixi fanidagi inovatsiyalarni ta'lif tizimiga tadbiq etish moduli

bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- O’zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;
- Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini;
 - O’zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy ta’limoti – tarqqiyotning o‘zbek modeli ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, bu boradagi yutuqlar, istiqbol rejalar, maqsad va vazifalari bilishi kerak.

Tinglovchi:

- O’zbekiston jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri, Vatanimiz naqadar qadimiy va boy tarixga ega ekanini, bu tarixning yaratuvchisi, uning haqiqiy egasi ham shu zaminda yashayotgan xalq ekanini anglab tarixiy tafakkurga ega bo‘lish, tarixiy haqiqatni bugungi kun bilan solishtirish, tahlil qila bilish;
 - o‘z ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb bilish va undan g‘ururlanish hissiga ega bo‘lish va buni o‘zining amaliy ishlarida namoyon etish;
 - ajodlarimizning tarixiy merosni o‘qib-o‘rganish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- tarixiy voqealari va hodisalarni taqqoslash orqali ulardan o‘zi, jamiyat uchun muhim xulosalar chiqarish, bugungi erkin va ozod hayotning qadriga yetish;
- jamiyat taraqqiyotida xalqning, siyosiy yo‘lboshchilarning o‘rni va ahamiyati naqadar katta ekanini anglab, ularga haqqoniy baho berish, aksincha turli xavf-xatarlarning bu boradagi zararini tushuntira bera olish, tarixiy misollar asosida ma’rifiy targ‘ibot yuritish, xalqning saviyasini oshirishga intilish;
- tarixiy voqealar va hodisalar bo‘yicha og‘zaki va yozma nutq orqali, adabiy til qoidalari asosida o‘z nuqtai nazarini erkin ifoda etish, ilmiy asoslangan, mustaqil fikriga ega bo‘lish va ularga ongli munosabat bildira olish malakalariga ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- Mustaqillik yillarida tarix fanida amalga oshirilgan tadqiqotlarda innovatsiya va yangiliklarning amalga oshirilishi va uning ahamiyatini tahlil qila olish kabi kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat
-----------------	---

		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil ta’lim	
			Jami	Jumladan				
				Nazariy	Amaliy	Ko‘tma mashg‘ul		
1.	Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidan ildizlari	2	2	2				
2.	Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar	2	2	2				
3.	Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi	2	2		2			
4.	Turk xoqonligi davlatining O’zbekiston davlatchiligidagi tutgan o‘rnini masalasi	2	2		2			
5.	Markaziy Osipyoga Arab xalifaligi bosqini	2	2		2			
6.	IX-XII asrlar O’zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi	2	2		2			
7.	Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davriga oid tadqiqotlar	2	2	2				
8.	Shayboniyalar, Ashtarxoniyalar va xonliklar davriga oid tadqiqotlar	2	2	2				
9.	O’zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahllilar	2	2		2			
10.	Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida	2	2		2			
Jami:		20	20	8	12			

NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidan ildizlari (**2 soat**)
Reja:

1. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi masalasiga oid tadqiqotlar
2. Ilk davlatchiligidan ildizlari

2-mavzu: Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar (**2 soat**)

Reja:

1. Markaziy Osiyoda madaniy hududiy birliklarning shakllanishi.
2. Madaniy aloqalar tizimining rivojlanib borishi

3-mavzu: Chig‘atoj ulusi va Temuriylar davriga oid tadqiqotlar (**2 soat**)

Reja:

1. Chig‘atoj ulusi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Temuriylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar

4-mavzu: Shayboniylar, Ashtarkoniylar va xonliklar davriga oid tadqiqotlar (**2 soat**)

Reja:

1. Shayboniylar va Ashtarkoniylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Xonliklar davriga oid yangi tadqiqotlar

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi (**2 soat**)

Reja:

1. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar
2. Ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi

2-mavzu Turk xoqonligi davlatining O’zbekiston davlatchiligidagi tutgan o‘rnini masalasi (**2 soat**)

Reja:

1. Ilk o‘rta asrlar tarixiga oid tadqiqotlar
2. Turk hoqonligi tarixshunosligi

3-mavzu. Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini (**2 soat**)

Reja

1. Arab xalifaligi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Markaziy Osiyoda arab xalifaligi masalasi

4- mavzu. IX-XII asrlar O’zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi (**2 soat**)

Reja

1. Siyosiy tarixga oid tadqiqotlar
2. Iqtisodiy va madaniy tarix masalalaring yoritilishi

5 – mavzu. O’zbekistonning sovet davri tarixinining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar (**2 soat**)

Reja

1. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga oid yangi tadqiqotlar

2. Sovet davri tarixinining tarixshunosligi

6 – mavzu. Mustaqilik yillari tarixchilar nigozida (2 soat)

Reja

1. Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi tarixinining o‘rganilishi
2. Iqtisodiy va madaniy taraqqiyot masalalarining yoritilishi

MUSTAQIL TA’LIM

O’zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati. O’zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning nazariy asosi bo‘lgan “o‘zbek modeli”ning hamjamiyatda tan olinishi.

O’zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov O’zbekistonda Mustaqillikni elon qilinishidan boshlab shu kungacha amalga oshirilgan islohotlarni asoschisi ekanligi. Jahon hamjamiyati tomonidan O’zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarni tan olishi masalasi. O’zbekistonni qoloq agrar mamlakatidan rivojlangan industrial mamlakatga aylanishi.

Tinglovchi mustaqil ishni modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- o‘quv, ilmiy adabiyotlardan va me’yoriy xujjatlardan foydalanish asosida modul mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan modul bo‘limlari va mavzularni chuqr o‘rganish;
- fanga oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish.

II. INTRYeFAOL TA'LIM MYeTODLARI

“SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Ana'naviy va zamonaviy ta'lif shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

	Oddiy ma'ruzada ma'ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera oladi	Muammoli ma'ruzada kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
	O'qituvchi asosan o'zi va a'luchi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma'ruzada ko'p sonli talabalar, tinglovchilar qamrab olinadi
	Oddiy ma'ruzada faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gapashiladi	Muammoli ma'ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tuhilishi mumkin.
	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga intilishlari burishga

Rezyume, Veyer metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гурухларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гурухга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



ҳар бир гурух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча гурухлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва

Namuna:

Falsafadan malaka talablari					
Sobiq standartlar		Amaldagi standartlar		Takomillashtirilgan standartlar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“FSMU” metodidan foydalanish

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarining umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarining kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlari o‘ziga xosliklari





Muammoli vaziyatlarni echishga qaratilgan interaktiv metodlar

“CWOT-tahlil”

“Debat”,

*Muammol
i vaziyat*

“Rezyumi”

“T-chizma”,

“Venn
diagrammasi”,

“Organayzer”,

Chizma va
jadvallar:

III. NAZARIY MATYERIALLAR

1-mavzu: Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidiz ildizlari

Reja:

3. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi masalasiga oid tadqiqotlar
4. Ilk davlatchiligidiz ildizlari

Ma'lumki, O'rta Osiyoning katta va kichik daryolari, soylari bir necha ming yilliklar davomida o'zining yukori oqimlaridan loyqa suv aralash chirindi va kimyoviy elementlarni quyi xavzalariga oqizib kelib, unumdar pastekisliklarni xosil qilgan. Bu joylarda (Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida) hosil bo'lgan ko'l yoqalarida neolit davrining o'zlashtiruvchi xo'jalik jamoalarini (Kaltaminor madaniyati) manzillari, Kopettog'daralaridan oqib chiqqan daryo va soy etaklarida esa ilk dexqonchilik va xonaki chorvachilik makonlari paydo bo'lgan.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalik qabilalarining izlari Janubiy Turkmaniston xududlaridagi o'nlab arxeologik yodgorliklar (Anovtepa, Oqtepa, Nomozgoxtepa, Qoratepa, Oltintepa) misolida o'rganilgan bo'lib (Anav-Nomozgox madaniyati), ularning tarkib topishi va rivojlanishi neolit (Joyitun madaniyati), eneolit va ilk bronza (Anovtepa, Oqtepa, Nomozgoxtepa, Koratepa, Oltintepa) davriga tug'ri keladi. Bronza davriga kelganda, ibtidoiy jamoalar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida yuz bergen tub o'zgarishlar tufayli mulkchilikning avvalgi ijtimoiy xarakteri o'zgarib, birinchi navbatda, yerga va chorvaga bo'lgan xususiy mulkchilik kelib chikadi.

Yerga xususiy egalik qilishning kelib chiqishi dastlab, bronza davrida, qadimgi dexqonchilik mintaqalarida, chorvaga xususiy mulk egaligining kelib chiqishi esa dastlab, dasht mintaqalarida yuz beradi.

Miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlari va II ming yillikning boshlariga kelganda, qadimgi dexqonchilik madaniyati metro- poliya larida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar tufayli demografik portlash yuz beradi, ya'ni suv resurslari va ekinbop yer maydonlarining tanqislanib borishi tufayli metropoliya axolisining bir qismi yangi yerlar qidirib, yirikroq darslar quyi xavzalariga borib o'rashadilar. Ana shunday yangi dexqonchilik markazlari Murg'ob vodiysida va Qadimgi Baqtriyada bronza davrida shakllanadi. Chunki, - O'rta Osiyoning janubiy o'lkalari (Marg'iyona, Baqtriya) birinchidan, Yaqin va O'rta Sharq mintaqalariga yaqin va chegaradosh edi; ikkinchidan, ulardag'i tabiiy — geografik iqlim sharoiti bu o'lkalarda qadimgi sug'orma dexqonchilik madaniyatining ertaroq rivojlanishiga olib keldi.

Metropoliyalarda sug'orma dexqonchilik tajribasiga ega dexqon jamoalari yangi yerlarni o'zlashtirishda urug'chilik jamoasi an'analarini ma'lum ko'rinishda saqlagan holda, juft oila-oila bo'lib, oilaviy o'zlashtirgan yerga jamoaviy egalik qilishdan farqli o'laroq, patriarxal juft oila, monogomik oila mulki sifatida xususiy egalik qila boshlaydilar. Yirik daryolar quyi havzalarida, shunday tartibda tarkib topgan patriarxal juft oilalar sekin-asta katta patriarxal oilalar darajasiga, ya'ni Avesto tili bilan aytganda, nmanalarga o'sib chiqadi. Katta patriarxal oila jamoasi esa patriarxlar, ya'ni katta ota tomonidan boshqarilgan.

Katta patriarxal oila-nmana jamoa xo'jaliklari Avesto jamiyatining «vis» ko'rinishidagi qishloq jamoalari bo'lib, ularni kadxudotlar, ya'ni vispatilar boshqargan. Vispatilar katta

patriarxal jamoa boshliqlari orasidan vis anjumanasida, ya’ni qishloq jamoasi yig‘inida saylangan. Davlatchiligidan eng dastlabki bug‘ini ana shu vislar, ya’ni qishloq jamoalari bo‘lib, ular davlatchiligidan boshlang‘ich kurtagini tashkil etgan.

«Vis» jamoalarining tarkib topishi esa taxminan quyidagicha kechgan: ya’ni har bir jamoa a’zosi o‘z oilasi kuchi, harakati imkoniyatiga ko‘ra, tegishli miqdorda yer o‘zlashtirib, xususiy yer mulk egasi - ozod, erkin dexo‘on jamoalariga (kashshovarzlarga) aylanadilar. Xar bir daryo quyi xavzasini o‘zlashtirishda bir necha erkin va ozod kashovarzlar urug‘-aymoqchilik an’analariga ko‘ra birlashib, erkin dexqonlar (kashovarzlar) qishloq jamoasini tashkil etadilar. Shunday tartibda tashkil topgan qishloq jamoasi, uning mulki ona urug‘i davridagidek, endi ijtimoiy xarakterga ega emas, balki xususiy xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni «vis» jamoasida ilk bor xususiy mulk, o‘zlashtirgan yerga xususiy egalik qilish paydo bo‘ladi. Jamoada xususiy mulkning paydo bo‘lishida erkaklarning xizmati katta bo‘lgan. Endi, bolalar ham o‘z otasini yaqindan tanib, bola tarbiyasi juft oila qo‘liga o‘tganligi bois, bolalar o‘rtasidagi oila mulki taqsimotida otalarning roli ortib boradi.

Shunday qilib, oilada, jamoada erkaklar nufuzi ortib, asta - sekin ota urug‘i (patriarxat) qaror topadi. «Vis»larning iqtisodiy xo‘jalik asosini tashkil etishda tashabbuskor kashovarlar orasidan jamoa a’zolari o‘z oqsoqollarini saylab oladilar. Odatda, oqsoqol, jamoa sardori - kadxudot yuksak ijtimoiy-siyosiy mavqega ega usta mirishkor va omilkor dexqon yoki moxir hunarmand, shaxsiy axloq va odobi, ma’naviy-axloqiy yuksakligi bilan o‘z jamoasi og‘ziga tushgan piru-ustoz bo‘lib, bu sifatlarga o‘z vaqtida halol mexnati, turmush tajribasi tufayli erishgan jamoa a’zolaridan bo‘lgan. O’sha davr urug‘ jamoalarn kundalik xayot qonuniga aylangan sardorlikka talab aynan kadxudotdan, Avesto tili bilan aytganda, vispatidan, zantupatidan, dax’yupatidan shunday shaxsiy sifatlarga ega bulishlikni talab qilgan. Bu o‘zbek xalqi davlatchilik tarixining ilk bosqichlariga xos boshqaruvin tizimining demokratik prinsiplari edi. O’rta Osiyo hududiy doirasida tashkil topgan Qadimgi Baqtriya podsholigi, Qadimgi Xorazm davlati, Qang‘ dav- lati, Davan podsholigi ana shu boshqaruvin prinsiplari asosida tashkil topgan ilk davlatchilikning aynan o‘zgini, mahalliy hokimliklar uyushmasidan tarkib topgan viloyat (daxyu) darajasidagi davlatlar edi. Sovet davri tarixiy adabiyotlarida mahalliy hokimliklarning soni 15 tagacha bo‘lgan, degan fikr hukmron edi. Ammo, mustaqillik davrida chop etilgan asarlarda, bu borada xam noaniqliklar bo‘lganligi isbot etildi. Ilk O’rta asrlar davri mintqa tarixida ulariing soni quyidagicha aniqlandi. Masalan, O’zbekistonning janubida, ya’ni shimoliy Toxaristonda ilk o‘rta asrlarda Termizshoxlar, va Guftan (Sherobod vohasi) hokimliklari tashkil topadi. Bular orasida mahalliy hukmdorlari o‘z nomlaridan mis va kumush tanglarni zarb etish qudratiga ega edilar. Chag‘aniyonda V asrdan boshlab mis tangalar zerb etila boshlaydilar. Ularning yuz tomonida mahalliy hukmdorning tasviri, orqa tomonida esa yakorsimon tamg‘a chekilgan. V asrning oxiri va VI asr boshlaridan esa sosoniylar podshosi Feruz tangalariga taqlid qilingan kumush tangalar chiqarildi. VI asrning ikkinchi yarmidan Xusrav draxmalariga taqlid qilingan Chag‘aniyon ixshidlarining kumush tangalari zerb etila boshlandi. VII asrning ikkinchi yarmidan esa shimoliy Toxaristonda mahalliy feodal hokimliklar tangalari qatorida arab dirxam va felslari muomalada bo‘lgan. VIII asr oxiriga kelib, Toxaristonda mahalliy hokimliklarga arablar tomonidan barham berildi.

Kezi kelganda ta’kiddash joizki, agar hukmdor metalldan pul zerb eta boshlasa, demak bu davlatning tarkib topganligidan, pul (tanga) o‘tmishda davlat ramzları - gerb, bayroq

(tug‘) va uning madhiyasi bo‘lganligidan, Mis tanga ichki bozor muomalasining ekvivalenti. Agar hukmdor kumush tanga zarb etishga jazm etsa, demak, bu uning iqtisodiy qudrati, mustaqil davlat sifatida siyosat olib borganligidan nishonadir.

Bronza va ilk temir davri arxeologik yodgorliklaridan topilgan muxrlar esa tub ma’nodagi davlatning tashkil topganligidan darak bermaydi. Bu qadimda qabila boshlig‘i - yetakchisining, diniy-ilohiy raxnamosining, harbiy va dunyoviy sardori (kaviysi) va qishloq jamoasi boshliqlarining hukmdorlik sardorlik belgisi bo‘lgan. Shuning uchun ularda faqat urug‘ va qabila totemlari o‘z aksini topgan va ular o‘z navbatida protodavlat belgisi, davlatchilikning kurtaklari tarkib topganligidan, o‘troq aholi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy salohiyati asosida mahalliy ilk davlatchalar shakllanib borayotganligidan guvohlik beradi. Tangalarda esa albatga hukmdor siymosi. yozuv va tegishli xudolarning ramziy siymosi o‘z aksini topadi.

O’zbekistonning markaziy qismi hisoblangan So‘g‘diyonada ilk o‘rta asrlarda uchta mustaqil tarixan tarkib topgan yirik viloyat hokimliklari shakllangan. Panjikentdan to Karmanagacha bo‘lgan tumanlar Markaziy So‘g‘dni tashkil etib, uning bosh shahri Samarqand hisoblangan. Zarafshon vohasining Karmanadan g‘arbda joylashgan tumanlari G‘arbiy So‘g‘dni tashkil etgan. Uning bosh shahri Buxoro bo‘lgan. Qashqadaryo havzasida tarkib topgan tumanlar Janubiy So‘g‘d yerlarini tashkil etgan. Janubiy So‘g‘dning yuqori Qashqadaryo tumanlari - Kesh viloyati, quyi Qashqadaryo tumanlari esa Naxshob viloyati deb yuritilgan. Viloyat hokimliklari tepasida turgan hukmdorlar Farbiy So‘g‘dda xu-dotlar, markaziy va janubiy So‘g‘dda ixshidlar deb yuritilgan.

Masalan, g‘arbiy So‘g‘d yerlari 22 ta rustaklardan tashkil topgan¹. Ularning 15 tasi Buxoro vohasinng mudofaa devori ichida, 7 tasi esa voha devori tashqarisida joylashgan. Ularning nomlari yozma manbalarda so‘g‘diycha bo‘lib, Tavovis, quyi Xarkana, Xitfar, Qoxushtuvon, Yuqori Samjon va Quyi Samjon, Yuqori Faraviz va Quyi Faraviz, Zar, Fargidat, Paykent, Farob va boshqa nomlarda bizgacha yetib kelgan. Markaziy So‘g‘dda ular VII asr o‘rtalarida 11 ta bo‘lgan. Bu xaqda nafaqat yozma manbalarda, balki qadimgi Afrosiyob devoriy suratlarida ham te- gishli ma’lumotlar bor, ya’ni Samarqand ixshidi Varxumanni qutlab turli mamlakatlardan kelgan elchilarni qabul marosimiga bag‘ishlangan shohona saroy devorida, uning taxti ravonda o‘tirgan holati rang-barang chizgilarda aks ettirilgan. Varxuman atrofida uning yaqinlari, unga tobe 11 ta rustak ixshid va ixridlari va ularning tug‘lari (bayroqlari) tasviri ham chizilgan. Bir qator qilib, tik terib quyilgan 11 bayroq dastalari qizil lenta bilan bir-birlariga ramziy bog‘lab quyilgan. Ushbu manzara Markaziy So‘g‘dda 11 ta ixshid va ixridliklar bo‘lganligi va ularning Samarqand ixshidi (podshosi) Varxuman boshchiligidida «So‘g‘d davlat konfederatsiyasi» tuzilganligidan dalolat beradi. Shunday holat janubiy So‘g‘dda ham kuzatiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, tovar-pul munosabatlari mamlakat iqtisodiy hayotida juda muhim o‘rin tutgan. So‘g‘diyona yunonlar ta’siridan salavkiylar davridayoq qutulib, mustaqil taraqqiyot yo‘liga tushib olgan edi. Mahalliy hokimliklar yunon tangalariga taqlid qilib, o‘z tangalarini chiqara boshlaganlar.

Miloddan avvalgi I asrda So‘g‘dda topilgan tangalar taxliliga ko‘ra, Zarafshon vohasining kamida 3 ta davlat konfederatsiyasi bo‘lgan, deyish mumkin. Masalan, Samarqand So‘g‘dining maxalliy hokimliklari Antiox I tangalariga taqlid qilib, uzoq yillar mis tangalar zarb etishda davom etadi. Buxoroliklar esa yunon-baqtriya podsholaridan Yevtidem

tetradraxmasiga taqlid qilib pul chiqaradilar. Qashqadaryo mahalliy hokimliklari esa Aleksandr sur'ati solingan salavkiy tangalariga taqlid etib, tanga zarb etadilar. Milodiy eradan boshlab, So'g'diyonada so'g'd maxalliy xukmdorlarining nomlari bitilgan tangalar zarb etila boshlaydi. Biroq, ulardagi yozuv va mahalliy hokimlarning sur'atlari juda sifatsiz va texnik jihatdan nuqsonli bo'lganligidan ulardagi biron ta hukmdor nomini aniqlash mumkin bo'lman. Milodiy III asrgacha So'g'd shahar hayotida qandaydir iqtisodiy tanazzul bo'lgan ko'rindi. Faqat III asr oxiri va IV asr boshlaridagina So'g'd hayotida Ipak yo'li bilan bog'lik iqtisodiy yuksalishlar yuz beradi. Bu haqda birinchi bor Dunxuandan topilgan hujjat — «So'g'd eski yozuvlari» guvoxlik beradi.

Ilk o'rta asrlarda So'g'dning savdo shahri nomi bilan nom chiqargan Poykent shaxrining iqtisodiy qudrati arab tarixchisi Tabariyni lol qoldirgan. Uning yozishicha «Poykentda arablar tomonidan shunchalar ko'p oltin va kumush idishlar talandiki. ularning ko'pligidan sanog'iga yeta olmaysan kishi»¹. Bunday yuksaklikni IV asrning oxirlarida butun So'g'd bo'yab kuzatish mumkin edi. V asrdan boshlab mustakil So'g'd hokimliklari sur'atlari bitilgan tangalar zarb etila boshlaydi. VII asrga kelib So'g'd mahalliy hokimliklarining kumush tangalari jahon savdosida o'z o'rniga ega edi. So'g'diyona shunday yuksakliklarga erishishiga qaramay, mamlakatda ilk o'rta asrlar davomida yagona podsholik (markaziy hokimiyat) bo'lman. Bunday hokimiyatni tarkib topishiga dastlab xiyoniylar va kidariylarning bu zaminga kirib kelishi sabab buldi. So'g'diyona VI asr boshlaridan eftaliylar tarkibida, 563 yildan esa Turk hoqonligi qo'l ostiga o'tadi. Garchi ular (Turk hoqonligidan boshqa) mahalliy hokimliklar boshkaruv tizimiga aralashmagan holda, ular dan katta-katta o'lpon (soliq) olish bilan kifoyalanish siyosatini yuritsalarda, amalda markazlashgan davlatni barpo bo'lishidan manfaatdor emas edilar. Chunki, ular O'rta Osiyo etnomadaniy maydonida qudratli yangi siyosiy kuchning paydo bulishini istamas edilar. Shu bois, So'g'd maxalliy aslzodalarining boy tajribalaridan o'z maksadlari yo'lida foydalanish ilinjida, eftaliy va turk hoqonlari, ularni davlat boshqaruvi xizmatlariga faol tortishni afzal ko'radilar. Biroq VIII asr boshlaridan VIII asr oxirlarigacha davom etgan qattiq, janglar va qo'zg'olonlardan so'ng, arab bosqinchilari mahalliy aslzodalar orasidan o'z tayanchlarini topib, nafaqat butun So'g'diyona, balki Movarounnaxr va Xurosonda o'z hukmronligini o'rnatishga erishdilar. Arablar, eftaliy va turk hoqonlaridan farqli o'laroq, yangicha boshqaruvi tizimini ishlab chiqdilar.

So'g'dan sharqda Sirdaryo havzasida Ustrushona viloyati joylashgan. Uning g'arbiy qismini O'zbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi. Uning sharqiy qismi - Xo'jand viloyati esa hozirgi kunda Tojikiston hududida.

Ilk o'rta asrlar Ustrushonasi 18 ta tumanliklardan tashkil topgan. Istanxriy ma'lumotlariga ko'ra, ular Kurket, Gazak, Vagket, Sabat, Zomin, Dizak, Bunjikat, Xarakana, Feknan, Fagkat, Mink, Asbanikat, Biskar, Bantam, Vakr, Shagar, Burgar, Buttam kabi rustaklar bo'lib, ular tepasida turgan hukmdorlar afshinlar deb atalgan¹. Xitoy manbalariga ko'ra, Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi.

Arab geograflarining xabariga qaraganda, Ustrushonaning bosh shaxri Bunjikat bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar buni to'lik tasdiqlaydi². Shaxristondan topilgan kumush tangalarga ko'ra, dastlab Ustrushonani mahalliy afshinlar boshqargan. VIII asr birinchi choragidan Ustrushonani turkiy sulola vakillari boshqara boshlagan. Darxaqiqat, arab tarixchisi Istanxriy 737 yil voqealari munosabati bilan Ustrushona afshini turk Xarabug'a ekanligini eslaydi.

Undan so'ng yaqin 60 yil Ustrushona afshinligini turk Xanaxara egallaydi. U mashhur xalifa Ma'mun ibn Xorun xizmatida bulib, Iroq va Misrda ko'tarilgan quzg'ololarni bostirishda qatnashgan¹.

Ustrushonadan shimoliy-sharqda, Sirdarayoning yuqori xavzasida qadimgi Farg'ona joylashgan. U Gerodotning «Tarix» asarida «parikaniylar yurti» nomi ostida eslab o'tiladi. Farg'ona so'zi so'g'd manbalarida «tog'lar orasidagi vodiylari, atrofi berk soylik ma'nosini anglatadi³. Xitoy manbalarida «Dayyuan, ya'ni Davan» deb atalgan. Dayyuan ham «tog'lar orasidagi vodiylari, ma'nosini beradi⁴.

Qadimgi Farg'ona haqidagi mufassal ma'lumotlarni biz Xitoy manbalarida uchratamiz. Bu ma'lumotlar xitoyliklarning mashxur «24 tarixi» ning 1-2 jildi, ya'ni Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» va Ban Gu ning «Birinchi Xan sulolasi tarixi»da berilgan. Bu ikki asar N.Ya. Bichurin tarjimasi asosida bizgacha yetib kelgan. Ammo, «24 tarixi» ning Markaziy Osiyoga tegishli ko'pgina boblari N.Ya. Bichurin tarjimasiga kiritilmagan⁵. Ana shu «24 tarixi» ning 1-3 jildlaridagi Markaziy Osiyoga tegishli qismlaridan Farg'ona-Xitoy munosabatlariga oid yangi ma'lumotlar borki, ular «Tarixiy xotiralar»dagi «Xan Udi tazkiras», «Fargona tazkiras», «Xunlar tazkiras» va «Xannoma» dagi «Xan Udining tarjimai xoli», «Farbiy yurt (kukkor) tazkiras», «Xunlar haqida qissa», «Xan Vendi tazkiras», «Chjan Szyan, Li Guangli tarjimai xoli», «Nagma nova tazkiras», «Besh anosir (modda yoki jism) tazkiras» kabi boblarda beriladi. Bularning ko'pchiligi yuqorida ta'kidlaganimizdek, N.Ya. Bichurin tarjimasiga kiritilmagan. Shuning uchun Qadimgi Farg'ona (Davan) davlati va uning Xitoy bilan bo'lgan aloqalari yaxshi o'r ganilmagan edi.

Qadimgi Farg'ona nisbatan Xitoy manbalarida Davan davlati haqidagi ma'lumotlar oxirgi marta milodiy III asrda uchratiladi. 436 yilda imperator Vey elchisining hisobotida Qadimgi Farg'ona «Polona» nomi¹ bilan Davan o'rnida ishlatilgan. Qadimgi Farg'ona «Bey-shi»da (VII asr) «Boxan», «Feyxan» nomlari bilan tilga olinadi². «Bey-shi»da Feyxanda «hukmdor taxti oltin quchqor qiyofasida» ishlangan deyiladi. Boshqa bir Xitoy manbasi «Tan-shu»da (X asr) Qadimgi Farg'onani «IV asrdan boshlab to hokimiyat tepasiga turklar kelganiga qadar bir sulola boshqargan» deyiladi. 630 yili O'rta Osiyo orqali Hindistonga safarga otlangan Xitoy elchisi Syuan Szan hisobotida Feyxan yagona hukmdor tasarrufida emas, u yerda mayda mahalliy hukmdorlar ko'p, deb ta'kidlaydi.

Qadimgi Farg'ona antik davrida 70 ga yaqin katta va kichik maxalliy hokimliklardan iborat ekanligi, ular asosida Davan podsholigi tashkil topganligi haqida qadimgi Xitoy yozma manbalarida ta'kidlansada, bu ramziy xarakterdagи davlat edi. Uning podshosini huquqi maxalliy xokimliklardan tashkil toptan Oliy kengash tomonidan qatiy chegaralangan edi. Bunday holat arxeologik yodgorliklar misolida ham o'z tasdig'ini topgan.

Masalan, Qadimgi Farg'ona onaning Qoradaryo havzasida olib borilgan arxeologik dala tadqiqot natijalari bu masalaga oydinlik kiritadi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mazkur maskan antik va ilk o'rta asrlar davrida bir necha mikrovohalardan tarkib topgan 11 ta irrigatsion rayonlarni tashkil etgan. Ularda antik davriga oid 247 ta yodgorlik (erkin dehqon xo'jaliklarining qishloqlari) bo'lsa, ilk o'rta asrlarga kelib, ularning soni 166 taga tushib qolgan. Demak, qishloq jamoalari ichida mulkiy tabaqlanish jadal kechgan, mulk egalari - kashovarzlarning bir qismi mulksiz kadivarlargalari, ular hisobiga boyib borayotgan kashovarzlarning badavlat qismi dexqonzodalar-mulkdor feodallarga aylanib borgan.

Qoradaryo havzasi yodgorliklarining tarixiy topografiyasiga ko‘ra, voha yodgorliklarini uch kategoriyaga. ya’ni shaharlar, qishloq hokimliklarining qasrlari va qishloq jamoalari ob’ektlariga ajratilganda quyidagi holatni kuzatish mumkin bo‘ladi: agar antik davrda qishloq jamoasi maskanlari ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lsa, ilk o‘rta asrlarda shahar hokimliklarining qasrlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Har bir irrigatsion rayonda, uning iqtisodiy va siyosiy markazi sifatida shahar tipidagi yodgorlik qayd qilinadi. Mikrovohalarda esa, ularning bosh qarorgoxi sifatida qishloq hokimliklarining qasrlari kuzatiladi.

Shunday qilib, ilk o‘rta asrlarga kelganda Qoradaryo xavzasining har bir irrigatsion rayoni doirasida tuman hokimliklari, mikrovohalar bazasida qishloq hokimliklari, umuman Qadimgi Farg‘onaning yirik shaharlari bazasida esa shahar-davlatlar tashkil topgan ko‘rinadi. Qoradaryo havzasida arxeologik materiallar asosida kuzatilgan bu tarixiy jarayon nafaqat butun Farg‘ona mulkiga, balki O‘rta Osiyoning dehqonchilik madaniyati rivoj topgan barcha viloyatlariga xos bo‘lib, o‘zbek davlatchiligining mahalliy ildizlari aynan ana shularga borib taqaladi. Choch vohasi va Qadimgi Xorazmda ham ilk O‘rta asrlarda xuddi shu tarixiy manzara kuzatiladi.

O‘rta Osiyo ilk o‘rta asrlar davri shaharlarining rivojlanishi masalasida fanda ikki xil fikr shakllangan. Birinchisi, S.P.Tolstovga tegishli bo‘lib, uning fikricha, ilk o‘rta asr shaharlarida umumiy inqiroz holati kuzatiladi. Dexqonzodalar qasrlari va hukmdorlar mahkamasini hisobga olmaganda, hunarmandchilik tarmoqlarining rivoji, shahar qurilishi va ularni obodonlashtirish ishlari bo‘shashib ketadi¹.

Ikkinci qarash A.M.Belinitsskiyga tegishli bo‘lib, u Samarcand va Marv kabi yirik shaharlardan tashqari, ko‘pgina shaharlarning maydoni qisqaradi, ammo bu davrda shaxar tipidagi aholi punktlari favqulodda ko‘payadi¹, degan xulosaga keladi.

Xo‘s, bu davrda Toshkent vohasida shaharlar hayoti bilan bog‘lik nimalar yuz berdi?

Avvalambor, Toshkent voxasi eftaliylar davlati tarkibiga qo‘shib olindi. Milodiy VI asrning 60 yillaridan Choch Turk hoqonligi tarkibiga o‘tdi². Bu voqealar dastlab, Chochning janubiy-g‘arbiy shaharlari iqtisodiy rivojlanishiga sal-biy ta’sir etmay qolmas edi. Aynan shu vaqtda Iloq o‘zining boy rangli metallurgiya sanoatini intensiv o‘sishi xisobiga iqtisodiy saloxiyati ko‘tarilib, Chochdan ajralib chiqadi va ma’lum muddatgacha mustaqil rivojlanadi³. VI asr oxirlaridan kuchaygan turk aslzodalarining o‘zaro taxt uchun kurashlari davrida, Choch mustaqillikka intilib ko‘rdi. Ammo, VII asr boshlaridan yana hoqonlikka tobe bo‘lib, Chochni G‘arbiy Turk hoqonligining noibi-tuduni boshqaradigan bo‘ldi. Hatto tobe viloyatlarni boshqarish va soliq yig‘ish masalalarini qattiq nazoratda tutish maqsadida xoqonlikda ikkita kichik xoqon lavozimi joriy etilib, ularning birini qarorgoxi Choch atrofida bo‘lib, u Movaraunnaxrning So‘g‘d o‘lkalarini boshqarar edi. VIII asr boshlarida arablar bosqini tufayli Choch arablarga qarshi So‘g‘d, Farg‘ona ixshidlari va turk hoqonligining harbiy ittifoqiga qo‘shiladi. Bu ittifoq 723-724 yillarda Sirdaryo bo‘yida bo‘lgan janglarda arablarga qattiq zarba beradi. 739 yilda arablar Choch va uning ittifoqchilariga qarshi yangi xujum uyuştiradilar. Jang davomida arab lashkarboshisi Xoris ibn Surayj so‘g‘diylar tomoniga o‘tib ketadi⁴. Turk hoqonligi Xitoy ta’siriga tushib qolgan kezlarda, arablar Chochga, uni mustaqilligiga putur yetkazmaslik sharti bilan o‘z noiblarini yuborib, Xitoya qarshi ittifoq tuzadi. Ammo, bu shartnomasi uzoqqa cho‘zilmaydi. Choch va Eloq VIII asr davomida arablarga qarshi barcha chiqishlarda faol qatnashadi.

Shunday qilib, VI—VIII asrlarda Choch tarixining ko‘p vaqt tashqi dushmanga qarshi kurashlar bilan izohlanadi. Bu kurashlar Choch iqtisodiy xayotiga salbiy ta’sir etmay qolmas edi. Shu munosabat bilan yirik shaxarlar maydoni dastlab qisqardi. Qachonkim, Choch Turk xokonligi tarkibiga o‘tgach, mavjud etnosiyosiy vaziyatda yuz bergan o‘zaro iqtisodiy manfaatdorlik paydo bo‘lib, shaharlar hayotida jonlanish boshlandi. VIII asr boshlariga kelganda, Chochda shaharlar soni ko‘payib, ular 32 taga yetdi. Shaharlar nafaqat daryo havzalarining quyi oqimlarida, balki ularning o‘rta va yuqori havzalarida ham tarkib topdi.

Masalan, Oxangaronning o‘rta oqimida Eloqning poytaxt shaxri Tunkat tashkil topdi, uning maydonida Eloq xukmdorining qasri qad ko‘taradi. Eloq nafaqat mis chaqalar, balki iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlanganligidan kumush tangalar zARB etish imkoniyatiga ega edi. Xatto, Eloq arablar qo‘l ostiga o‘tib, o‘z siyosiy mustaqilligini yo‘qotsada, kumush tanga zARB etishni davom ettirardi. Tunkat ruda eritish va uni qayta ishlash ustaxonalariga boy metallurglar shaxriga — markaziga aylanadi. Uning tog‘ sanoatini tez sur’atlar bilan rivojlanishi shida, Tunkat yaqinidan topilgan oltin va kumush konlari katta rol o‘ynaydi. Natijada, Tunkatning tog‘ sanoati nafaqat uni Eloqning yirik iqtisodiy markazi, balki siyosiy poytaxtiga aylanishida muhim rol o‘ynaydi. Ilk o‘rta asrlarda Ohangaron havzasida Tunkat (17,5 ga), Qulota (15 ga), Namudlik (12 ga), Tepa (12 ga), Oshxonatepa (11 ga), Munchoqgepa (11.2ga) kabi qator shaxar va boshqa axoli punktlari vujudga keldiki, ularning iqtisodiy negizini asosan tog‘ sanoati tashkil qildi.

Ayniqsa, karvon yo‘llarining Eloq shaxarlari orqali o‘tgan tarmoqlari Choch iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega edi. Bu yo‘llar bo‘ylab yangi savdo punktlari (Chinachkat, Navkat) qad ko‘taradi.

Shunday qilib, ilk o‘rta asrlarda Choch shaharlarining son jihatdan o‘sishi va ularning iqtisodiy ixtisoslashuvi kuzatiladi. Bu jarayon Chochdan Eloqni ma’lum muddatga ajrab, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritishiga olib keldi. Urbanizatsiya jarayonlari Chochning adirli rayonlariga jadal kirib borib, hatto Chochning poytaxti Sirdaryo soxillaridan voxaning shimoliy rayonlariga, ya’ni hozirgi Toshkent shahri rayoniga - Mingurikka ko‘chadi. Ilk o‘rta asrlarda Chochda yuz bergan urbanistik jarayonlar vohada asosan kichik shahar punktlarining paydo bo‘lishi hisobiga yuz berdi.

Ilk o‘rta asrlarda vohaga turkiy etnik qatlamlarning to‘xtovsiz kirib kelishi, ayniqsa Chochning Turk hoqonligi tarkibida bo‘lishi, uning madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi va makonda turk-so‘g‘diy etnomadaniy maydonning shakllanishiga olib keldi. Choch eroniyligi aholining turklashish jarayoni jadal kechgan maskanga aylandi. Bu holatlar ayniqsa, arxeologik materiallarda yaxshi kuzatiladi va yozma manba materiallari esa ularni tasdiqlaydi.

2-mavzu: Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar natijalari

Reja:

3. Markaziy Osiyoda madaniy hududiy birliklarning shakllanishi.
4. Madaniy aloqalar tizimining rivojlanib borishi

Qadimgi zamonlardan boshlab Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri bir-biriga

uzviy bog‘langan. Ular turli ko‘rinishdagi o‘zaro va tashki aloqalar, madaniyatlararo muloqot asosida rivojlanib borgan. Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asaridagi quyidagi fikrlar bu tarixiy xaqiqatning eng lo‘nda ifodasidir: «Tariximiz kabi, qadimgi madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko‘plab etnik guruxlar, el-elatlar o‘z ulushini qushgan. Bu tabiiy hol, chunki hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo‘lmaydi. Har kanday sivilizatsiya ko‘pdan-ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir»¹.

Sharq sivilizatsiyasi markazlaridan biri xisoblangan Markaziy Osiyo asrlar mobaynida Buyuk Ipak yulining markaziy bug‘ini Sharq va Farb sivilizatsiyalari uchrashadigan, xamkorlik hududi sifatida mashhur bo‘lib, halkaro iktisodiy-madaniy aloqalarda muxim o‘rin tutgan.

«Madaniy aloqalar» tushunchasi ancha keng qamrovli bo‘lib, u kishilik jamiyatlari o‘rtasidagi turli ko‘rinishdagi aloqalarni o‘zida aks ettiradi. Madaniy aloqalar savdo-sotiq va elchilik mu-nosabatlari, xunarmandchilik, me’morchilik, xaykaltaroshlik, tasviriy san’at, diniy-falsafiy ta’limotlar, axloqiy mezonlar almashinuvi, ilm-fannning turli sohalaridagi hamkorlik, ishlab chikarishdagi texnologik yangiliklarning, innovatsion g‘oyalarning tarqalishi va boshqa ko‘rinishlarda amalga oshirilib kelingan. Har qanday sivilizatsiya rivojlanishida ko‘shni va uzoq o‘lkalar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar katta o‘rin tutgan bo‘lib, bu jarayon madaniy yuksalish va texnologik taraqqiyotga turtki bergan. Turli sabablar tufayli, xalqaro aloqalardan uzilib qolgan jamiyatlarda turg‘unlik va inqiroz davri boshlanishi insoniyat tarixida ko‘p bor kuzatilgan. Sivilizatsiya - jahon taraqqiyotining omili bo‘lib, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotning xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, tarixiy tajriba va zamonaviy muammolar kabi masalalarni o‘rganish muxim ahamiyatga ega.

Bu, birinchidan, Markaziy Osiyoning «yuragi» xisoblangan O’zbekistonning umumjaxon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasining hajmi va salmog‘ini to‘la anglashga, ikkinchidan, uning mintaqaning butun xududida barqarorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustaxkamlashdagi zamonaviy geosiyosiy axamiyatini tushunib yetishga ko‘maklashadi.

Madaniy aloqalar tarixiga nazar tashlasak, turli tarixiy davrlarda ichki va tashqi madaniy aloqalar rivojiga ta’sir qiluvchi omillar ichida quyidagilar asosiy o‘rin tutib kelganini qayd qilish mumkin:

- mamlakatning geografik holati, tabiat, hududining hajmi;
- aholisi miqdori;
 - xalqning mentaliteti, xarakteri;
- hukumat tuzilishi, boshqaruvin tizimida tegishli mahkamalar mavjudligi va ular faoliyatining samara dorligi;
- siyosiy barqarorlik, huquqiy mezonlarning yetakchilik qilishi;

- aloqa yo'llari va tegishli infratuzilmalar mavjudligi.

Yangi tadkikotlarga asoslanib madaniy alokalarni davrlashtirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha tarixiy bosqichlarni qayd qilish mumkin. Misol uchun, madaniy aloqalarning ilk bosqichi tosh davridayoq boshlangan. Yer yuzining turli hududlarida olib borilgan tarixiy arxeologax tadqiqotlar natijalarini taxlil qilsak, ilk aloqa yillari shakllana boshlagan qadimgi davrdayoq yer sharining turli hududlari o'rtasida madaniy muloqot va hamkorlik paydo bo'la boshlagan- ligini ko'ramiz. Dastlab o'zaro qushni qabilalarning xo'jalik yuritish soxasidagi yangiliklarni bir-birlaridan o'zlashtirib borishi tarzida boshlangan bu jarayon jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda kengayib, ma'lum geografik hududda ishlab chikaruvchi kuchlar va vositalar taraqqiyotiga yordam beruvchi texnologik yangiliklar tarqalishiga, ibridoiy diniy tasavvurlar va axloqiy qarashlar, o'zaro muloqotni ta'minlovchi til birliklari shakllanishiga olib keldi¹.

Mezolit va ayniqla neolit davridan boshlab O'rta Osiyo mintaqasining janubiy viloyatlari Old Osiyo va Janubi-G'arbiy Osiyoda boshlangan iqtisodiy-madaniy jarayonlar doirasiga tortila boshlaydi. Natijada ishlab chiqaruvchi xujalik — dexqonchilik va chorvachilik, kulolchilik, tuqimachilik, kemachilik, paxsa va guvaladan uy-joylar qurilishi paydo bo'la boshladi (Joytun madaniyati). Neolit davridan bu jarayonlar rivojida yangi davr boshlandi. Joytun madaniyatiga oid makonlarda Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga mansub yodgorliklardagi topilmalarga o'xhash moddiy buyumlar borligi² mintaqamiz janubining Yaqin Sharq va Mesopotamiya hududlari bilan o'zaro iqtisodiy-madaniy aloqalari, turli ma'lumotlar va axborot almashinuvi mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.

Bu davrda O'rta Osiyoning Sharqiy Turkiston va Mo'g'uliston hududlari bilan ham o'zaro aloqalari yo'nga qo'yila boshlagan bo'lishi mumkin. Xususan, Mug'ulistonning Xoyt Senker (Xoyt Senxer) g'oridan topilgan qoyatosh suratlarning umumiyligi mazmuni va uslubi O'rta Osiyo, Pomir, Tyan-Shan va Sibirdagi tosh davri qoyatosh suratlari bilan o'xhashligidan kelib chikkan mutaxassislar mazkur hududlar o'rtasidagi madaniy aloqalar va umuman Tinch Okeanidan Qora dengizgacha bo'lgan katta hududda ko'chib yurgan qabilalarning madaniyati umumiyligi haqida xu-losalar chiqarmoqdalar.

Ayrim ma'lumotlar neolit davrida O'rta Osiyo bilan Xitoy o'rtasidagi aloqalar shakllana boshlaganligini ham qayd etishga im-kon beradi. Bu davrda Xitoyda bir qancha ekin turlari «G'arb dunyosi», ya'ni Xitoyning g'arbida joylashgan hududlar, jumladan O'rta Osiyo bilan bog'liq madaniy aloqalar ta'sirida paydo bo'lganligi xaqidagi fikrlar mavjud.

Markaziy Osiyoning madaniy aloqalari miloddan avvalgi IV—II ming yilliklarla xam taraqqiy etib bordi. Kadimgi Sharq sivilizatsiya markazlari paydo bo'lib, ilk sivilizatsiyalar va ularning periferiyalari (chekka xududlari) shakllana boshlagan bu davrda transmintaqaviy aloqa yo'llari bo'ylab olib borilgan muloqotda iqtisodiy omillardan ham ko'ra ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-g'oyaviy ta'sir yetakchi o'rin tutib kelgan. Bronza davrilan boshlab mintaqamizning janubiy viloyatlari Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi

markazlarining madaniy ta'siri doirasida bo'lib keldi. Bu xududlar bilan madaniy aloqalar natijasida sug'orma dexqonchilik madaniyati, ishlab chiqarishda muhim texnologik yangilik, ya'ni kulolchilik charxi va g'ildirakdan foydalanish, mis va bronza metallurgiyasi, ilk shaharsozlik madaniyati va davlat boshqaruvi asoslari shakllandi. Bu bosqichda Markaziy Osiyodan qo'shni hududlarga ham madaniy ta'sir bo'lgani va bu keyingi davrlarda yanada kengayib borganini qayd qilish kerak.

Bronza davrida O'rta Osiyoning janubidagi protoshahar madaniyatları (Oltintepa, Namozgox) Xind daryosi vodiysidagi sivilizatsiya markazlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqada bo'lgan. Janubiy Turkmaniston va Hindistondagi Xarappa madaniyatiga mansub manzilgoxlarda o'xshash sopol haykalchalar uchrashi, Oltintepaning turli madaniy qatlamlarida fil suyagidan ishlangan buyumlar borligi hamda ayrim sopol va metall buyumlarda Xarappa va Moxenjo-Daro madaniyatining ta'siri borligi¹ bu hududlarning qizgin iqtisodiy-madaniy alokalari natijasidir.

Miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridagi madaniy aloqalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda - O'rta Osiyoda Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm kabi tarixiy-madaniy viloyatlar paydo bo'ldi. Shaharsozlik madaniyati yuksalib, mahalliy madaniyatlar markazi bo'lgan yirik shaxarlar barpo etildi. Sivilizatsiyaning muhim ko'rsatkichi bo'lgan mahalliy yozuvlar paydo bo'la boshladi. Ular ichida Olmaota yaqinidagi Issiq qurg'onidan topilgan va taddiqotchilar tomonidan qadimgi turkiy yozuvning Oltoy dialektida bitilgan deb xisoblanayotgan yozuv², Talas vodiysi, Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi, Qashkadaryo vohasi (Uzunqir, Chashmimiron) hududlaridan topilgan va miloddan avvalgi VI—IV asrlarga tegishli turkiy bitiklar³ mintaqasi madaniyati rivojida mahalliy an'analar ustuvorligidan dalolat beradi. Bu davrda O'rta Osiyo o'lkalari Qadimgi Sharq sivilizatsiya markazlaridan farq qiladigan mahalliy an'analar va taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari- ga ega bo'lgan holda rivojlanib bordi. Bu davrda mintaqamizda paydo bulgan Zardushtiylik ta'limoti Eron, Afg'oniston va Hindistonning shimoliy hududlariga xam tarqaldi. Shu tariqa, o'zaro madaniy hamkorlik ikki tomonlama bo'lib, O'rta Osiyodan Sharq sivilizatsiyasining birlamchi markazlariga g'oyaviy ta'sir yuz berdi.

Ahamoniylar davridagi madaniy aloqalar mintaqasi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Madaniy aloqalarning bu yangi bosqichida O'rta Osiyoning ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan hududlari umumsaltanat doirasidagi madaniy hamkorlikka tortildi. Markaziy Osiyoning janubiy va g'arbiy viloyatlariga kirib kelgan oromiy yozuvi asosida So'g'd, Baqtriya va Xorazm yozuvlari shakllandi. Davlat boshkaruvida, mahalliy boshqaruvsda yangi an'analar paydo bo'ldi. Shu bilan birga, bu davrda - O'rta Osiyo madaniyatida Eron ahamoniylari madaniyatidan tubdan farq qiluvchi asosiy xususiyatlar saqlab qolindi.

Aleksandrning yurishlaridan keyin Markaziy Osiyoda yunon madaniyatiga xos an'analar

paydo bo‘ldi. Bu jarayon Salavkiylar davrida o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. O’rta Osiyoning Salavka davlati tarkibiga kirgan hududlarida mahalliy va yunon (ellistik) madaniyatlari sintezi yuzaga kelib, yunon alifbosiga asoslangan yozuv, yangi ikonografik ko‘rinishdagi tangalar, o‘lchov birliklar va boshqalar tarqaldi. O’z navbatida yunonlar ham me’morchilik, hunarmandchilikning ayrim sohalarida mahalliy an’analarni qabul qildilar, yunon mifologiyasi va diniy qarashlari mahalliy dinlar bilan boyitildi (masalan, yunonlar va ulardan rimliklarga Mitra ma’budiga sig‘inish kirib bordi)¹.

Buyuk ipak yo‘li shakllanib, Xitoy bilan iqtisodiy va madaniy alokdlar urnatilgandan keyin mintaqada, birinchi galda Dovon va Kdng davlati xududlaridagi makonlardan kadimgi Xitoy madaniyatiga xos belgilar paydo bula boshlaydi. Masalan, Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasidagi makonlardan Xitoy tangalariga taqlid qilib yasalgan u-shu tangalari, Xitoydan keltirilgan oyna buyumlar, Xitoy ipagidan tayyorlangan mato- lar va kiyimlar topilgan. O’z navbatida xitoyliklar Markaziy Osiyo xalqlaridan yilqichilikni, uzumchilik, beda ekish, paxta yetishtirish, bodring va boshqa poliz maxsulotlarini madaniylashtirishni o‘zlashtirdilar. Murakkab gidrotexnik inshootlar barpo qilish, xususan korizlar tizimi orqali sug‘orish ham Xitoya bizning mintaqadan kirib bordi.

Kushonlar davrida O’rta Osiyoning Hindiston, Xitoy, Rim sultanati va boshqa mamlakatlar bilan madaniy aloqalari yanada kengaydi. Mintaqaga janubiga Buddha ta’limoti kirib keldi, boyitildi va bu yerdan Sharqiy Turkistonga xamda Xitoya yoyildi. Kushonlar davrida tasviriy san’at va badiiy xunarmandchilikda yunon-xind va buddizm ta’limoti qushilishidan paydo bulgan Gandxara san’at yunalishi mintaqaga kirib keldi. O’zbekistan janubidagi Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa va Xolchayon yodgorliklarida, Ayrитом sharafa bezaklarida, Buddha va Bodxisatva haykallarida buni yaqqol ko‘rish mumkin².

Shu tarika, O’rta Osiyo xalqlari qadimgi davrdan boshlab o‘zaro va qo‘sh- ni xalqlar bilan mustahkam madaniy aloqada bo‘lib keldilar. Bu aloqalar ijtimoiy-iqtisodiy xayotning turli sohalaridagi xamkorlik, turli texnologik yutuqlarni keng miqyosda o‘zaro almashish, savdo-sotiq va elchilik munosabatlari, badiiy hunarmandchilik, me’morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy san’at va madaniyatning boshqa sohalaridagi o‘zaro ta’sir, diniy-falsafiy qarashlar va axloqiy mezonlarning almashinushi, yozuv va xattotlik san’ati rivoji hamda boshqa ko‘rinishlarda amalga oshirib kelindi. Bu jihatdan mintaqaning qadimgi yo‘llari, xususan, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab amalga oshirilgan madaniy muloqotlarning ahamiyati nihoyatda katga bo‘ldi. Mintaqaning asosiy karvon yo‘llaridagi savdo karvonlari tarkibida hunarmandlar, olimlar, shoirlar va musiqachilar xam bo‘lib, ular turli xalqlarning madaniyatini yoyishda katta o‘rin tutganlar. Madaniy aloqalar rivojida markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi va ularning madaniy aloqlarda xomiyligi katta o‘rin tutdi.

3-mavzu: Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davriga oid tadqiqotlar

Reja:

3. Chig‘atoy ulusi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
4. Temuriylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar

Ma'lumki, g'arbiy Qoraxoniylar davrida o'zbek elati shakllandi. Shakllangan xalqning XIII-XIV asrlardagi etnik tarixini bir qator forsiy, arabiylar va turkiy (eski chig‘atoy tili) manbalar yoritib beradi. Xususan, Ibn al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix” asari mazkur davr Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rghanishda asosiy manba bo'lib, unda dunyoning yaratilishidan 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan.

Manbaning mo'g'ullar istilosiga bag'ishlangan 12-jildi alohida qimmatga ega. Unda Movarounnahr, hamda Sharq mamlakatlarining XIII asr birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan birga etnik tarixi yoritib berilgan.

Asar Xivada Muhammad Rahim II (1863-1910) davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif oxundlar tomonidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, hozirda mazkur tarjimaning o'n uchta qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

XIX-XX asrlarda manbaning matni va qisqa tarjimalari bir necha bor turli tillarda nashr etilgan. Ayrim parchalarni rus tiliga N.A.Mednikov, A.Ye.Krymskiy tarjima qilgan. Shuningdek, asarning O'rta Osiyoga tegishli qismlari tarjimasini P.G.Bulgakov amalga oshirgan. Mazkur tarjimani o'zgartirish va qo'shimchalar bilan nashr Sh.S.Kamoliddin etgan.

Bu davr etnik tarixi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy (vaf. 1249 y.)ning “Sirot assulton Jaloluddin Menkburni” (bundan keyin “Sirot”) nomli arab tilidagi asarida ham aks etgan. Muallif 1224-1231 yillarda Xorazmshoh Jaloliddingga (1199-1231) kotiblik qildi va asarda aks etgan tarixiy voqeа-hodisalarни bevosa ishtirok etdi. Manbada O'rta Osiyo, Kavkaz, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining mo'g'ul istilosi davridagi (1220-1231) ijtimoiy, siyosiy ahvoli keng yoritilgan bo'lib, 1241 yil Halabda tugallangan. Asar muqaddima va 108 bobdan iborat. Manbaning 1-4-boblarida mo'g'ul-tatarlar va Chingizzon tarixi, 5-22 boblarida Xorazmshoh Muhammadning hayoti va faoliyati, 23-108-boblarida mo'g'ul istilosi, hamda Jaloliddinning kurashi va faoliyati hikoya qilinadi. “Sirot”ning 1224-1231 yillar voqealarini o'z ichiga olgan boblari original va katta tarixiy ahamiyatga ega.

“Sirot” XIII asrdayoq fors tiliga o'girilgan edi. Manbaning arabcha matni, fransuzcha tarjimasini bilan 1891-1895 yillarda Parij va Qohirada chop qilingan. Uning qisqartirilgan turkcha tarjimasini Yusuf Ziyo va Ahmad Tavhid, forschalar tarjimasini Muhammad Ali Nosih va Mujtab Minoviy amalga oshirgan. Asarning XIII asrda Turkmaniston tarixini hikoya qiluvchi qismini S.L.Volin nashr etgan. “Sirot”ning fransuzcha tarjimasini Najib Osim turkchaga o'girgan. Shuningdek, manbaning Z.M.Buniyatov amalga oshirgan rus tilidagi mukammal tarjimasi ham mavjud. Mazkur tarjima K.Matyoqubov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, chop etilgan.

Xorazmshoh Jaloliddin tarixi bayon etilgan yana bir tarixiy asar “Nafsat al-masdur”dir. Asar muallifi haqida turli ziddiyatlar mavjud. Z.V.To‘g'onning yozishicha, u Nuriddin

Muhammad Munshiy qalamiga mansub. Shunisi qiziqki, u ham an-Nasaviy kabi Jaloliddinning kotibi bo‘lgan. I.Qofaso‘g‘li bu ikki muallif aslida bir odam ekanini yozadi. Asarning yozilgan vaqtida aniq ma’lumot keltirilmasa-da, Mirzo Muhammad Qazviniy u “Sirot”dan avval yozilganini aytadi. Asar tuzilish va voqealar bayoniga ko‘ra, “Sirot”ga o‘xshaydi.

Manba hozirgacha to‘la o‘rganilmagan. Uning matni 1928 yil Tehronda toshbosma shaklida nashr etilgan.

Jamol Qarshiyning “*Mulhaqot as-suroh*” asari ham XIII asr ikkinchi yarmi-XIV asr boshlaridagi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Asar Abu Nasr Ismoil ibn Hammud al-Javhariyning (vaf. 1008 y.) “*As-sahoh*” nomli asariga yozilgan qo‘sishimcha bo‘lib, unda Markaziy Osiyo xalqlarining XIII asrdagi etnik tarixi, madaniyati, yirik shaharlari, mo‘g‘ullar bosqini, chig‘atoy xonlari tarixi yoritib berilgan.

“*Mulhaqot as-suroh*” hozirgacha biron-bir tilga to‘la o‘girilmagan bo‘lib, ba’zi qismlarigina tarjima qilingan. V.V.Bartold asar matnining bir qismini 1898 yilda nashr etgan. Manbaning qo‘lyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya va O‘zbekistonda mavjud.

Bu davr tarixi aks etgan yana bir manba Sa’duddin Muhammad Avfiy (XII asr so‘nggi choragi va XIII asr birinchi yarmi)ning “*Javomi al-hikoyat*” nomli asaridir. Muarrix asli buxorolik bo‘lib, mo‘g‘ullar istilosini arafasida Hindistonga yo‘l oladi. Olim Movarounnahr va Xuroson bo‘ylab ko‘p sayohat qilib, 1227-1236 yillarda to‘rt qismdan (har bir qism 25 bobdan) iborat “*Javomi al-hikoyat*” asarini yozadi. Unda Hindiston, Eron, hamda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid 2113 ta tarixiy latifa keltirilgan. Biz uchun asarning to‘rtinchini qismi ahamiyatli bo‘lib, unda O‘rta Osiyoning qadimiy turkiy xalqlari va Buxoro sadrlari haqida ma’lumotlar mavjud. Shuni ta’kidlash joizki, asar hozirgacha biron-bir tilga to‘liq tarjima qilinmagan.

Avfiyning 1222-1223 yillarda yozilgan “*Lubob al-albob*” nomli tazkirasi ham bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, G’azna hamda G’arbiy Hindistonda X-XII asrlarda yashab ijod etgan 299 shoir va adib haqida umumiyligi ma’lumot berilgan. Asarning forsiy matni E.Braun va Mirza Muhammad Qazviniy tomonidan nashr etilgan.

“*Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi*” mazkur davr turk-mo‘g‘ul xalqlari etnik tarixini yoritishda asosiy manbalardan bo‘lib, 1240 yilda yozilgan. Unda mo‘g‘ul istilolari keng yoritilganiga qaramay Movarounnahr yurishiga va mintaqadagi xalqlar tarixiga kam e’tibor qaratilgan. Manba turk-mo‘g‘ul xalqlarining kelib chiqishi, Onon, Kerulen va Illo bo‘ylaridagi etnik ahvolni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, unda barloslar va Chingizzon bir ildizdan ekani ta’kidlanib, ular Borchegin (Bo‘richegin, Bo‘rchechin – U.S) naslidandir, deyiladi.

Manbadan o‘rta asrlarda ham yetakchi muarrixlar, jumladan Juvayniy keng foydalangan. “*Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi*” hozirgacha bir necha bor turli tillarga tarjima qilingan.

Alouddin Otamatlik Juvayniy (1226-1283) qalamiga mansub “*Tarixi jahonkushoy*” asari ham Movarounnahrdagi etnik jarayonlarni o‘rganishda muhim manbalardandir. Juvayniyning otasi Bahouddin Muhammad Xorazmshoh Muhammadning Xurosondagi noibi bo‘lib, dastlab mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashadi. Movarounnahr to‘la egallangach, mo‘g‘ullar uni ma’lumotli ekanidan xabar topib, saroy xizmatiga jalb qiladilar.

Uning farzandlari, xususan Alouddin Otamalik ham yoshligidan mo‘g‘ul hukmdorlari xizmatiga kirib, yuqori davlat amallarini egallaydi. U o‘zi shohid bo‘lgan va eshitgan voqealar, shuningdek, turli manbalar (jumladan asarning Xorazmshohlar tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmagan “*Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroib*”, Faxruddin Roziyning (vaf. 1210 y.) “*Javome’ al-ulum*” asariga tayanib yozilgan.) asosida 1260 yilda “*Tarixi jahonkushoy*” asarini yozib tamomlaydi. Unda Mo‘g‘uliston, O‘rta Osiyo va Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi aks etgan va uch qismdan iborat: birinchi qismda mo‘g‘ullar, ularning Chingizzon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek, Jo‘jixon, Chig‘atoyxon va avlodlari tarixi; ikkinchi qismda Xorazmshohlar va Xurosonning mo‘g‘ul hukmdorlari davridagi (1258 yilgacha) tarixi; uchinchi qismda Eronning 1256-1258 yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Ismoiliylarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090-1258) tarixi yoritilgan.

“*Tarixi jahonkushoy*”ning I-II qismlari Markaziy Osiyo xalqlari tarixida alohida ahamiyatga ega. Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar asosan muallifning shu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to‘plangan.

Keyingi davrlarda Juvayniy asariga bir qancha zayllar ham yozilgan. Xususan, Abdulloh ibn Fazlulloh al-Sheroziy Vassaf (XIV asr) “*Tarixi Vassaf*” nomli asarini “*Tarixi jahonkushoy*”ga ilova qilgan. Asarda asosan 1257-1337 yillardagi Elxoniylar tarixi aks etgan bo‘lsa-da, mazkur davr Chig‘atoy ulusi va Elxoniylar o‘rtasidagi munosabatlar ham aks etgan. Manba 1853 yil Bombeyda nashr etilgan.

“*Tarixi jahonkushoy*”ning tanqidiy matnini Mirzo Muhammad Qazviniy amalga oshirgan. Uni J.Boyl ingliz tiliga tarjima qilgan. Mazkur tarjimani D.Morgan 1997 yilda so‘zboshi bilan qayta nashr etgan. Bundan tashqari manbaning ba’zi qismlari M.Defremeri, Ch.Shefer, M.Houtsma, V.Radlov, K.Zaleman, V.V.Bartold, D.Ross, J.Tehroniy, H.Elliott, K.d’Osson, B.Shpuler, I.Berezin kabi olimlar tomonidan tarjima yoki matn holida ham chop qilingan. Manbani G.Skarchiya italyan tiliga, M.O’zturk turk tiliga o‘girgan. Shuningdek, “*Tarixi jahonkushoy*” ustida N.Toshev ham maxsus tadqiqot olib borib, manbani Markaziy Osiyo tarixiga tegishli qismlarini tarjima qilgan.

Mo‘g‘ullar davri aks etgan yana bir forsiy manba “*Tabaqoti Nosiriy*” bo‘lib, muallifi XIII asrda o‘tgan tarixchi Minhojiddin Juzjoniydir. Olim mo‘g‘ul istilosidan so‘ng Dehli sultonligiga qochib borib, Shamsiddin Eltutmish (1211-1235) va uning o‘g‘li Nosiriddin Mahmudshoh (1246-1265) saroyida xizmat qiladi va 1260 yilda “*Tabaqoti Nosiriy*”ni yozib tamomlaydi. Asar 23 bobdan iborat bo‘lib, 16-bobi Xorazmshohlar tarixiga, so‘nggi 23-bobi esa mo‘g‘ullar istilosiga bag‘ishlangan. Asarning biz uchun ahamiyatli jihat, unda Movarounnahr va Xorazm hududidagi etnomadaniy jarayonlar xususida ham so‘z yuritilgan.

Asar tanqidiy matni A.Habibiy tomonidan tayyorlangan. Manba matnining islom tarixiga oid qismlarini U.Nassau Les 1864 yilda Kalkuttada nashr etgan. Uning inglizcha to‘la tarjimasini M.Ravertiy amalga oshirgan.

Mazkur davr Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixini o‘rganishda Rashididdin Fazlulloh al-Hamadoniy (1247-1318)ning “*Jome’ at-tavorix*” asari ham birlamchi manbalardan hisoblanadi.

Olimning ota-bobolari ham o‘z zamonasining o‘qimishli kishilaridan bo‘lgan.

Z.V.To‘g‘on Rashididdin yahudiy tabibi oilasidan bo‘lgani yozadi. Rashididdin Elxoniy hukmdorlar Aboqaxon, G’ozonxon, O’ljoytu va Abu Saidxon davrida mamlakatdagi yuqori amallarda xizmat qilgan.

Rashididdin bir qancha asarlar muallifidir. Xususan, ilohiyot ilmining ayrim masalalariga bag‘ishlangan “*Al-majmuot ar-Rashidiya*”, tabiatga oid “*Al-osor va-l-ihya*”, “*Bayon al-haqoiq*”, qurilish masalalariga doir “*Asila va ajiba*” va umumiylar tarixga bag‘ishlangan “*Jome’ at-tavorix*” asarlari shular jumlasidandir. Biroq, olimning bizgacha to‘la yetib kelgan yagona asari faqatgina “*Jome’ at-tavorix*” bo‘lib, u o‘rta asr Sharq tarixnavisligida yangi an‘anani boshlab bergan. Unda umumiylar tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G’arb mamlakatlari, Xitoy va Hindiston tarixi ham yoritilgan. Asar 1301-1311 yillarda G’ozonxonning topshirig‘i bilan yozilgan. U uch qismidan iborat: birinchi qismda mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar, hamda mo‘g‘ullar asoratiga tushgan mamlakatlari – Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istilosigacha bo‘lgan qisqa tarixi; ikkinchi qismda Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyatdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi, G’aznaviyalar, Saljuqiyalar, Xorazmshohlar, Xitoy, qadimgi yahudiyalar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi; uchinchi qismda Yer kurrasi, hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati aks etgan. Asarning uchinchi qismi bizgacha saqlanib qolmagan.

“*Jome’ at-tavorix*”dagi turk va mo‘g‘ul xalqlarining Chingizzonga qadar kechgan tarixi Elxoniylar kutubxonasida saqlanayotgan “*Oltin daftar*, Mahmud Qoshg‘ariy va Juvayniy kabi tarixchilar asarlari asosida shuningdek, turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixi va rivoyatlarini yaxshi bilgan kishilar, Po‘lod, Chjen-syan, G’ozonxon va boshqalarning og‘zaki axborotlari, G’arb mamlakatlari, Xitoy va Hindiston xalqlari tarixiga oid qismlari o‘scha vaqtarda Eronga kelib qolgan fransiyalik ikki katolik rohib, ikki xitoylik olim va kashmirlik rohibning ishtirokida yozilgan. To‘plangan ma’lumotlarni tartibga solish ishlarini muallifning yordamchilari Abdulloh Koshoniy va Ahmad Buxoriylar bajargan.

Hofizi Abru (vaf.1430 y.) “*Jome’ at-tavorix*”ga ilova yozgan bo‘lib, asar matnini Xonbobo Bayoniy Tehronda nashr etgan. Shuningdek, olim asarning fransuzcha tarjimasini ham amalga oshirgan. Mazkur zaylga Kurtlar sulolasidan chiqqan podshohlar, Tug‘a Temur, Amir Vali ibn Shayx Ali Hindu, sarbadorlar, Amir Arg‘unshoh tarixi, ya’ni Eronda 1306-1393 yillar orasida bo‘lib o‘tgan voqealar kiritilgan.

“*Jome’ at-tavorix*”ning eski o‘zbek tiliga qilingan ikkita tarjimasi bor. Ulardan birini Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy Shayboniy Kuchkunchixon (1510-1530) topshirig‘iga ko‘ra, ikkinchisini 1556 yilda Solur bobo ibn Qul Ali Urganch hokimi Ali Sulton (vaf. 1572 y.) buyrug‘i bilan amalga oshirgan.

O‘tgan ikki asr mobaynida manbaning forscha matni, shuningdek, turli tillardagi to‘liq va ayrim qismlarining tarjimalari e’lon qilingan. Xususan, asarning Halokuxon davriga oid qismi M.Katrmer, to‘rt ulus va qoonlar qismi E.Bloshe, Abakaxon va G’ozonxon davri K.Yan, forsiy matni va ruscha tarjimasi I.N.Berezin tomonidan nashr qilingan. Bundan tashqari, manbaning A.Alizoda, B.Karimiy, A.Atas, J.Boyl va boshqalar amalga oshirgan tarjimalari ham mavjud. Shuningdek, asar 1946-1960 yillarda rus tiliga ham tarjima qilingan.

“*Tarixi guzida*” ham bu davr yoritilgan asosiy manbalardan bo‘lib, muallifi Hamdulloh Qazviniy (1281-1350) Rashididdin davrida Qazvin, Abhar va Zanjon viloyatlarining

moliyaviy ishlarini boshqargan. Rashididdin qatl etilgandan so‘ng, uning o‘g‘li G’iyosuddin Muhammadning xizmatiga kirgan. U “Zafarnoma”, “Tarixi guzida” hamda “Nuzhat al-qulub” nomli asarlarni yaratgan.

“Zafarnoma”da turk-mo‘g‘ul xalqlari xususida ham so‘z yuritilgan bo‘lib, 75000 baytdan iborat. Asarning nushalari Britaniya muzeyi (№ 2833) va Istanbuldagi Avkaf muzeyida (№ 2041, 2042) mavjud.

“Tarixi guzida” umumiy tarix yo‘nalishida yozilgan bo‘lib, unda qadim zamonlardan 1330 yilgacha Eron va O‘rta Osiyodagi voqealar bayon etilgan. Olim vafotidan keyin asar o‘g‘li Zayniddin tomonidan davom ettirilib, unga 1392 yilgacha Eronda bo‘lib o‘tgan voqealar qo‘shilgan. Asar muqaddima va 6 bobdan iborat. Uning 4-bobida Abbosiylar davrida Eron, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan Safforiylar, Somoniylar, G‘aznaviylar, G‘uriylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, mo‘g‘ullar tarixi bayon etilgan.

Asar matni va qisqartirilgan inglizcha tarjimasini E.Braun nashr etgan. Shuningdek, asar matnini 1960 yil A.Navoiy ham e’lon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, XIII-XIV asrlarga oid manbalar asosan forsiy, qisman arab tilida yozilgan. Ularda Movarounnahr hududidagi etnik jarayonlar asosiy tadqiqot ob’ekti sifatida aks etmagan bo‘lsa ham, Xorazmshohlar davlati, mo‘g‘ullarning istilochilik yurishlari, Chig‘atoy ulusi tarixi bilan birga Movarounnahr va unga tutash hududlardagi etnik vaziyat va etnomadaniy jarayonlar to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan. Juvayniy, Rashididdin, Jamol Qarshiy kabi tarixchilarning asarlarida turk-mo‘g‘ul xalqlarining etnik kelib chiqishi va tarqalishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, mazkur davr aks etgan manbalarning aksariyati hozirgacha tanqidiy matn yoki tarjima sifatida nashr etilgan bo‘lsa-da, ulardan asosan, Markaziy Osiyoning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy tarixini yoritishda foydalanilgan. Manbalardagi etnik masalalarga oid ma’lumotlar aniq va izchil bo‘lmagani bois tadqiqotlarga kam jalb etilgan.

Ma’lumki, g‘arbiy Qoraxoniyalar davrida o‘zbek elati shakllandi. Shakllangan xalqning XIII-XIV asrlardagi etnik tarixini bir qator forsiy, arabiylar va turkiy (eski chig‘atoy tili) manbalar yoritib beradi. Xususan, Ibn al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix” asari mazkur davr Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib, unda dunyoning yaratilishidan 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan .

Manbaning mo‘g‘ullar istilosiga bag‘ishlangan 12-jildi alohida qimmatga ega. Unda Movarounnahr, hamda Sharq mamlakatlarining XIII asr birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan birga etnik tarixi yoritib berilgan.

Asar Xivada Muhammad Rahim II (1863-1910) davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif oxundlar tomonidan eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, hozirda mazkur tarjimaning o‘n uchta qo‘lyozmasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda .

XIX-XX asrlarda manbaning matni va qisqa tarjimalari bir necha bor turli tillarda nashr etilgan . Ayrim parchalarni rus tiliga N.A.Mednikov, A.Ye.Krymskiy tarjima qilgan . Shuningdek, asarning O‘rta Osiyoga tegishli qismlari tarjimasini P.G.Bulgakov amalga oshirgan. Mazkur tarjimani o‘zgartirish va qo‘sishchalar bilan nashr Sh.S.Kamoliddin etgan .

Bu davr etnik tarixi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy (vaf. 1249 y.)ning “Sirot assulton Jaloluddin Menkburni” (bundan keyin “Sirot”) nomli arab tilidagi asarida ham aks

etgan. Muallif 1224-1231 yillarda Xorazmshoh Jaloliddinga (1199-1231) kotiblik qildi va asarda aks etgan tarixiy voqealari bevosa ishtirok etdi. Manbada O'rta Osiyo, Kavkaz, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining mo'g'ul istilosi davridagi (1220-1231) ijtimoiy, siyosiy ahvoli keng yoritilgan bo'lib, 1241 yil Halabda tugallangan. Asar muqaddima va 108 bobdan iborat. Manbaning 1-4-boblarida mo'g'ul-tatarlar va Chingizzon tarixi, 5-22 boblarida Xorazmshoh Muhammadning hayoti va faoliyati, 23-108-boblarida mo'g'ul istilosi, hamda Jaloliddinning kurashi va faoliyati hikoya qilinadi. "Sirot"ning 1224-1231 yillar voqealarini o'z ichiga olgan boblari original va katta tarixiy ahamiyatga ega.

"Sirot" XIII asrdayoq fors tiliga o'girilgan edi. Manbaning arabcha matni, fransuzcha tarjimasi bilan 1891-1895 yillarda Parij va Qohirada chop qilingan. Uning qisqartirilgan turkcha tarjimasini Yusuf Ziyo va Ahmad Tavhid, forscha tarjimasini Muhammad Ali Nosih va Mujtab Minoviy amalga oshirgan. Asarning XIII asrda Turkmaniston tarixini hikoya qiluvchi qismi S.L.Volin nashr etgan. "Sirot"ning fransuzcha tarjimasini Najib Osim turkchaga o'girgan. Shuningdek, manbaning Z.M.Buniyatov amalga oshirgan rus tilidagi mukammal tarjimasi ham mavjud. Mazkur tarjima K.Matyoqubov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, chop etilgan.

Xorazmshoh Jaloliddin tarixi bayon etilgan yana bir tarixiy asar "Nafsat al-masdur"dir. Asar muallifi haqida turli ziddiyatlar mavjud. Z.V.To'g'onning yozishicha, u Nuriddin Muhammad Munshiy qalamiga mansub. Shunisi qiziqliki, u ham an-Nasaviy kabi Jaloliddinning kotibi bo'lган. I.Qofaso'g'li bu ikki muallif aslida bir odam ekanini yozadi. Asarning yozilgan vaqtida aniq ma'lumot keltirilmasa-da, Mirzo Muhammad Qazviniy u "Sirot"dan avval yozilganini aytadi. Asar tuzilish va voqealar bayoniga ko'ra, "Sirot"ga o'xshaydi.

Manba hozirgacha to'la o'rganilmagan. Uning matni 1928 yil Tehronda toshbosma shaklida nashr etilgan.

Jamol Qarshiyining "Mulhaqot as-suroh" asari ham XIII asr ikkinchi yarmi-XIV asr boshlaridagi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Asar Abu Nasr Ismoil ibn Hammud al-Javhariyning (vaf. 1008 y.) "As-sahoh" nomli asariga yozilgan qo'shimcha bo'lib, unda Markaziy Osiyo xalqlarining XIII asrdagi etnik tarixi, madaniyati, yirik shaharlari, mo'g'ullar bosqini, chig'atoy xonlari tarixi yoritib berilgan.

"Mulhaqot as-suroh" hozirgacha biron-bir tilga to'la o'girilmagan bo'lib, ba'zi qismlarigina tarjima qilingan. V.V.Bartold asar matnining bir qismini 1898 yilda nashr etgan. Manbaning qo'lyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya va O'zbekistonda mavjud.

Bu davr tarixi aks etgan yana bir manba Sa'duddin Muhammad Avfiy (XII asr so'nggi choragi va XIII asr birinchi yarmi)ning "Javomi al-hikoyat" nomli asaridir. Muarrix asli buxorolik bo'lib, mo'g'ullar istilosi arafasida Hindistonga yo'l oladi. Olim Movarounnahr va Xuroson bo'ylab ko'p sayohat qilib, 1227-1236 yillarda to'rt qismdan (har bir qism 25 bobdan) iborat "Javomi al-hikoyat" asarini yozadi. Unda Hindiston, Eron, hamda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid 2113 ta tarixiy latifa keltirilgan. Biz uchun asarning to'rtinchisi qismi ahamiyatli bo'lib, unda O'rta Osiyoning qadimiy turkiy xalqlari va Buxoro sadrlari haqida ma'lumotlar mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, asar

hozirgacha biron-bir tilga to‘liq tarjima qilinmagan.

Avfiyning 1222-1223 yillarda yozilgan “Lubob al-albob” nomli tazkirasi ham bo‘lib, unda O’rta Osiyo, Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, G’azna hamda G’arbiy Hindistonda X-XII asrlarda yashab ijod etgan 299 shoir va adib haqida umumiylumot berilgan. Asarning forsiy matni E.Braun va Mirza Muhammad Qazviniy tomonidan nashr etilgan .

“Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” mazkur davr turk-mo‘g‘ul xalqlari etnik tarixini yoritishda asosiy manbalardan bo‘lib, 1240 yilda yozilgan . Unda mo‘g‘ul istilolari keng yoritilganiga qaramay Movarounnahr yurishiga va mintaqadagi xalqlar tarixiga kam e’tibor qaratilgan. Manba turk-mo‘g‘ul xalqlarining kelib chiqishi, Onon, Kerulen va Ilia bo‘ylaridagi etnik ahvolni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, unda barloslar va Chingizzon bir ildizdan ekani ta’kidlanib, ular Borchegin (Bo‘richegin, Bo‘rchechin – U.S) naslidandir , deyiladi.

Manbadan o‘rta asrlarda ham yetakchi muarrixlar, jumladan Juvayniy keng foydalangan . “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” hozirgacha bir necha bor turli tillarga tarjima qilingan .

Alouddin Otamalik Juvayniy (1226-1283) qalamiga mansub “Tarixi jahonkushoy” asari ham Movarounnahrdagi etnik jarayonlarni o‘rganishda muhim manbalardandir. Juvayniyning otasi Bahouddin Muhammad Xorazmshoh Muhammadning Xurosondagi noibi bo‘lib, dastlab mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashadi. Movarounnahr to‘la egallangach, mo‘g‘ullar uni ma’lumotli ekanidan xabar topib, saroy xizmatiga jalb qiladilar. Uning farzandlari, xususan Alouddin Otamalik ham yoshligidan mo‘g‘ul hukmdorlari xizmatiga kirib, yuqori davlat amallarini egallaydi. U o‘zi shohid bo‘lgan va eshitgan voqealar, shuningdek, turli manbalar (jumladan asarning Xorazmshohlar tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmagan “Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroib”, Faxruddin Roziyning (vaf. 1210 y.) “Javome’ al-ulum” asariga tayanib yozilgan.) asosida 1260 yilda “Tarixi jahonkushoy” asarini yozib tamomlaydi. Unda Mo‘g‘uliston, O’rta Osiyo va Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi aks etgan va uch qismdan iborat: birinchi qismda mo‘g‘ullar, ularning Chingizzon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek, Jo‘jixon, Chig‘atoxon va avlodlari tarixi; ikkinchi qismda Xorazmshohlar va Xurosonning mo‘g‘ul hukmdorlari davridagi (1258 yilgacha) tarixi; uchinchi qismda Eronning 1256-1258 yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Ismoiliylarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090-1258) tarixi yoritilgan.

“Tarixi jahonkushoy”ning I-II qismlari Markaziy Osiyo xalqlari tarixida alohida ahamiyatga ega. Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar asosan muallifning shu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to‘plangan.

Keyingi davrlarda Juvayniy asariga bir qancha zayllar ham yozilgan. Xususan, Abdulloh ibn Fazlulloh al-Sheroziy Vassaf (XIV asr) “Tarixi Vassaf” nomli asarini “Tarixi jahonkushoy”ga ilova qilgan. Asarda asosan 1257-1337 yillardagi Elxoniylar tarixi aks etgan bo‘lsa-da, mazkur davr Chig‘atoyni ulusi va Elxoniylar o‘rtasidagi munosabatlar ham aks etgan. Manba 1853 yil Bombeyda nashr etilgan .

“Tarixi jahonkushoy”ning tanqidiy matnini Mirzo Muhammad Qazviniy amalga oshirgan . Uni J.Boyl ingliz tiliga tarjima qilgan . Mazkur tarjimani D.Morgan 1997 yilda so‘zboshi bilan qayta nashr etgan . Bundan tashqari manbaning ba’zi qismlari M.Defremeri, Ch.Shefer, M.Houtsma, V.Radlov, K.Zaleman, V.V.Bartold, D.Ross, J.Tehroniy, H.Elliott,

K.d’Osson, B.Shpuler, I.Berezin kabi olimlar tomonidan tarjima yoki matn holida ham chop qilingan . Manbani G.Skarchiya italyan tiliga , M.O’zturk turk tiliga o‘girgan . Shuningdek, “Tarixi jahonkushoy” ustida N.Toshev ham maxsus tadqiqot olib borib, manbani Markaziy Osiyo tarixiga tegishli qimslarini tarjima qilgan .

Mo‘g‘ullar davri aks etgan yana bir forsiy manba “Tabaqoti Nosiriy” bo‘lib, muallifi XIII asrda o‘tgan tarixchi Minhojiddin Juzjoniydir. Olim mo‘g‘ul istilosidan so‘ng Dehli sultonligiga qochib borib, Shamsiddin Eltutmish (1211-1235) va uning o‘g‘li Nosiriddin Mahmudshoh (1246-1265) saroyida xizmat qiladi va 1260 yilda “Tabaqoti Nosiriy”ni yozib tamomlaydi. Asar 23 bobdan iborat bo‘lib, 16-bobi Xorazmshohlar tarixiga, so‘nggi 23-bobi esa mo‘g‘ullar istilosiga bag‘ishlangan. Asarning biz uchun ahamiyatli jihatni, unda Movarounnahr va Xorazm hududidagi etnomadaniy jarayonlar xususida ham so‘z yuritilgan.

Asar tanqidiy matni A.Habibiy tomonidan tayyorlangan . Manba matnining islom tarixiga oid qismlarini U.Nassau Les 1864 yilda Kalkuttada nashr etgan . Uning inglizcha to‘la tarjimasini M.Ravertiy amalgalashirgan .

Mazkur davr Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixini o‘rganishda Rashididdin Fazlulloh al-Hamadoniy (1247-1318)ning “Jome’ at-tavorix” asari ham birlamchi manbalardan hisoblanadi.

Olimning ota-bobolari ham o‘z zamonasining o‘qimishli kishilaridan bo‘lgan. Z.V.To‘g‘on Rashididdin yahudiy tabibi oilasidan bo‘lgani yozadi . Rashididdin Elxoni hukmdorlar Aboqaxon, G’ozonxon, O’ljoytu va Abu Saidxon davrida mamlakatdagi yuqori amallarda xizmat qilgan.

Rashididdin bir qancha asarlar muallifidir. Xususan, ilohiyot ilmining ayrim masalalariga bag‘ishlangan “Al-majmuot ar-Rashidiya”, tabiatga oid “Al-osor va-l-ihya”, “Bayon al-haqoq”, qurilish masalalariga doir “Asila va ajiba” va umumiyligi tarixiga bag‘ishlangan “Jome’ at-tavorix” asarlari shular jumlasidandir. Biroq, olimning bizgacha to‘la yetib kelgan yagona asari faqatgina “Jome’ at-tavorix” bo‘lib , u o‘rta asr Sharq tarixnavisligida yangi an‘anani boshlab bergan. Unda umumiyligi tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G‘arb mamlakatlari, Xitoy va Hindiston tarixi ham yoritilgan. Asar 1301-1311 yillarda G’ozonxonning topshirig‘i bilan yozilgan. U uch qismidan iborat: birinchi qismda mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar, hamda mo‘g‘ullar asoratiga tushgan mamlakatlari – Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istilosigacha bo‘lgan qisqa tarixi; ikkinchi qismda Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyatdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi, G’aznaviyalar, Saljuqiyalar, Xorazmshohlar, Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi; uchinchi qismda Yer kurrasi, hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati aks etgan. Asarning uchinchi qismi bizgacha saqlanib qolmagan.

“Jome’ at-tavorix”dagi turk va mo‘g‘ul xalqlarining Chingizxonga qadar kechgan tarixi Elxoniylar kutubxonasida saqlanayotgan “Oltin daftar” , Mahmud Qoshg‘ariy va Juvayniy kabi tarixchilar asarlari asosida shuningdek, turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixi va rivoyatlarini yaxshi bilgan kishilar, Po‘lod, Chjen-syan, G’ozonxon va boshqalarning og‘zaki axborotlari, G‘arb mamlakatlari, Xitoy va Hindiston xalqlari tarixiga oid qismlari o‘scha vaqtarda Eronga kelib qolgan fransiyalik ikki katolik rohib, ikki xitoylik olim va kashmirlik rohibning ishtirokida yozilgan . To‘plangan ma’lumotlarni tartibga solish

ishlarini muallifning yordamchilari Abdulloh Koshoniy va Ahmad Buxoriylar bajargan.

Hofizi Abru (vaf.1430 y.) “Jome’ at-tavorix”ga ilova yozgan bo‘lib, asar matnini Xonbobo Bayoniy Tehronda nashr etgan . Shuningdek, olim asarning fransuzcha tarjimasini ham amalga oshirgan . Mazkur zaylga Kurtlar sulolasidan chiqqan podshohlar, Tug‘a Temur, Amir Vali ibn Shayx Ali Hindu, sarbadorlar, Amir Arg‘unshoh tarixi, ya’ni Eronda 1306-1393 yillar orasida bo‘lib o‘tgan voqealar kiritilgan.

“Jome’ at-tavorix”ning eski o‘zbek tiliga qilingan ikkita tarjimasi bor. Ulardan birini Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy Shayboniy Kuchkunchixon (1510-1530) topshirig‘iga ko‘ra , ikkinchisini 1556 yilda Solur bobo ibn Qul Ali Urganch hokimi Ali Sulton (vaf. 1572 y.) buyrug‘i bilan amalga oshirgan .

O‘tgan ikki asr mobaynida manbaning forscha matni, shuningdek, turli tillardagi to‘liq va ayrim qismlarining tarjimalari e’lon qilingan. Xususan, asarning Halokuxon davriga oid qismi M.Katrmer , to‘rt ulus va qoonlar qismi E.Bloshe , Abakaxon va G’ozonxon davri K.Yan , forsiy matni va ruscha tarjimasi I.N.Berezin tomonidan nashr qilingan. Bundan tashqari, manbaning A.Alizoda , B.Karimiy , A.Atas , J.Boyl va boshqalar amalga oshirgan tarjimalari ham mavjud. Shuningdek, asar 1946-1960 yillarda rus tiliga ham tarjima qilingan .

“Tarixi guzida” ham bu davr yoritilgan asosiy manbalardan bo‘lib, muallifi Hamdulloh Qazviniy (1281-1350) Rashididdin davrida Qazvin, Abhar va Zanjon viloyatlarining moliyaviy ishlarini boshqargan. Rashididdin qatl etilgandan so‘ng, uning o‘g‘li G’iyosuddin Muhammadning xizmatiga kirgan. U “Zafarnoma”, “Tarixi guzida” hamda “Nuzhat al-qulub” nomli asarlarni yaratgan.

“Zafarnoma”da turk-mo‘g‘ul xalqlari xususida ham so‘z yuritilgan bo‘lib, 75000 baytdan iborat. Asarning nushalari Britaniya muzeyi (№ 2833) va Istanbuldagi Avkaf muzeyida (№ 2041, 2042) mavjud .

“Tarixi guzida” umumiy tarix yo‘nalishida yozilgan bo‘lib, unda qadim zamonlardan 1330 yilgacha Eron va O‘rta Osiyodagi voqealar bayon etilgan. Olim vafotidan keyin asar o‘g‘li Zayniddin tomonidan davom ettirilib, unga 1392 yilgacha Eronda bo‘lib o‘tgan voqealar qo‘shilgan. Asar muqaddima va 6 bobdan iborat. Uning 4-bobida Abbosiylar davrida Eron, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan Safforiylar, Somoniylar, G‘aznaviylar, G‘uriylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, mo‘g‘ullar tarixi bayon etilgan.

Asar matni va qisqartirilgan inglizcha tarjimasini E.Braun nashr etgan . Shuningdek, asar matnini 1960 yil A.Navoiy ham e’lon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, XIII-XIV asrlarga oid manbalar asosan forsiy, qisman arab tilida yozilgan. Ularda Movarounnahr hududidagi etnik jarayonlar asosiy tadqiqot ob‘ekti sifatida aks etmagan bo‘lsa ham, Xorazmshohlar davlati, mo‘g‘ullarning istilochilik yurishlari, Chig‘atoy ulusi tarixi bilan birga Movarounnahr va unga tutash hududlardagi etnik vaziyat va etnomadaniy jarayonlar to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan. Juvayniy, Rashididdin, Jamol Qarshiy kabi tarixchilarning asarlarida turk-mo‘g‘ul xalqlarining etnik kelib chiqishi va tarqalishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, mazkur davr aks etgan manbalarining aksariyati hozirgacha tanqidiy matn yoki tarjima sifatida nashr etilgan bo‘lsa-da, ulardan asosan, Markaziy Osiyoning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy tarixini yoritishda foydalanilgan. Manbalardagi etnik masalalarga oid ma’lumotlar aniq va izchil bo‘lmagani bois tadqiqotlarga kam jalb etilgan.

Vatanimiz mustaqilligi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e'tibor karatdi. 1993 yil 31 avgustda Toshkentda Amir Temur haykalining ochilish marosimida nutqida I.A.Karimov: «Amir Temur mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi. Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharqu G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomiliga yetdi», — deb juda to'g'ri ta'kidladi.

Bu yillarda mavzuni o'rganish bo'yicha davlat miqyosida e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, Parijda 1996 yil 22 aprelda «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi» mavzusida o'tkazilgan konferensiyada o'zbek olimlarining mavzuni asosiy manbalar yordamida yoritib berishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar samarasi o'laroq, Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligining yanada kengayishiga katta imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi kunga kelib Amir Temur haqidagi o'rta asrlarga oid aksariyat asosiy yozma manbalar Yevropa tillarida bosilib chiqqan.

Mustaqillik yillarda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid yangi tadqiqotlar, manbalar ilmiy muomalaga kiritildi. Bu esa, o'z navbatida, Amir Temur va uning davlati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar saviyasining ortishiga olib keldi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanilgan holda Amir Temur hayoti va faoliyatiga berilgan baho tubdan o'zgardi va Sohibqironning faoliyatiga yangicha nuqtai nazar bilan qaraldi. Adolat nuqtai nazaridan yondoshganda Amir Temurning bunyodkorlik, ilm-fanga e'tibori V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy asarlarida ham ma'lum bir ma'noda o'z aksini topsa-da, lekin shu bilan birga, ularning asarlarida qator bahsli o'rinalar ham mavjud edi.

1990 yillar boshlarida B.V .Lunin, A. Axmedov, B. Axmedov kabi olimlar Amir Temur tarixini qayta, xolis o'rganish masalasini ko'tarib chiqib, uning shaxsiga yuqori baho berdilar.

Ammo mustakillikning dastlabki 1992 — 1994 yillarda chop etilgan ayrim adabiyotlar ham bor ediki, ularda hanuz sovet davrida mavjud fikrlarning davom etganini ko'rish mumkin. Demokchimizki, olamshumul voqeа bo'lgan mustaqillikning ahamiyati va mohiyatini daf'atan ilg'ab ololmagan tarixchilar ham bo'ldilar.

Mustakillik davrida erishilgan yutuq sifatida yaratilgan fundamental tadqiqotlarni keltirish mumkin. Bu o'rinda «Amir Temur jahon tarixida» nomli asarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Bu asarda Amir Temur va Temuriylar salatanatining iqtisodiy usishi va savdo alokdirli, xalkaro alokalar va diplomatiya, ilm-fan va madaniyati har tomonlama ochib berilgan. 1996 yili chop etilgan yana bir yirik asar «Temur va Ulug'bek davri tarixi»dir. Unda Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganishga bag'ishlangan manbalar, bu davrni o'rganishga xizmat qiluvchi adabiyotlar, Temur obrazining folklorda aks etishi, Temur va Ulug'bekning tarjimai holi, Temur va Ulug'bek davridagi ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy va madaniy hayot masalalari atroflicha yoritilgan.

Shuningdek, B.Axmedov G.A.Pugachenkova va R.G.Mukminova tomonidan hamkorlikda tayyorlangan «Amir Temur» nomli kollektiv monografiyada Amir Temurning

Yevropa va Osiyo tarixidagi buyuk xizmatlari, Buyuk ipak yo‘lini tiklagani, buniyodkorlik faoliyati, ilm-fan va madaniyatga homiyligi xususida so‘z boradi. Asarning o‘ziga xos ilmiy qimmati shundaki, unda boshqa asarlardan farqli o‘larroq Amir Temur sultanati boshkaruv tizimining ijobjiy tomonlari bilan birga, uning zaif tomonlari ham ko‘rsatilgan.

Bu yillarda Amir Temur bibliografiyasi tuzish ishlariga katta e’tibor qaratildi. R.Alimov tomonidan «Sohibqiron Amir Temur» metodik tavsyanomasi, akademik E.V.Rtveladze va professor A.X.Saidovlar tomonidan «Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida» bibliografiyasi, «Amir Temur bibliografiyasi» nashr etildi.

Temurshunoslik rivojiga manbalarning o‘rganilish darajasi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qildi. Yozma manbalarni tarjima kilish va izohlar bilan nashrga tayyorlash sohasida A.O’rinboyev, D.Yusupova, Karomatov, U.Uvatov, O.Bo‘riyev, G’-Karim kabi sharqshunos olimlarning xizmati katta bo‘ldi. Mavzuga doir qolgan manbalarning ham o‘zbek tiliga to‘la tarjimalari amalga oshirilib yangi tadqiqotlar uchun manbaviy asos ko‘paydi. Fikrimizcha, manbashunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni davom ettirib, yozma manbalarning tanqidiy va qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarni amalga oshirish asosida o‘sha davr voqeligi to‘larroq yoritilsa, mavzuning babs-munozarali muammolari o‘zining ilmiy yechimini topgan bo‘ldi. Zero, manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi natijasida temurshunoslikka hissa bo‘lib qo‘shilgan yangi tadqiqotlar amalga oshirildi. Amir Temur davlatining diplomatik munosabatlarini M.Xolbekov, A. Saidov (L.Keren bilan hammualliflikda), B.Mannonov, S.G’ulomov, U.Uvatov, A.Ziyo, N.Karimova, G .Karimov va Habibullayev, M.Abduraimov. I.Iskandarov, X. Ismatulloh, K.Burxonov, Sh.Farzaliyev, xorijlik olimlardan L.Keren, misrlik Fatxi al-Guveyli, amerikalik R. Nelson, germaniyalik K.Pander, pokistonlik F.Durroniy kabi olimlar maxsus o‘rganganlar.

Mustaqillik yillarda mavzuning qayta-qayta o‘rganilishi bois, uning tarixshunosligi Sh.O’ljayeva, D.Abidjanova, B.Usmonovlarning dissertatsiya himoyalari bo‘lib o‘tdi.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni umumlashtirish o‘rinlidir. Mazkur maqlolada Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid mustaqillik yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq va tahlil etildi. Ta’kidlash joizki, mazkur yillarda O‘zbekistonda, qisqa muddat ichida, Amir Temur sultanati tarixiga oid yozma manbalarning bir qism ilmiy muomalaga kiritilgan va salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mustakillik yillari tarixshunoslida Amir Temurning davlatchilik faoliyatini dolzarb mavzu darajasiga olib chiqishda, birinchi navbatda Prezident I.A.Karimovning asarlari, nutq va ma’ruzalarini Amir Temur hayoti va faoliyatini yoritishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qildi, mavzuni yangi mazmunda yoritishga imkon yaratdi. 1996 yili Sohibkiron tavalludining 660 yilligining xalqaro miqyosda nishonlanishi esa yangi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlarni yaratdi. Izchil munosabatning shakllangani tufayli, fanda sovet davrida Amir Temur shaxsiga nisbatan hukm surgan salbiy xulosa barham topib, mavzu yangi chizgilar bilan yoritildi. Hozirda Amir Temur tarixini har tomonlama o‘rganish va tadqiq qilish borasidagi tarixchilar oldiga qo‘ylgan vazifalarning hal etilib borayotganini ko‘rsatishimiz mumkin.

Manbashunos olimlar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan ma’lumotlar Amir Temur shaxsi, hayoti va faoliyati, fan va madaniyatga homiyligi bilan bog‘liq tomonlarga haqqoniy baho berish imkonini yaratib, noo‘rin bahslarga o‘rin qoldirmadi. Bularning natijasi o‘larroq Amir Temurning shaxsi, ilmiy mushohadasi, sarkardalik va davlatchilik faoliyati yangicha,

haqqoniy va xolis baho oldi. Shuningdek, Amir Temur hayoti va faoliyati tarixiga oid muhim, mavjud munozarali muammolarga oydinlik kiritishga, tadqiqotlarning manbaviy asosining kengayishiga, ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qildi. Qayd etish lozim, temurshunoslik rivojiga ijtimoiy-siyosiy muhit va manbalarning o‘rganilishi asosiy ta’sir etuvchi omillar bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsiga nisbatan tarixiy adolatning qaror topishini yutuk sifatida aytishimiz mumkin. Amir Temur hayoti va faoliyatining tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilishi va amalga oshirilgan tadqiqotlar yangi, avvalgiga nisbatan yuqori bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Ularda harbiy yurishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad sovet tarixshunoslida qayd etilganidek, «talonchilik» va «bosqinchilik» emas, balki ezgu niyat, ya’ni Buyuk ipak yo‘lini, kommunikatsiyani tiklash, bu orqali esa savdo—sotiq, ilm-fan taraqqiyotini rivojlantirish uchun sa’y-harakatlar qilgani, bunyodkorlik ishlarini keng miqyosda olib borgani isbotlab berildi.

Mustaqillik davri tarixshunosliding yantuqli jihatlaridan yana biri, tadqiqotlarda Amir Temur saltanatining xalqaro munosabatlari tarixi va diplomatiya munosabatlari tarixining eng yorqin sahifasi bo‘lgani, bunda diplomatiya qoidalariga qat’iy amal qilingani, Sohibqironning mazkur sohadagi mahorati yuqori baholanganligidir. Xususan, diplomatik munosabatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad savdo-sotiqni rivojlantirish ekanligi e’tirof etilgan.

Bu yillarda amalga oshirilgan ishlarning yana bir muhim jihat bu madaniyat va san’at taraqqiyotida Amir Temurning o‘rni va homiyligiga alohida e’tibor berilganligidir. Ularda sovet davrida Amir Temurga «vayronkor» deb berilgan bir yoqlama, salbiy fikrlar asossiz ekanligi, aksincha, Sohibqironning o‘zga yurtlardagi obodonchilikka bo‘lgan e’tibori, uning bunyodkorlik, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyatiga yuqori, faktologik va ilmiy asosli baho berildi.

Mustaqillik yillari o‘zbek tarixshunoslida muammoning xolis yoritilgani bilan birga ayrim salbiy holatlarni ham kuzatish mumkin. Bular, mutaxassis bo‘lmagan tarixchilar tomonidan mavzuning yengil-elpi yoritilishi, sarlavhaga qo‘yilgan muammoning mazmunda ochib berilmasligi, avvalgi tadqiqotlarning ilmiy yantuqlaridan foydalanmaslik, asosiy yozma manbalarga asoslanmaslik yoki yagona manbaga tayanib mavzuning talqin etilishi, takrorlash hollari, ilmiy tadqiq va tahlilga e’tibor bermaslik kabi xolatlardir. Shuningdek, tadqiqotlar tahlilini amalga oshirish natijasida mavzu yuzasidan dolzarb muammolar borligi bilan bir qatorda, ularning bir tekis o‘rganilmaganini qayd etish lozim. Xususan, yozma manbalarning bir qismi chop etilganiga qaramay, Amir Temurning siyosiy hokimiyat tepasiga kelishigacha bo‘lgan davrdagi faoliyati umumiy xarakterda o‘rganilgan yoki masala aksariyat hollarda chetlab o‘tilganligi holatlari kuzatiladi. Ba’zan tadqiqotlarda sana, joy va rasmiy marosim nomlari, atamalar xususida chalkashliklar mavjudligini ko‘rsatish joiz.

Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, Amir Temurni Doro I Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar va boshqa tarixiy daholarga qiyos qilib, ular bilan bir safga qo‘yish hollari tarixchilarning asarlarida uchraydi. Fikrimizcha, bunday qiyoslash noo‘rin bo‘lib, Sohibqironni ular bilan yonma-yon qo‘yib bo‘lmaydi. Sababi, Amir Temur o‘z «Tuzuklarga» asoslangan adolatli qonunchilik tizimini yaratib, umr bo‘yi bunyodkorlik bilan shug‘ullandi.

Hanuzgacha jahonda nashr etilayotgan nashrlar, turli ensiklopediyalar va internet ma'lumotlarida Amir Temurning shaxsi va faoliyatiga salbiy baho berib kelinmoqda. Afsuski, haligacha Amir Temurning harbiy mahorati va davlatning harbiy boshqaruv tizimini to'liq yoritishga bag'ishlangan fundamental tadqiqot bajarilmagan. Asosiy, manbalardagi ma'lumotlar turlicha bo'lib bu mavzuni murakkabligini oshiradi. Shuning uchun tadqiqotchining mavzuni yoritib berishigina kifoya qilmaydi. Asosiy manbalarni kompleks tahlili asosida manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan ob'ektiv tahlilini amalgalash oshirgan tadqiqot muammoga oydinlik kiritadi. Bu masalada maxsus ilmiy tadqiqot olib borilishi va harbiy yurishlarning har birini asosiy maqsadini ilmiy asosli ochib berilishi zamonaviy temurshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Sohibkironga tavallud topgan Vatanida eng haqqoniylar ilmiy yondashuv shakllanishi kerak, deb o'ylaymiz. O'zbekiston turli yondashuvdagi tendensiyalarni uzgartirishga amaliy yordam beradigan temurshunoslikning ilmiy markazga aylanishi kerak. Buning uchun O'zbekistonda temurshunoslik maktabi va yetarli ilmiy salohiyat shakllangan.

4-mavzu: Shayboniylar, Ashtarxoniyalar va xonliklar davriga oid tadqiqotlar

Reja:

1. Shayboniylar va Ashtarxoniyalar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Xonliklar davriga oid yangi tadqiqotlar

Mustaqillik yillarda O'zbekiston tarixi har tomonlama xolis va ilmiy yoritila boshlandi. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi tarixi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonlarida tutgan o'rnnini yoritishga katta e'tibor berilmoqda. Shubhasiz, o'zbek davlatchiligi an'analarining shakllanishida va taraqqiy etishida muhim o'rinni tutgan davrlardan biri o'zbek xonliklari davri hisoblanadi. G'arb Kaspiy dengizigacha, janubda Sharqiy Eron va Afg'oniston, shimol va sharqda Rossiya imperiyasi hamda Sharqiy Turkiston, Xitoy bilan savdo va diplomatik aloqlar olib borishda qulay geopolitik afzalliklarga ega bo'lgan xonliklar Markaziy Osiyo davlatlari orasida qulay geopolitik mavqega ega edi.

XVI asr boshlariga kelib, temuriylardan so'ng shakllangan Shayboniylar sulolasi Movarounnahr, Xuroson va va Xorazmda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa, qisqa vaqtida u ikki qismga – Buxoro va Xiva xonliklariga, XVIII asrning boshlariga kelib esa uchinchi davlatga, ya'ni Qo'qon xonligiga ajraladi. Shu tariqa avval yagona davlat bo'lgan hududda uch xonlik – Buxoro (1510-1920 yy), Xiva (1911-1920 yy) va Qo'qon (1709-1876 yy) yuzaga keladi.

Xonliklarning o'zaro va tashqi davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi aloqlari turli davrlarda turlilik kasb etib, murkkablashib boradi. Ayniqsa, XIX asrning o'rtalariga kelib, xonliklarga nisbatan tashqi xavf – Rossiya imperiyasining bosqinchilik xavfi kuchayib boradi. Bir tomondan xonliklarning ichki nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutishi, ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining xonliklar

hududlariga harbiy bosqinchilik yurishlarining kuchaytirilishi umumiy ahvolning yanada murakkablashuviga olib keldi. Bu holat nafaqat o‘z vaqtida jahon siyosatchilarining diqqatini, balki ko‘plab tarixchilarining diqqatini ham o‘ziga jalb etadi. Xonliklarning ichki hayoti va tashqi siyosatdagi o‘rni va faoliyati yuzasidan ko‘plab asarlar yaratiladi, tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Turli yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarning ana shu davrlardagi tarixini, jumladan siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy hayotini yoritib berishga katta e’tibor berilgan. Biroq bu vaqtgacha yaratilgan asarlarda asosiy maqsad xonliklar tarixining u yoki bu sohasini yoritib berishga qaratilgan bo‘lsada, ularda masalaga yondashuvning har-xilligi e’tiborni tortadi.

Bugungi kunda tarix faniga qo‘yilayotgan talablar o‘tmishni sinchiklab o‘rganish, ularni hal etishga bo‘lgan yondashuvlar va nuqtai-nazarlarni tahlil etib, ulardan bugungi kun uchun zarur xulosalarni chiqarishni talab etadi. Tarixni o‘rganishga bo‘lgan munosabatning turli siyosiy tuzumlar ta’sirida o‘zgarib turishi bugungi kun tadqiqotchilari oldiga uni xolisona tahlil qilish va ob’ektiv ilmiy xulosalar chiqarish kabi katta va mas’uliyatli vazifa qo‘yadi. Bunda eng avvalo ilmiy bilishning asosiy tamoyillari, umumjahon tarix fanining nazariy – konseptual asoslari, milliy istiqlol mafkurasi falsafasiga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarlar mualliflarining masalaga yondashuvlari va voqealarning yoritilish darajasi haqida hamda tarixshunoslik masalalari haqida so‘z yuritishga harakat qilingan. Bunda o‘zbek xonliklari tarixinining tarixshunosligi amaldagi davrlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, davrlashtirishni yanada aniqlashtirish maqsadida ma’lum kichik davrlarga bo‘lib, tahlil etilgan. Bu o‘zbek xonliklari tarixinining tarixshunoslik masalalariga yanada oydinlik kiritadi, degan umiddamiz.

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Bugungi kungacha tadqiqotchilar tomonidan o‘zbek xonliklari tarixini o‘rganishga ko‘plab marotaba murojaat qilingan va xonlik tarixinining turli muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, bugungi kungacha xonliklar davri tarixinining barcha masalalari to‘lig‘icha tadqiq qilib bo‘lingan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan xonliklar tarixini aks ettiruvchi asarlarda mualliflarning masalaga turlicha yondashuvlari fikrlarning va xulosalarning ham turlicha bo‘lishiga olib kelgan. Ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik va xolislikka asoslanilgan eng to‘g‘ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

O‘zbek xonliklari tarixi yuzasidan tadqiqot olib borgan va ularga bag‘ishlab turli asarlar yaratgan mualliflarning asarlaridagi ayrim xususiyatlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan birga o‘zbek xonliklari tarixiga oid asarlarning qisqacha bibliografiyasi berib o‘tilgan bo‘lib, undan turli davrlarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar va asarlar, matbuotda e’lon qilingan qator ilmiy maqolalar, xonlik tarixi yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va dissertatsiyalarda o‘z aksini torgan.

Shuningdek, mualliflar tomonidan o‘zbek xonliklari tarixi yuzasidan yozilgan asarlar va ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xonliklar tarixini davrlashtirish yuzasidan ba’zi fikr-mulohazalar berib o‘tilgan. Bu fikr-mulohazalar borasida soha mutaxassislari

tomonidan ayrim e'tirozlar va bahs-munozarali fikrlar bildirilishi tabiiy. Bu esa albatta, xonlik tarixini o'rganishda yanada mukammallikka erishishga zamin yaratish uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Qo'qon xonligi tarixini o'rganish XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Hozirgi kungacha xonlik tarixi bo'yicha amalga oshirilgan va yaratilgan ilmiy asarlar hamda ilmiy tadqiqotlarning salohiyati juda katta. o'tgan bir yarim asr mobaynida xonlik tarixini o'rganishda turlicha yondashish va munosabatlar, ayrim vaqtarda (XX asrning 50-80 yillarda) tarixiy jarayonlar va tarixiy voqelikni ob'ektiv baholamaslik holatlariga yo'l qo'yildi. Xonlik tarixini yoritishdagi bunday munosabat ushbu holni tarixshunoslik nuqta-nazaridan chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Shundan kelib chiqqan holda XIX asrning 30-yillaridan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan Qo'qon xonligi tarixinining o'rganilishini mavjud ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishi, davr va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhga bo'lib ko'rib chiqish talab etiladi.

Xonliklar tarixini tarixshunoslik nuqtai-nazaridan davrlashtirishning quyidagicha an'anasi bugungi kunda asosiy hisoblanadi:

Birinchi davr - XIX asrning 30-yillaridan – XX asrning boshlarigacha;

Ikkinci davr - Sovet davri tarixshunosligi (1917-1991 yy);

Uchinchi davr - O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi yillar (1991 yil 31 avgustdan bugungi kunlargacha)ni o'z ichiga oladi.

Tarixshunoslikning bu tarzdagi davrlashtirilishi natijasida aksariyat hollarda har bir davrga umumiy tarzda yondashilgan va ayni vaqtida tarixiy asarlar va tarixiy voqealarning tahlili amalga oshirilgan. Biroq tarixiy asarlar va ularda voqealarning yoritilishiga bo'lgan munosabatning xususiyatlariga qarab bu davrlarning har birini alohida yana kichik davrlarga yoki guruhlarga ajratib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunda tarixiy tadqiqotlarning masalaga konseptual – metodologik yondashuv xususiyatlariga ko'ra quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etish mumkin:

XIX asrning 30-yillaridan – XX asrning boshlarigacha bo'lgan birinchi davrni ikki qismga ajratish mumkin:

- Birinchi qismi XIX asrning 30-50 yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu vaqtida Qo'qon xonligi tarixi masalalariga bag'ishlangan ishlarda asosan xonlikning ichki siyosati, ijtimoiy va iqtisodiy hayot masalalari yoritilgan ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Bu ma'lumotlar xonlik hayotini aks ettirish bilan birga keyinchalik uning chor Rossiyasi tomonidan bosib olnishida podsho armiyasi harbiylari uchun qo'llanma-ma'lumotnomalarini ham bajargan. Bu ma'lumotlar va asarlar o'zining ma'lum daraja ob'ektivligi bilan xususiyatlanadi.

- Ikkinci qismi XIX asrning 50-yillaridan - XX asr boshlarigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davrda yaratilgan asarlarda xonlikning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi masalalariga keng o'rin berilgan va ularning aksariyatida "buyuk davlatchilik" shovinizmi xususiyatlari yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga ayrim rus tarixchilar masalani ob'ektiv yoritish fikrlarini ham ilgari suradilar. Ushbu xususiyatlari bilan bu davrda yaratilgan asarlar Qo'qon xonligi tarixi va uning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi masalalarini o'rganishda nihoyatda katta axamiyatga ega.

II. Ikkinci davrni Sovet davri (1917-1991 yy) tarixshunosligi tashkil etadi. Bu davrni tarix faniga va tarixiy tadqiqotlarga bo‘lgan yondashuv xususiyatlariga asoslangan holda uch qismga bo‘lish mumkin:

Birinchi qismini Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan – XX asrning 50-yillari o‘rtalarigacha bo‘lgan davr bilan belgilash mumkin. Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar va tadqiqotlar masalaga qisman ob’ektiv yondashuvi bilan xususiyatlanadi.

Sovet davri tarixshunosligining ikkinchi qismi XX asr 50-yillaridan – 80-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Ikkinci davrning uchinchi qismi XX asrning 80-yillari o‘rtalaridan 90-yillari boshigacha (“qayta qurish” davri) bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Bu davrda asosan o‘zbek olimlari tomonidan e’lon qilingan bir qator ilmiy ishlarda va maqolalarda chor Rossiysi tomonidan O’rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi va mustamlakaga aylantirishi jarayonlarini manbalar va arxiv hujjatlari asosida haqqoniy va ob’ektiv yoritishga intilish muhim o‘rin egallaydi.

III. Uchinchi davr O’zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan (1991 yil 31 avgust) keyingi yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda amalga oshirilgan va bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘zining xolisligi, tarixiyligi, ilmiyligi va masalaga ob’ektiv yondashuvi jihatlari bilan xususiyatlanadi.

Mustaqillik davri tarixshunosligi ikki qimsga ajratish mumkin:

Birinchi qismi – 1991 yil 31 avgust - 1998 yil 28 iyun.

Ikkinci qismi – 1998 yil 28 iyundan bugungi kungacha.

Quyida har bir davr tarixshunosligi va tarixiy tadqiqotlarning xususiyatlarini alohida – alohida tahlil qilishga xarakat qilamiz.

Birinchi asosiy davrga XIX asr 30-yillaridan XX asrning dastlabki o‘n yilliklarigacha, ya’ni Turkistonning mustamlaka davrida yaratilgan asarlarni kiritish mumkin. Bunda ayniqsa rus sharqshunoslarning mehnati salmoqli o‘rin egallaydi. Rus sharqshunoslari tomonidan Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish XIX asrning o‘rtalaridan boshlandi. Bungacha xonlik ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida asosan chor armiyasi harbiylari va elchilik aloqalari orqali, turli yo‘llar bilan olingan ma’lumotlar umumiyligi ma’lumotlar tarzida to‘plangan. XIX asrning o‘rtalarida va ayniqsa ikkinchi yarmida yaratilgan tarix asarlarida, esdaliklarda, tavsifnomalarida xonlikning asosan so‘nggi davr tarixi yoritib berilgan. Shundan kelib chiqib, bu davr tarixshunosligining o‘zini ikki qismga ajratish lozimligi yuqorida qayd etib o‘tildi.

Birinchi davrning birinchi qismida, ya’ni XIX asrning 50-60 - yillarigacha yaratilgan asarlar Rossiya imperiyasining o‘zbek xonliklarini bosib olish maqsadidagi harbiy bosqinchilagini amalga oshirish vaqtida foydalanish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar bo‘lsada, xonlikning shu davrgacha bo‘lgan umumiyligi ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlarni bugungi kungacha yetib kelishini ta’minladi. Bunday asarlar qatoriga F.Nazarov, N.I.Potanin, V.V.Velyaminov-Zernov, M.N.Galkin, A.Maksheyev hamda A.Nurekin boshqa shu kabi mualliflarning asarlari va maqolalarini kiritish mumkin.

Bu mualliflar asarlaridagi asosiy xususiyat shundaki, ular rossiyalik tarixchilar yoki tadqiqotchilar uchun deyarli noma’lum bo‘lgan Qo‘qon xonligi haqida, uning aholisi, urfdodatlari, hududlari va chegaralari, harbiy ahvoli, yer osti boyliklari va iqtisodiy

imkoniyatlari, ichki va tashqi savdo munosabatlari va boshqalar yuzasidan asosan ilk axborotlarni to‘plaganlar hamda ma’lumot tarzida yetkazib bergenlar. Shuningdek, bu asarlarda keyingi davrlarda yuzaga kelgan “buyuk davlatchilik” g‘oyalarini bo‘rttirib ko‘rsatish kabi holatlar sezilmaydi. Mualliflar xonliklar haqidagi ma’lumotlarning eng mayda tafsilotlarigacha o‘ziga xos ravishda ko‘rsatib berishga va uni tahlil qilishga harakat qiladilar, xattoki o‘rta Osiyo cho‘llarida qanday zaharli hasharotlar mavjudligi va agarda ular chaqib olsa, uning zahrini kuchsizlantiruvchi giyohlar va vositalarni ham ko‘rsatib o‘tishga harakat qilganlar.

Bunday elchiliklar va joususliklar dastlabki vaqtarda o‘rta Osiyo xonliklarining barchasi to‘g‘risida umumiyligi ma’lumotlarni berishga harakat qilganlar yoki biror-bir xonlikka yuborilgan elchilar qolgan xonliklar to‘g‘risida ham ma’lumotlar to‘plashga harakat qilganlar. Bu o‘rinda 1820 yilda amalga oshirilgan kapitan Muravyov boshchiligidagi missiya tomonidan berilgan ma’lumotlarni keltirib o‘tish mumkin. Mazkur missiya vakillari Xiva xonligini bosib olish Rossiya uchun Buxoro va Hindistonga yo‘l ochadi va butun O‘rta Osiyon Rossiya ta’sirida ushlab turish imkoniyatini beradi degan xulosaga keladi. Bu xulosalarga tayangan hamda Muravyovning maslahatlariga amal qilgan Orenburg general-gubernatori, general ad'yutant graf Perovskiy podsho hukumatining rozilagini olib, 1839 yil Xivaga yurish qiladi. Shu yilning 16 fevralida tasdiqlangan rejaga ko‘ra Xivagacha bo‘lgan 1300 chaqirim masofa uch oy ichida bosib o‘tilishi lozim edi. 5333 kishilik armiya mahalliy aholining kuchli qarshiligidagi duch keldi va 1045 kishi o‘ldirildi, 609 kishi yarador bo‘ldi. Harbiy yurish esa chor qo‘sishinlarining to‘la mag‘lubiyatga uchrashi bilan yakun topadi.

Xiva yurishida ishtirok etgan M.Ivanin “Opisaniye zimnego poxoda v Xivu (1839-1840gg)” nomli asarida Xiva xonligi ustidan tamomila o‘lim hukmini chiqarish va unga xatto kerak bo‘lsa ekologik urush e’lon qilish, ya’ni, Amudaryoni Kaspiy dengiziga burib yuborish takliflarini kiritadi.

Bunday asarlar va ulardagi ma’lumotlar esa shubhasiz, keyinchalik podsho qo‘sishinlarining O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olish uchun uyushtirgan harbiy yurishlari davrida qo‘l kelgan. Bo‘lajak bosqinchilik va harbiy yurishlar uchun bunday ma’lumotlarning to‘planishida ayniqsa, xonliklar hududlarining kartografik va harbiy-topografik jihatdan o‘rganilishiga XIX asrning boshlaridan boshlab turli yillarda O‘rta Osiyo hududlariga kelgan podsho hukumatining elchilari va maxfiy ayg‘oqchilari katta hissa qo‘sghanlar. Rossiya imperiyasi XIX asr boshlaridanoq Turkistonni hududiyligi – geografik, harbiy-siyosiy, ilmiy o‘rganishga jiddiy kirishdi.

1803 yilda Ivanov boshchiligidagi dastlabki missiya xonliklar orasida harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan katta kuchga ega bo‘lgan Buxoroga yetib keldi va amirlik haqida bir qancha ma’lumotlarni qo‘lga kiritdi.

1820 yilda A.F.Negri boshchiligidagi o‘z tarkibida olimlardan G.Meyendorf, E.Eversman, Budrinlarga ega bo‘lgan ikkinchi missiya amirlik haqida ko‘proq ma’lumot yig‘ish uchun keldi. G.Meyendorf kelajakda rus qo‘sishinlarining Buxoroga harbiy bosqinchilik bilan kelganlarida foydalanishlari uchun butun tafsilotlarni o‘zida mujasam etgan xaritalar tuzish bilan shug‘ullandi.

1834 yilda Buxoroga yangi missiya yuborildi. Bu missiya mutlaqo joususlik maqsadidagi topshiriqlarni bajardi. Bu missiyaga turkiy tillarni va bu xalqlarning tarixini

yaxshi bilgan Qozon universitetining Sharqshunoslik fakulteti talabasi P.Ch.Demizon rahbarlik qildi. Unga tatar mullasi Mirza Ja'far nomi bilan soxta pasport va diplomatligini tasdiqlovchi hujjat berildi. Unga yuklatilgan vazifa o'ta muhim bo'lib, Rossiya bilan Xiva o'rtaida urush kelib chiqsa Buxoro bunga qanday munosabatda bo'lishini aniqlashdan iborat edi.

1835 yilda praporshik V.Vitkevich maxfiy ko'rsatmalar bilan Buxoroga jo'natildi. 1839 yil aprelda Buxoroga muhandis – geolog, kapitan K.Kovalevskiy boshchiligidagi ekspeditsiya yuborildi va unga Turkistonagi mavjud oltin, neft va boshqa ma'dan konlarini xaritalashtirish topshirildi. Shuningdek Buxoro amirligining geologik tuzilishi, Buxoroda oltin buyumlar bilan savdo qilishning ahvoli va amirlikning tashqi savdo munosabatlari haqida statistik ma'lumotlar to'plash vazifasi yuklatilgan edi.

1841 yil Buxoroga N.Xanikov boshchiligidagi missiya o'z tarkibida N.Zalesov, Leman kabi olimlar bilan birgalikda keldi va o'rta Osiyo flora va faunasini o'rganishga kirishdi. 1843 yilda N.Xanikov o'z safar natijalari haqida hisobot to'plab tashqi ishlar vazirligiga topshirdi va shu yiliyoq hisobot tegishli idoralar uchun yo'llanma sifatida "Opisaniye Buxarskogo xanstva" nomi bilan kitob holida nashr etildi. Bu kitob O'rta Osiyoga yurish qiladigan qo'shining zabit va askarlariga tarqatish uchun Orenburg general – gubernatorligiga jo'natildi. Kitobda Buxoro xaritasi, Samarqand shahri plani ilk marta e'lon qilindi.

1842 yilda Buxoro amirligiga yuborilgan K.Butenevga yanada maxfiy topshiriq berildi. Ubu topshiriqlarni qoyil qilib bajardi. Podsho hukumatiga "Buxoroga qo'shin tortib borish imkoniyatlari" deb atalgan maxfiy ish topshirdi. Unda amirlikni bosib olish mumkinligi aniq tafsiflab berilgan. Hukumatni va chor generallarini amirlikni tezroq bosib olishga undadi.

Chor hukumati asosiy e'tiborini Buxoro amirligiga qaratish bilan birga xuddi shunday missiyalarni Xiva va Qo'qon xonliklariga nisbatan ham amalga oshirgan.

1858 yil O'rta Osiyoga yuborilgan polkovnik Ignatev boshchiligidagi missiya o'z ishini tugatar ekan, "O'rta Osiyo xonliklari bilan teng asosdagi savdo va boshqa aloqalar foya bermaydi. Elchilarni kutish va jo'natishga ketadigan barcha harajatlarni harbiy yurishlarga sarflab, bu hududlarni bosib olish kerak" – mazmunidagi bosqinchilik ruhi yaqqol namoyon bo'lib turgan xulosalarni chiqaradi.

Yuqoridagi kabi missiyalar va ekspeditsiyalar, elchiliklar yordamida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari to'g'risida ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldi. Podsho hukumati xonliklar orasida birlikning yo'qligi, ular o'rtaida davom etib turgan qonli nizolardan foydalanib tezroq xonliklarni bosib olish rejasini ishlab chiqa boshladi va ularni amalga oshirishni eng tajribali generallariga topshirdi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va uning bitmas tunganmas boyliklariga egalik qilishni bir asrlar avval o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar Petr I davridayoq boshlangan edi. Bir necha bor amalga oshirilgan elchilik va jouslik ma'lumotlariga tayangan holda Petr I O'rta Osiyonini qo'lga kiritish uchun dastlab qozoq juzlarini bo'ysundirish va ulardan keyinchalik vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Degan fikrni ilgari surgan edi. Turli yo'llar bilan qozoq yerlariga kirib kelgan ruslar birin-ketin zabit etilgan yerlarda harbiy qal'alar va istehkomlar ko'ra boshladi. 1717 yilda qurilgan Omsk, 1718 yilda qurilgan

Semipalatinsk, 1720 yilda qurilgan Ust-Kamenogorsk, 1735 yil qurilgan Orenburg qal’alari kabi mustahkam harbiy istehkomlar Rossiya podshosining bu yerdagi harbiy hukmronligi hali uzoq davom etishi va ular faqatgina qo’lga kiritgan yerlar bilan qanoatlanib qolmasliklarni bildirardi. 1731-1740 yillar davomida Katta va Kichik qozoq juzlarining Rossiya tobelligiga o’tishi imperiyaning O’rta Osiyoning ichki hududlariga bostirib kirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Yuqoridagi hududlarni qo’lga kiritganlaridan so‘ng, Rossiya davlati chegaralari bevosita o’zbek xonliklari chegaralari bilan tutashib qolgan edi. Biroq Yevropada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va tashqi davlatlari bilan harbiy harakatlarning olib borilishi Rossiyaning O’rta Osiyo xonliklariga qarshi qaratilgan harbiy harakatlarini yana bir asr kechiktirishga majbur qildi. Bu davr mobaynida bosib olingen hududlarda erkparvar qozoq sultonlaridan biri Kenasari Qosimov chor qo’shinlariga qarshi ozodlik kurashlari olib boradi.

Bu qo’zg’ololnarni bostirish uchun minglab qurolli kuchlarga ega bo’lgan general Obruchev, polkovnik Lebedev, Dushikovskiy, podpolkovnik Gorskiylar hech qanday natijaga erisha olmadilar. Bunda xulosa chiqargan chor hukumati bepoyon qozoq dashtlarida ko’plab harbiy qal’alar va istehkomlar qurishga kirishdi. Natijada XIX asr o’rtalariga kelib Qozog’iston hududlarida 60 ga yaqin harbiy va 100 dan ortiq kichikroq istehkomlar barpo etildi. Bu ishlarning hammasi kelgusida o’zbek xonliklara qarshi kurashga puxta tayyorgarlik ko’rilganligini bildirar edi. Chor Rossiyasining xonliklarga qarshi harbiy yurishlaridan dastlabkilaridan biri yuqorida keltirib o’tilganidek, 1839 yilda Xiva xonligiga qarshi Orenburg general gubernatori graf Perovskiy tomonidan amalga oshirildi. Keyingi yillarda chor hukumati qo’shinlari xonliklar bilan chegaralarda kichik-kichik harbiy to‘qnashuvlar bilan cheklangan bo’lsalarda, bu hududlarda o’z harbiy imkoniyatlarini kengaytirish va dastavval Qo’qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni maqsad qilib qo’ygan edilar.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlar hamda turli elchilik hujjatlari va ma’lumotlari, axborotnomalarida asosan yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib yondashilganligini kuzatish mumkin.

Mustamlaka davri tarixshunosligining ikkinchi davrida, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan asarlarda Qo’qon xonligida Minglar sulolasini hukmronligining so‘nggi davrlaridagi ichki va tashqi siyosati, harbiy ahvoli, xonlikning chor Rossiysi tomonidan bosib olinishi va tugatilishi voqealari keng ma’lumotlar asosida yoritib berilgan. Bu asarlardagi ma’lumotlar voqealarning bevosita ishtirokchilari va ayni zamonda yashagan olimlar tomonidan yoritilganligiga qaramay, ularda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi manfaatlariga mos ravishda, buyuk davlatchilik nuqtai nazaridan yondashilganligini ko’rish mumkin. Masalaga bunday konseptual yondashuvning asosiy sababi bir tomonidan buyuk davlatchilik qarashlari bo’lsa, ikkinchi tomonidan podsho tuzuming ta’siri edi. G.A.Ahmadjonovning ta’kidlab o’tishicha, “mustamlakaga aylantirish va uning oqibatlari bilan aloqador haqqoniylar tarixiy-siyosiy asarlarni chop etish” “podsho senzurasi ta’qiplari sababli” mumkin emas edi. Biroq, bu ma’lumotlarni tanqidiy ravishda jiddiy o’rganish foydadan xoli emas.

Bu davrda rus sharqshunos tarixchi olimlaridan V.Bartold, V.Pyankov, N.Ostromov, V.Nalivkin, V.Veselovskiy, Ye.T.Smirnov, M.A.Terentev, K.K.Abaza, N.Dingelshted, N.Pavlov, A.N.Maksheyev, A.N.Kuropatkin, Ye.Jelyabujskiy,

A.I.Dobrosmislov, D.L.Ivanov va boshqalar Rossiya imperiyasi tomonidan O’rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishi masalalariga doir bir qancha asarlar yozib qoldirganlar.

O’rta Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan zabit etilishi bu yerda yashovchi xalqlar uchun “juda foydali bo‘lganligi” hamda Rossiya O’rta Osipyoga “sivilizatsiya olib kelganligini” zo‘r berib ko‘rsatishga urinish asosan harbiylar uchun juda xususiyatli bo‘lgan. Ular orasida M.A.Terentev tomonidan yozilgan uch jildlik “Zavoyevaniya Sredney Azii” asari boshqa mualliflarning asarlariga nisbatan voqealarning keng va mukammal yoritilganligi bilan alohida o‘rin tutadi. Bunda muallif chor Rossiyasining faqatgina XIX asr ikkinchi yarmidagi harbiy yurishlarini emas, balki XVIII asr boshlarida O’rta Osiyo hududlariga qilingan harbiy yurishlar tarixiga ham keng o‘rin beradi. Muallif o‘zining “Rossiya i Angliya” asarida ham ikki mustamlakachi davlatning tashqi siyosiy munosabatlarini tahlil qilish bilan birga O’rta Osiyo xonliklariga uyushtirilgan harbiy bosqinchilik jarayonlarini ham ochib beradi. Har ikki asarda ham M.A.Terentev voqelarni bir tomonlama, asosan chor imperiyasining manfaatlari nuqtai – nazaridan yoritadi. Bunda asosan podsho armiyasi askarlarining jang faoliyatları voqealar tafsilotining markazida turadi. U boshqa mualliflarga nisbatan mahalliy tarixchilar asarlaridan foydalanish imkoniyatiga ko‘proq ega bo‘lsada, ularga masalaning asosiy manbalari sifatida qaramaydi. Shunga qaramasdan, M.A.Terentevning asarlari Qo‘qon xonligi tarixi va uning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi va uni tanqidiy jihatdan o‘rganish foydadan holi emas.

Bu davrda tadqiqotlar olib borgan rus tarixchilari orasida Ye.T.Smirnov va N.I.Veselovskiylarning ishlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ularning har ikkisi chor Rossiyasining O’rta Osiyo xonliklarini bosib olishi tarixini mahalliy tarixchilar asarlarini ham o‘rgangan holda yoritishga katta e’tibor beradilar.

Ye.T.Smirnov tomonidan yozilgan “Sultanы Kenisary i Sadik (bibliograficheskiye ocherki)” nomli asarda Qozog‘iston hududlarining chor qo‘shinlari tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashgan Kenisari sulton, Janubiy Qozog‘iston hududlari, Toshkent himoyasi, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligining chor Rossiyasi qo‘shinlariga qarshi olib borgan kurashlarida sarkardalik faoliyati bilan mashhur bo‘lgan Sulton Sodiq haqida qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tadi. Muallif har ikki sarkarda haqida ma’lumotlarni mahalliy manbalar asosida tahlil etib beradi. Shuningdek, ushbu asardan Qo‘qon xonligi ichki siyosatiga aloqador ma’lumotlar bilan birga 1858-1865 yillarda xonlik siyosiy hayotida o‘ziga xos iz qoldirgan Mullo Aliquli Amirlashkar hayoti va sarkardalik faoliyati haqida o‘ta qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan.

N.I.Veselovskiyning “Kirgizskiy rasskaz o russkix zavoyevaniyax v Turkestanskom kraye” nomli asari mahalliy tarixchi Mullo Holiboy Mambetovning “O’rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282 sanalarda qilg‘on futuxotlari” asari asosida yozilgan va rus tiliga tarjima qilib, ayrim voqealar muallif tomonidan tahlil etilgan. Ushbu asar Qo‘qon xonligining chor Rossiyasiga qarshi 1853 yildan 1865 yillargacha olib borgan kurashlari haqidagi qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olish bilan birga chor Rossiyasiga qarshi kurashlarga rahbarlik qilgan shaxslar - Mullo Aliquli Amirlashkar, Mingboy dodhoh va boshqalarning faoliyatiga ham keng to‘xtalib o‘tilgan.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, A.Ziminlar O'rta Osiyoning chor Rossiysi tomonidan bosib olinishi tarixini mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarni, ularda bu masalaga bildirilgan munosabatlarini o'rganib, xolis yondashilgandagina ob'ektiv baho berishga erishish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tganlar. Shu jihatlari bilan bu olimlar tomonidan yozilgan bir qancha asarlar o'zining ma'lum darajada ob'ektivliligi bilan ajralib turadi, bunda ular mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarni bevosita o'rganib va tahlil etib, masalaga oydinlik kiritishga harakat qilganlar.

Qo'qon xonligi tarixi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning ikkinchi asosiy davrni sovet davri tarixshunosligi tashkil qiladi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan XX asrning 40-50 - yillarigacha bo'lgan vaqt mobaynida sobiq ittifoqqa birlashtirilgan mamlakatlarda fanning barcha sohalarida sotsialistik tuzum va kommunistik mafkura ta'siri kuchayib bordi. Tarix fani sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar kommunistik mafkura tamoyillari asosida yo'naltirilgan bo'lib, ularda partiyaviy-siyosiy ta'sir va bosim ostida sovet ijtimoiy fanlari sohasiga xos bo'lgan metodologik noxolisliklar ustunlik qiladi.

Bu davr mobaynida fan sohasida birmuncha yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsada, XX asrning 50-yillariga kelib markazning milliy masalalar borasidagi siyosatining kuchayishi, xususan "yagona sovet xalqini" shakllantirish borasidagi mafkuraviy siyosati fan sohasiga, jumladan tarix fani sohasiga ham katta ta'sir o'tkazdi. O'rta Osiyo davlatlari tarixinining milliy xususiyatlarini chuqur o'rganish va ommalashtirish cheklab qo'yildi. Ayniqsa, chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va mustamlakaga aylantirishi masalasida ob'ektivlik jihatlari kamaydi. XX asrning 80-yillari o'rtalariga kelib, sobiq ittifoqda "qayta qurish" jarayoni boshlanishi bilan oshkoraliq va demokratiya tamoyillari yuzaga chiqa boshladи. Tarix fani sohasida, ayniqsa, chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va mustamlakaga aylantirishi borasida ilmiy jihatdan asoslangan va kommunistik mafkuradan holi bo'lgan fikrlarni bildirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi.

Sovet davri tarixshunosligi haqida fikr bildirar ekan, Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: -“Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergen tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman”.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, Sovetlar davri (1917-1991 yy.) tarixshunosligini, garchi u umumiylar yaxlitlikni tashkil etsada, masalaga bo'lgan yondashuv xususiyatiga asosan uch qismga bo'lish mumkin.

Birinchi qismi Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan XX asrning 50-yillari o'rtalarigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davrda A.F.Kalujin, A.Baymurzin, G.A.Plyashko, A.Popov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda va tarix kitoblarida Qo'qon xonligi tarixi va chor Rossiysi tomonidan uning mustamlakaga aylantirilishi masalalari qisman avvalgi davr tadqiqotlari an'analarini davom ettirgan holda, ya'ni voqealarни manbalar va arxiv hujjatlari asosida deyarli ob'ektiv ravishda yoritishga harakat qilganlar.

Qo'qon xonligi tarixi masalalarini yoritishda bir tomonlama, “buyuk davlatchilik shovinizmi” nuqtai nazaridan yondashuvni Sovet davri tarixshunosligining ikkinchi qismida yaqqol ko'rish mumkin. Bu davr XX asrning 50-yillaridan 80-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni "bosib olishi" iborasi o'rniga sun'iy ravishda "qo'shib olishi" iborasi ishlatila boshlandi. Mazkur jarayon 1955 va 1959 yillarda O'rta Osiyoning 1917 yilgacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan birlashgan ilmiy anjumanlardan so'ng yanada avj oldi. Ularda rasmiy ravishda O'rta Osiyoning chor Rossiyasi "qo'shib olinishi", mahalliy xalqlarning imperiya tarkibiga "ixtiyoriy" ravishda "qo'shilganligi"ning "progressiv natijalari" ta'kidlab o'tildi. Aynan shu vaqtan boshlab amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda hamda maqola va asarlarda masalaga xolis, ilmiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan ob'ektiv yondashuvga to'la amal qilish kamaydi. Bu holni XX asrning 50-80 yillarida tadqiqot olib borgan aksariyat tarixchilarning asarlarda kuzatish mumkin.

Jumladan, K.Usenbayev, S.Sagatov, S.T.Tileuqulov, L.D.Dergachyova, R.Beknazarov, A.X.Xasanov, X.Sh.Inoyatov, N.Xalfin, R.Nabihev, H.Z.Ziyoyev, O.Bo'riyev va A. O'rino boyev hamda boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi tomonidan o'zbek xonliklarining bosib olinishi voqealari ancha batafsil, manbalar hamda arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan bo'lsada, kommunistik mafkura tazyiqi va senzurasi ta'sirida masalaning asl mohiyatini olib berishda to'sqinlikka uchradilar va ayni vaqtida chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishining "progressiv axamiyati"ga ham alohida urg'u berishga majbur bo'ldilar.

Tarixshunoslik masalalarining bu bosqichidagi tarixiy tadqiqotlar orasida X.Z.Ziyayev, X.Sh. Inoyatov, R.N.Nabihev, A.Popov, N.A.Xalfinlarning asarlari alohida o'rin tutadi. O'rganilayotgan mavzu yuzasidan ularning amalga oshirgan eng katta xizmatlari mavzuga aloqador ma'lumotlarni toplash va sistemalashtirish, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish Qo'qon xonligining XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy – siyosiy hayoti hamda xonlikda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar va chor Rossiyasining harbiy bosqinchiligi masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilish bilan belgilanadi. Bularning barchasi o'rganilayotgan muammo yuzasidan tarixiy bilimlar saviyasining ortishiga xizmat qildi. Biroq, mavjud totalitar tuzumning partiyaviy – siyosiy mafkurasining ta'siri va ta'qiqlari tufayli mazkur olimlar ham o'z ishlarida tarixiy voqelikni asl holida ko'rsatib berishda to'sqinlikka uchradilar.

R.N.Nabiyevning "Iz istorii Kokandskogo xanstva (Feodalnoye xozyaystvo Xudoyerxana)" nomli monografiyasi xonlik iqtisodiy va ijtimoiy, jumladan siyosiy tarixining eng muhim jihatlarini yoritib beradigan va bu davrda mahalliy tarixchilarning asarlari asosida yozilgan diqqatga sazovor asar bo'lishiga qaramasdan, markazning O'zbekiston tarixiga bo'lgan cheklash siyosati ta'sirida undan foydalanish ta'qiqlab qo'yildi. Asar sovet davri tarixiy tadqiqotlari doirasida amalga oshirilgan bo'lib, unga ham shu davr tarixiy tadqiqotlar uchun ayrim umumiyligida metodologik xususiyatlar xos bo'lsada, biroq muallif tomonidan xonlik tarixiga oid bo'lgan ko'plab mahalliy tarixchilar asarlari, arxiv hujjatlari asosida mukammal tadqiqotni amalga oshiriladi. Biroq bunday mukammallik podsho Rossiyasi mafkuraviy qarashlaridan saqlanib qolgan hamda sovet davridagi mavjud partiyaviy – siyosiy tamoyillariga asoslangan "chorizmning O'rta Osiyoga sivilizatsiya olib kelganligi"ga zid bo'lganligi uchun monografiya qatag'onga uchradi.

Asarda xonlikning Xudoyerxon hukmronligi davridagi iqtisodiy sohasi tarixini o'rganishga asosiy urg'u berilib, bu haqda keng ma'lumotlar va ilmiy tahlil keltirilgan

bo‘lsada, ayni vaqtda xonlikning XIX asr o‘rtalaridagi siyosiy ahvoli haqida ham qimmatli ma’lumotlar olish mumkin.

Sovet davri tarixshunosligida chor Rossiyasining O’rta Osiyo xonliklarini mustamlakaga aylantirishi masalalariga bir tomonlama yondashish holati ayniqsa N.A.Xalfinning tadqiqotlarida yaqqol o‘z aksini topgan. N.A.Xalfin o‘zining “Prisoyedineniye Sredney Azii k Rossii (60–80 godyi XIX veka)” asarida Rossiya imperiyasi tomonidan O’rta Osyoning mustamlakaga aylantirilishi masalasi yuzasidan ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni bergan bo‘lsada, “qo‘sib olinishi” va uning “ijobiy ahamiyati” haqidagi soxta qarashlarga keng o‘rin beradi. Mahalliy xalqlarning “rus harbiyalaridan o‘z xonlari zulmidan ozod qilishni iltimos qilganliklari”, mustamlakachilik siyosatining xonliklar aholisi uchun “ijobiy jarayon” sifatida bo‘rttirib ko‘rsatishga harakat qilinadi.

Biroq bu bilan yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar asarlarining ilmiy qimmati pasaymaydi va ularni tarixni o‘rganishda yaroqsiz deb hisoblash mutaloqo noto‘g‘ri bo‘ladi. Aksincha, ularda keltirilgan qimmatli ma’lumotlar va tarixiy tahlillarni chuqur o‘rganib, ayrim hollarda tanqidiy yondashib ilmiy xulosalar chiqarilishi bugungi kun tarixshunosligida muxim axamiyat kasb etadi. Sovet davri, shuningdek chor Rossiyasi mustamlakasi davri tarixshunosligini ilmiy jihatdan sinchiklab o‘rganish, xaqqoniylit va xolislik, ob’ektivlik va tarixiylik tamoyillariga amal qilgan holda ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarish tarixchilar oldidagi o‘ta muhim vazifadir.

Sovet davri tarixshunosligining uchinchchi qismi XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmi bilan belgilanadi. 80-yillarning oxirlariga kelib masalaga ob’ektiv, tarixiylik nuqtai-nazaridan yondashish kuchayib bordi. Tarixchi olimlardan biri Z.H.Ziyoyevning tashabbusi bilan 1990 yil o‘tkazilgan “Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi” mavzusidagi ilmiy anjuman masalaga tubdan yangicha yondashuvga asos yaratdi. Buni o‘sha yillardayoq olim tomonidan e’lon qilingan bir qancha maqolalarda ham kuzatish mumkin.

H.Bobobekov ham o‘zining bir qator ilmiy maqolalarida chor Rossiyasining O’rta Osyoni bosib olishi masalasiga doir dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqadi. “Qayta qurish” siyosati davom etib turgan 1989 yildayoq u o‘zining “Rossiya o‘rta Osyoni bosib olganmi?” hamda “O’rta Osiyo Rossiyaga qo‘sib olinganmi?” nomli ikki maqolasida arxiv hujjatlari va ayrim mahalliy tarixchilar asarlari asosida O’rta Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan harbiy zo‘ravonlik va bosqinchilik yurishlari orqali bosib olganligini ko‘rsatib berdi. H.Bobobekov o‘zining bu ilmiy qarashlarini “Narodnye dvijeniya v Kokandskom xanstve i ix sotsialno-ekonomicheskiye predposyalki” nomli monografiyasida ham davom ettirdi.

Ushbu olimlarning bu yillarda yaratgan ilmiy xulosalari haqli ravishda shu vaqtgacha O’zbekiston tarixiga nisbatan hukm surgan mafkuraviy tazyiqni ro‘yi-rost ochib tashladi va tarixni ob’ektiv va xolislik nuqtai nazaridan o‘rganishga bo‘lgan munosabatning yuzaga kelishiga turki bo‘ldi.

Qo‘qon xonligi tarixi tarixshunosligining uchinchchi asosiy davri O’zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan (1991 yil 31 avgust) keyingi yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda amalga oshirilgan va bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘zining xolisligi, tarixiyligi, ilmiyligi va tarixiy muammolar yechimiga ob’ektiv yondashuvi jihatlari bilan xususiyatlansadi.

Mustaqillik yillarda H.Z.Ziyoyev, H.N.Bobobekov, Sh.H.Vohidov, G'.Ahmadjonov, N.A.Abduraximova va boshqalar tomonidan Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi tarixiga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi va asarlar yaratildi. H.Z.Ziyoyevning "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash" asari keyingi yillarda nashr etilgan ishlar orasida o'zining mukammalligi bilan alohida o'rinn tutadi. Asarda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklariga harbiy yurishlari, mustamlakachilikning o'rnatilishi va uning mohiyati, milliy istiqlol uchun kurashgan vatanparvarlar, jumladan Aliquli Amirlashkar faoliyatiga ham keng o'rinn ajratadi.

H.Bobobekov o'z ilmiy tadqiqot ishlarida XIX asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida yuz bergan milliy ozodlik harakatlari va ularning sabablari va natijalarini yoritishga xarakat qilgan.

Sh.H.Vohidov o'z ilmiy tadqiqot ishida Qo'qon xonligi tarixshunoslik maktabining shakllanishi va xususiyatlari hamda manbalar tahliliga boshqa tadqiqotchilarga nisbatan kengroq to'xtalib o'tadi.

G'.Ahmadjonovning "Rossiyskaya imperiya v Sentralnoy Azii" nomli monografiyasi chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini mustamlakaga aylantirishi va imperianing Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati tarixinining tarixshunosligiga bag'ishlangan bo'lib, bu sohada tadqiqot olib borgan bir qator olimlarning ilmiy xulosalari tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil etilgan.

N.A.Abduraximova va G.Rustamovalar tomonidan chop etilgan "Kolonialnaya sistema vlasti v Turkestane vo vtoroy polovine XIX – I chetverti XX veka" nomli monografiyasida chor Rossiyasining Turkiston o'lkasida olib borgan mustamlaka siyosati va boshqaruv tizimining asosiy xususiyatlari yoritib berilgan.

J.H.Ismoilova esa XIX asr oxiri - XX asr boshlarida milliy–ozodlik harakatlarining yangi bosqichga ko'tarilganligi masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

V.T.Ishquvvatov o'zining "XX asrning II yarmi tarixshunosligida Qo'qon-Rossiya diplomatik munosabatlari" nomli dissertatsiyasida XIX asrning boshlaridan o'rtalarigacha bo'lgan davr mobaynidagi Qo'qon-Rossiya diplomatik munosabatlarining tarixshunosligini yoritib berish bilan birga bu sohada bir qator yangi fikrlar va ma'lumotlarni ham yoritib bera olgan.

Mazkur risola muallifi Z.Ilhomov o'zining "Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o'rni" nomli dissertatsiyasi hamda bir qator ilmiy maqolalarida XIX asrning 50-60 yillarida xonlikdagi harbiy ishlarning axvoli va xarbiy soxa tarixi, xonlikdagi ichki siyosiy jarayonlar va tashqi diplomatik aloqalar, chor Rossiyasining mustamlakachilik bosqinchiligidagi qarshi kurashlar tarixini maxalliy tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan birlamchi manbalar hamda arxiv manbalariga asoslangan holda yoritib bergen.

Keltirib o'tilgan asarlar bilan bir qatorda horijlik tarixchi olimlar ham XIX asr ikkinchi yarmi Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga to'xtalib o'tganlar. Horij olimlari tomonidan chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklariga qarshi olib borgan harbiy siyosati va ularni mustamlakaga aylantirishi tarixi masalasida olib borgan tadqiqot ishlari ham o'rganilayotgan mavzuning tahlilini chuqurroq va kengroq amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Totalitar tuzum davrida murojaat qilish

va o‘rganilishi ta’qiqlangan horij tadqiqotchilarining asarlarida sovet tadqiqotchilari uchun mumkin bo‘lmasligi tarixiy tahlilga keng o‘rin berilgan hamda tarixiy jarayonlarning asl mohiyati ochiq oydin yoritib berilgan. Bunday tadqiqotchilar va ularning asarlari orasida D.Bergxorn, E.Bekon, R.Konnuest, E.Ollvort, T.Ranovski–Xarmstoun, L.Tillet, D.Uiler, D.Xuson va boshqalarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ular haqli ravishda sovet tarixshunoslik fani va unda yo‘l qo‘yilayotgan haddan tashqari mafkuraviy yondashishni qattiq tanqid qilgan edilar.

O‘zida Qo‘qon xonligi tarixi, ayniqsa xonlikning elchilik masalalari bilan bog‘liq siyosati haqida qimmatli ma‘lumotlarni jamlagan M.Saray va Inalchiklarning asarlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan horij tadqiqotlari sanaladi. Bu asarlar Qo‘qon xonligining Turkiya sultonligi bilan diplomatik aloqalarini yoritib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Unda keltirilgan Aliqulining Turk sultoniga yuborgan elchilik masalalari tafsilotlari boshqa adabiyotlarda yoritib berilmagan. Biroq bu ma‘lumotlar Qo‘qon xonligi tarixini yoritib beruvchi manbalarning ayrimlarida, masalan Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asarida keltirilgan ma‘lumotlarni tasdiqlashi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek bu asarlardan O‘rta Osiyo masalasida Rossiya va Turkiya munosabatlari, Turkiyaning Buxoro va Xiva xonliklari bilan munosabatlari tarixiga oid bir qator ma‘lumotlarni ham olish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan asarlarda Qo‘qon xonligi tarixi bilan bog‘liq ayrim ma‘lumotlarda uchraydigan tafovutlarni umumiyligi kamchilik sifatida e’tirof etish mumkin. Shu kabi kamchiliklardan biri XIX asrning 60-yillarida Qo‘qon xonligining siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan Aliquli Amirlashkar shaxsi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning chalkashligi va ushbu shaxs ismining noto‘g‘ri ifodalanishidir. Bunday holni boshqa nashrlarda, xususan “O‘zbekistonning yangi tarixi” majmuasining birinchi kitobida, maktab darsliklarida, badiiy adabiyotlarda ham ko‘rish mumkin.

Mustaqillik yillarda yaratilgan asarlar orasida alohida muhim o‘ringa ega bo‘lgan “O‘zbekistonning yangi tarixi” kitobining “Turkiston chor Rossiyasi mustamlakasi davrida” nomli birinchi qismi keyingi yillarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar orasida ancha salmoqli o‘rin tutadi. Asardagi ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarning arxiv manbalari hamda qo‘lyozma manbalarga asoslanganligi uning ilmiy qimmatini yanada oshiradi. Biroq ayrim hollarda aniqlik talab etiladigan ma‘lumotlar ham uchraydi. Masalan, mualliflar Aliquli Amirlashkarning M.Chernyyayev bilan sulh borasida olib borgan aloqalari xususida so‘z yuritar ekanlar, uning ayrim mulohazalarini Muhammad Yunus Toib asariga asoslangan holda, “... bul taraf Urunburx, ul taraf Simfulod (Simferopol) va Shomg‘acha olur erduk ...”, - tarzida keltirib o‘tadilar. Bundan “Simferopoldan Shomg‘acha” so‘z borganligi haqida ma‘no kelib chiqadi. Biroq bu so‘zni qo‘lyozmada Shom (Suriya – Z.I.) tarzida emas, balki Shamay ((Semipalatinsk, hozirda Semey (Qozog‘iston Respublikasi) – Z.I.)) tarzida o‘qish lozim. Bundan kelib chiqadiki, Aliquli Amirlashkar bu yerda Simferopoldan Suriyagacha emas, balki Rossiya imperiyasining janubiy hududlari, Simferopoldan Semipalatinskkacha bo‘lgan hududlarni ko‘zda tutgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, keltirib o‘tilgan asarlarda mualliflar Qo‘qon xonligining siyosiy, iqtisodiy hamda harbiy holatini yoritib berishga asosiy e’tiborlarini qaratganlar. Ularda garchi Qo‘qon xonligi tarixi yaxlit tarzda tadqiqot ob’ekti sifatida to‘laqonli ma‘lumotlarni o‘zida qamrab ololmagan bo‘lsada, ayrim asarlardagi siyosiy,

iqtisodiy va ijtimoiy ahvol hamda madaniy hayot bilan bog‘liq ma’lumotlar ham xonlik tarixini mukammal o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATYERIALLARI

“O’ZBYEKİSTON TARIXI FANIDAN INNOVASIYaLARNI OLIY TA’LIM TİZİMİGA TATBIQ ETİSh” FANI BO’YICHА SYЕMINAR MASHG’ULOTLARI MATNI

1-mavzu: Qadimgi Baqtriya Qaviyligi haqida ayrim mulohazalar Reja:

1. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar
2. Ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi

So‘nggi yillarda Baqtriya tarixi yanada yorqinroq o‘rganilmoqda ilgari noma’lum bo‘lgan qadimgi madaniyatlar fanga joriy etilmoqda. Ulardan eng mashxuri bulgan Sopolli madaniyati apiu bronza davrida Qadimgi Sharq xalqlari bilan yaqindan madaniy aloqada bo‘lib, Markaziy Osiyoda eng qadimgi sivilizatsiyaga asos solganlar. Shu madaniyatning tadrijiy rivojlanishi natijasida mil.avv. IX asr oxiri va VIII asr boshlarida Qadimgi Baqtriya madaniyatiga, qolaversa, Qadimgi Baqtriya davlatiga asos solingan.

Yunonlar bosqini davrigacha hukm surgan bu davlatning Qadimgi Sharq dunyosida o‘z o‘rni bo‘lgan, Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida, madaniy taraqqiyotida beshik rolini bajargan. Bu fikrni hech bir tarixchi inkor etmaydi.

Garchi mahalliy va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan qadimgi Baqtriya tarixiga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, bu borada hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Shunday masalalardan biri ilk Qaviylar davlati masalasidir.

O’rta Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida tashkil topgan eng qadimgi davlatlardan biri bo‘lgan Qaviylar to‘g‘risidagi yozma ma’lumotlar «Avesto» va Firdavsiyning «Shohnoma» asarida saqlangan.

«Avesto»ning Chixrdod naskida ilk Qaviylar Ushudau tog‘idan oqib keladigan Xaytumand daryosi va Kansavya ko‘li bo‘yida joylashgan. Avestoshunos G. Noli ushbu ma’lumotlarda keltirilgan Kansavya ko‘lini Xamun, Xaytumand daryosini Xilmend. Ushudau tog‘ini Ko‘xi Xvadja bilan bog‘laydi va xozirgi O’zbekiston hududiga to‘g‘ri keladi deb hisoblaydi.

«Qaviy» so‘zining ma’nosи kelib chiqish tarixi nihoyatda munozarali bo‘lib, I.V. Pyankov bu so‘zning paydo bo‘lishish taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha talkin qiladi: temirchi (sehrgar) — ilohiy shoir (olim, ustoz) — hukmdor. Fikrimizcha olimning so‘nggi, ya’ni xukmdor bosqichi tarixiy manbalar asosida keltirilgan, ammo temirchi sehrgar olim kabi bosqichlari isbotlanmagan va olimning fikrlash doirasidan kelib chiqqan. Ammo shuni ta’kidlash joizki, I.V. Pyankov juda ham ishonarli taklif kiritgan. U taklif etgan Qaviy so‘zining evolyutsion taraqqiyot yo‘lini bemalol qabul qilsa bo‘ladi, negaki, Qaviylar kuylanayotgan zamon O’rta Osiyoda temirning paydo bolish davri hisoblanadi. O’sha zamonda temirdan foydalanish sir tutilib, undan buyumlar yashash faqat «sehrgar»larning qo‘lidan kelishi mumkin bo‘lgan. Ikkinchи taklifi, ya’ni ilohiy shoir, olim odam yoki ustozlargina xalqni o‘z ta’limoti asosida boshqarishi va hukmdor darajasiga yetishishi mumkii bo‘lgan deb hisoblaymiz.

Qaviylar haqidagi ma’lumotlar qadimgi zamonlardan ikkiga bo‘lingan. Birinchisida, Sam urug‘idan bo‘lgan Qaviylarning mardligi va qahramonliklari kuylangan bo‘lsa,

ikkinchisida Qaviy Vishtaspaning diniy qahramonliklari kuylangan. Manbalarda Sam urug‘ining keyingi hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar uchramasada, urug‘ boshlig‘i Krsasp keyingi davr manbalarida Gershasp shaklida keng tarqalgan.

Qaviy hukmdorlar o‘rtasida o‘zaro nizolar paydo bo‘lganligi, buning natijasida Qaviylarning bo‘linib ketish voqealari ham manbalarda saqlangan. Sam urug‘i hukmdorlaridan biri bo‘lgan Syavarshanning (Siyavush) o‘g‘li Xausravning (Xishrav) Turon yurti - Qang‘ga ketib qolganligi, u yerda o‘z sulolasini, urug‘ jamoasini tashkil etganligi haqidagi ma’lumotlar ham saqlangan.

Turon yurtiga Xishravning kelishi tarixiy haqiqatga juda yaqin, birinchidan, Toshkent vohasida miloddan avvalgi IX—VIII asrdan boshlab yangi, arxeologik madaniyat - Burgulyuk (Burg‘uluq, Burkanlik) madaniyati tarqaladi. Ushbu madaniyatning paydo bo‘lishi muammosi arxeologik jihatdan hal etilgan masala emas. O‘rta Osiyoda shu tipdag‘i madaniyatlarining paydo bo‘lishini (Yoz, Kuchuk, Tilla, Qizil) taddiqotchilar asosan ko‘chmanchilarning o‘troqlashishi, shimoliy yoki janubiy mintaqalardan xalqlarning ko‘chib kelishi bilan bog‘laydilar. V. I. Sarianidining fikri bo‘yicha shu tipdag‘i madaniyatlar Eron, ya’ni, Seyistondan Afg‘oniston orqali Surhon, Zarafshon, Toshkent va Farg‘ona vodiysiga tarqalgan. V.I. Sarianidining bu fikrini tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchidan, bu hududlardan olingan arxeologik ma’lumotlar, yozma manbalar ma’lumotlarini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, Qanqa ko‘hna shahrining Toshkent vohasida mavjudligi va bu shaharning voha markazi darajasigacha yetganligidir. Uchinchidan, Toshkent vohasida «Xishrav» tarixiy toponimining mavjudligi va bu etnotoponimning bugungi kungacha e’zozlanib, xalqning yodidan ko‘tarilmay kelayotganligi tarixiy haqiqatdir.

I.V. Pyankovning ta’kidlashicha, ilk Qaviylarning asoschisi Qaviy Kavata bo‘lib, uning merosxo‘ri Qaviy Apivaxu hisoblanadi. Uning turtta ugli b^lib, Kaviylarning xududi shu turtta ugillar Urtasida taqsimlangan. Qaviy Usan (Usadan) to‘rtta o‘g‘il orasida ajralib turgan. Usanning nabirayem Xausrav davrida Qaviylar yanada rivojlanishda bo‘lgan. Ilk Qaviylar Kansavya (Xamun), Xaytumant (Xelmand) daryosi bo‘ylarida, ya’ni tarixiy jihatdan Seyistonda - Drangianada yashashgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Xausrav zamonida ham mamlakat kichik Qaviyliklarga bo‘lib boshqarilgan, boshliqlari ham Qaviy unvonida bo‘lishgan. Shunday hukmdorlardan biri Qaviy Viptaspa bo‘lib, u Baqtriya hukmdori bo‘lgan. Uning saroyidan Zaratushtraning panoh topganligi voqeasi hammaga ma’lum.

I.V. Pyankovning fikricha shu davrdan boshlab Qaviylar avlodи hukmronligining ikkinchi davri boshlanadi. Shu davrdan boshlab diniy qarashlar, ta’limotlar janggi boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qaviy Vishtaspaning qo‘llab-quvvatlashi, homiyligi natijasida Zaratushtra ta’limoti butun Baqtriya bo‘ylab tarqala boshlaydi. Shu davrdan boshlab Qadimgi Baqtriyaning Qadimgi Sharq dunyosida o‘z o‘rniga ega bo‘la boshlaganligi kuzatiladi.

Qaviy Vishtaspaning hukmronligi va payg‘ambar Zaratushtraning yashash davri miloddan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmi deb qaralsa xronologik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi va hozirgi zamon sharqshunos va qadimshunos olimlari ham shu davrni e’tirof etishadi.

Ma’lumki, «Avesto» asosida Qaviylar tarixi bilan birinchilardan bo‘lib shug‘ullangan, sharqshunos olim A.Kristensen o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarda ilk

Qaviylarning yashagan davrini miloddn avvalgi 900-775 yillar bilan belgilagan.

Ilk Qaviylarning hukmronligi, mamlakatning joylashgan o‘rni Seyiston hududiga mos kelishini ham tarixiy va arxeologik manbalar asosida kuzatilgan. G. Nolining Kansavya ko‘lini Xamun, Xaytumand daryosini Xilmend, Ushudau tog‘ini Kuxi Xvadja bilan bog‘laganligiga adabiyotlarda hech kim qarshi fikr bildirgani yo‘q. Bil’aks shu fikrga qo‘sishimcha ilmiy ma’lumotlar to‘plangan. Jumladan, R. Girshman Nadiali qishlog‘i yonidan topgan, mil.av. VIII asrga oid Surxdag yodgorligini I.M. Dyakonov Qaviylar mamlakatining poytaxti bo‘lgan deb hisoblaydi.

Qadimgi Baqtriya ham ilk Qaviylarning merosxo‘rlari hisoblanadi. Baqtriyada mahalliy Nautar urug‘idan bo‘lgan qabila hukmronlik qilgan. Shu urug‘ namoyandalaridan biri bo‘lgan Vishtasp (Goptasp, Gistasp) Qaviy unvonini qabul qilgan va Vishtasp Baqtriyada Qaviylar sulolasi va shajarasiga asos solgan. Yana shu narsa ayonki, Vishtaspning qo‘llab-quvvatlashi natijasida Zaratushtraning zardushtiylik ta’limoti keng yoyilib, bu ta’limot butun Sharqiylar Eron va O‘rta Osiyoda hukmron mafkura darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qilgan bo‘lsa, zardushtiylik esa eslab o‘tilgan hududlardan ham kengayib, Kavkaz hududlarigacha yoyilib jahon dinlari qatoriga kirdi.

Demak, keltirilgan ma’lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Qaviylarning ilk Vatani Xamun ko‘li, Xilmend daryosi bo‘ylari, Kuxi Xvadja tog‘lari etaklarini, Qadimgi Baqtriya hududlarini o‘z ichiga olgan va miloddan avvalgi IX—VIII asrda hukm surgan.

«Avesto»da qaviy so‘zi kohin-shohlarga, hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan. Xukmdorlarning ko‘pchiligi avval Zardusht ta’limotiga qarshi bo‘lishgan. Shu bois «Avesto»da devparast, kazzob kabi so‘zlar bilan ta’riflangan. Avestoshunos olimlarning aksariyati, jumladan M. Ishoqovning fikricha, «Qaviylar» so‘zi orqali berilgan bu tushuncha Zardushtga qadar hukmdor hamda kohin vazifasini o‘zida birlashtirgan ijtimoiy qatlamni ifodalagan. Kaviy — kohinlar avval Zardusht ta’limotiga dushman bo‘lishgan. Keyinroq, Vishtasp Zardusht ta’limotini qabul qilgach, munosabat o‘zgarishi kerak edi. Lekin «Avesto» ga kirib qolgan eski an’ana - Qaviylar dushman degan qarash saqlanib qolaverган. Bu hol «Avesto» kitobining turli katamlari Zardushtdan avvalgi davrlar maxsuli bulgan, degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Ma’lumki, Qaviylar ichida birinchi bo‘lib baqtriyalik Vishtaspa zardushtiylikni qabul qilgan. Shuning uchun «Avesto» da Vishtasp to‘g‘risida faqat ijobjiy iboralar ishlatilgan. Jumladan: «Qudratli Vishtasp», «Ko‘p bilimdon Vishtasp», «Pahlavon Vishtasp» kabi. Uni ta’riflaganda payg‘ambar Zardusht bisotidagi barcha yaxshi so‘zlarni ishlatgan.

Ushbu ta’rifdan ko‘rinadiki Vishtasp Zardushtiylikni qabul qilmasidan oldin ham Qaviy unvonida bo‘lgan. «Avesto»da sultanat, baxt kushi xvarno deb atalgan. Kimgaki, xvarno (far) kun may turib shohlikni, xukmdorlikni da’vo qilsa, noqonuniy hisoblangan, Qaviylikni Axura Mazda ato qiladi degan tushuncha hukmron bo‘lgan. Manbada Qaviylar kuchli qudratga egaligi, ularga xvarno nasib etganligi, nafaqat ularga balki ularning avlod-ajdodlariga, vorislariga ham bu qudrat meros ekanligi kuylangan.

Demak, Qaviylik unvoni nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tishi, Axura Mazda tomonidan tasdiqlab qo‘yilgan va Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriyada va Drangianada mavjud bo‘lgan.

Qaviy unvonidan tashqari «Avesto»ning eng qadimgi Gag va Yasht qismlarida

boshqaruv tizimini ifodalagan bir qator unvonlar saqlanib qolganki, ularni arxeologik ma'lumotlar bilan taqqoslab, ijtimoiy munosabatlar tarixini tiklash imkoniyati tug'ilmoqda. Shunday terminlardan biri «sastar» bo'lib, Avestoshunos olim V.A. Livshitsning fikriga qaraganda bu unvon egasi uja (oazis) va uning markazi hukmdori maisabida bo'lgan. Xuddi shu fikrni akademik E.V. Rtveladze ham qo'llagan, va «Avesto»dagi sastar tushunchasini arxeologik manbalar bilan, ya'ni Bandixon o'lkasini sastar sifatida e'tirof etadi va o'lkaning markazi sifatida Bandixon I yodgorligini ko'rsatib o'tadi. Olimning fikricha, o'lkaniboshqargan hukmdor Xarbin boshliq vazifasini ham bajargan.

Qadimgi Baqtriyada shunday o'lkalarning nechtaani aniqlangan, umuman oaziso'lkaning qanday tarixiy ma'nosi, ahamiyati bor? Fikrimizcha, o'zbekcha ifodalaganda «dehqonchilik o'lkasi» deb atalsagina maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, Bandixon dehqonchilik o'lkasi deb atalsa, shu o'lkan suv manbasi bilan ta'minlaydigan daryo yoki kanal, dehqonchilik qilinadigan, sug'oriladigan yer maydoni, yodgorliklar majmuasi, keng chorva yaylovlari maydonlari tushuniladi. Shu dehqonchilik o'lkaniboshqargan hukmdorni «Avesto»da sastar deb atalgan bo'lishi mumkin.

«Daxyupati» termini esa «viloyat hukmdori» ma'nosini anglatadi. E.V. Rtveladze bu viloyatlarni Yunon manbalarida eslanadigan Gabaza, Paretaka va Bubakena mamlakatlariga taqqoslaydi. Arxeologik jihatdan bir necha dehqonchilik o'lkalari birikib viloyatni tashkil etgan. Dax'yular dax'yupatasi esa viloyatlar birikmasini - Baqtriyani tashkil etgan.

Baktriya Vatanimiz tarixiga «podshohlik» sifatida kirib kelgan. Ammo uni podshohlar emas, yuqorida tahlil qilganimizdek Qaviylar, Ahamoniylar imperiyasi davrida esa satraplar boshqargan. O'rta Osiyo xalqlari tarixida Baqtriyaning podshohlik sifatida qo'llanishining asosiy sababi rus adabiyotlaridan tarjima natijasida kirib kelganlidadir, ya'ni «Drevnebaktriykoye tsarstvo» iborasi «Qadimgi Baktriya podshohligi» deb tarjima qilingan¹. Yevropa xalqlari tarixiga xos bo'lgan «tsar» so'zini «podsho» deb tarjima kilgammiz va ishlatganmiz (tsarstvo-podshohlik). Bu ibora nafaqat Baqtriya, balki Xorazmga ham tegishlidir, yani »Drevnexorezmskoye tsarstvo« «Qadimgi Xorazm podshohligi» sifatida qo'llanib kelinmoqda. Tariximiz rus tilida yozilgan tahdirda ham «tsar» so'zini ishlatish to'g'ri emas, negaki o'zbek davlatchiligi tarixida «tsar» boshqaruvi bo'lmagan.

Shunga asoslanib «Baqtriya podshohligi» iborasi Printa «Baktriya Kaviyligi» iborasini qullash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qaviy tituli qanday unutilganligi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, Shohlar shohi Doro I Ahamoniylar davlatchiligidagi yangi islohotlarni amalga oshirgan. U boshqaruv va moliya ishlarini yangi pog'onaga ko'targan, butun imperiya xududini satrapliklarga bo'lib boshqarish usulini joriy etdi. Satraplik hududlari sobiq mahalliy davlatlar va aholining etnik guruhlar yashaydigan chegaralari asosida bo'lib chiqilgan. Kir II yoki Kambiz davrida bosib olingan yerlar mahalliy hukmdorlar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, yangi islohotga binoan, satraplik boshliqlari forsiylardan tayinlanadigan bo'lgan.

Satraplar va undagi harbiy boshliqlar shohlar shohi va markaziy davlat boshqaruvining doimiy nazaratida bo'lgan. Satraplik boshqaruvi va tekshiruvlar Xazarpat tomonidan amalga oshirilgan. U bir vaqtning o'zida shohlar shohining shaxsiy gvardiyasini ham boshqargan.

Joylardagi satrapliklarni boshkarish usuli va devonxona tarkibi Suzadagi bosh

devonxona tuzilishini aynan takrorlagan, ya’ni devonxona boshlig‘i, xazinabon, tashabbusni bo‘g‘uvchilar, hisobchilar, sud’alar, hattotlar va boshqalar.

Ahamoniylar O’rta Osiyoning boshqa ko‘pgina hududlari singari Baqtriyani ham bosib olgandan keyin, Qaviylar mustaqillikni qo‘ldan bergenligi tabiiy hol, albatta. Kir II bosqini davrida Baqtriya hukmdori Tanioksark (Oksiart) bo‘lgan. Bu haqda ishonchli yozma ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Endi Qadimgi Baqtriyaning Axamoniylar davridagi satraplari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tmokchimiz. Bu borada Ye.A. Monchadskayaning tadqiqotlari diqqatga molikdir.

Keltirilgan jadvaldan ma’lum bo‘ladiki, Ahamoniylar davrida Baqtriyada Qaviy unvoni qo‘llanilmagan, imperianing barcha hududida bo‘lgani singari bu yerda ham satraplik joriy etilgan va ikki yuz yil davom etgan Ahamoniylar imperiyasi davrida Qaviylik boshqaruvi bilan birga Qaviylik iborasi ham unutilgan. Ahamoniylar hukmronligidan keyingi davrlarda, xususan, A.Makedonskiy, Salavkiylar, Yunon Baqtriya, Kushonlar sultanati davrida zarb qilingan tangalarda ham Qaviy tituli qo‘llanilmagan.

Keltirilgan ma’lumotlar asosida Qaviylar to‘g‘risida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ular miloddan avvalgi IX asrlar oxirida Sharqiy Eron va Baqtriya hududlarida paydo bo‘lgan va Eron Ahamoniylari bosqini davrigacha hukm surgan.

Ularning faoliyati ikki, ya’ni ilk va so‘nggi Qaviylar davriga bo‘linadi. Bu birlashma gohida tarqalib, gohida kuchli siyosiy kuchga aylanib turgan. Uning ilk davrida Zardushtiylik din sifatida shakllanmagan. Ikkinci davri Zaratushtra faoliyati bilan bog‘liq. Shu davrdan boshlab payg‘ambar Zardusht ta’limoti Qaviy Vishtaspa tomonidan qo‘llab-kuvvatlangan, «Avesto» bunyod etilgan. Shuningdek, shu davrdan boshlab diniy qarashlar, ta’limotlar janggi boshlangan. Qaviy Vishtaspaning qo‘llab- quvvatlashi, homiyligi natijasida Zaratushtra ta’limoti butun Baqtriya bo‘ylab tarqala boshlaydi. Shu davrdan boshlab Baqtriyaning Qadimgi Sharq dunyosida o‘z o‘rniga ega bo‘la boshlanganligi kuzatiladi.

Qadimgi Baqtriyani yuqorida tahlil qilganimizdek Qaviylar, Ahamoniylar imperiyasi davrida esa satraplar boshqargan. Qaviylik tituli nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tishi Axura Mazda tomonidan tasdiqlab qo‘yilgan va Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriyada va Drangianada hukmronlik qilgan. O’rta Osyo xalqlari tarixida Baqtriyaning podshohlik sifatida qo‘llanishining asosiy sababi rus va ingliz tillardagi adabiyotlardan tarjima natijasida kirib kelganligidir.

Axamoniylar davrida Baqtriyada Qaviy unvoni qo‘llanilmagan, imperianing barcha hududida bo‘lgani singari bu yerda ham satraplik joriy etilgan va ikki yuz yil davom etgan Axamoniylar imperiyasi davrida Qaviylik boshqaruvi bilan birga Qaviylik iborasi ham unutilgan. Axamoniylar hukmronligidan keyingi davrlarda, xususan, Buyuk Aleksandr, Salavkiylar, Yunon Baqtriya, Kushonlar sultanati davrida zarb qilingan tangalarda ham Qaviy tituli qo‘llanilmagan.

Keltirilgan ma’lumotlar va mulohazalarga tayanib taklif qilmoqchimizki, yozilayotgan tarixlarimizda Qadimgi Baqtriya podshohligi o‘rniga Qadimgi Baqtriya qaviyligi atamasini qo‘llasak tariximiz to‘g‘ri yoritilgan bo‘ladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti o‘z o‘tmish ildizi — tarixidan oziq oladi. O‘tmish kelajak uchun zamin hozirlaydi. Shu sabab ham har bir davrda o‘tmishga, tarixga e’tibor

kuchayadi. Uni haqqoniy, ob'ektiv yoritish kunning dolzarb masalasiga aylanadi. U avlodlarning ma'naviy ruhiyatini mustahkamlashda eng muhim omil sanaladi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqiqiy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rinn tutadi».

Tarixni ob'ektiv yoritishda moddiy va yozma manbalardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, yozma manbalar tarix uchun eng muhim ob'ektdir. U insoniyatning avlodlari uchun qoldirgan nomasi bo'lib, yozuv uzoq va tadrijiy rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan. Yozuvlar tarixini o'rganish orqali ham insoniyatning qanchalik murakkab hayot jarayonlarini o'taganligining guvohi bo'lamic.

Yozuv insoniyat tafakkuri taraqqiyotining eng oliy mahsulidir. Kelajak avlod bilan muloqot vositasi, shuningdek, o'zaro aloqalarini, qo'shni mamlakatlar bilan munosabatni rivojlantirishning assosiy omilidir. Yozuvlar tarixi olimlar tomonidan keng o'rganilib kelingan. Tadqiqotchilar yozuvlar tarixini o'rganishda uning rivojlanish jarayonini bir nechta turlarga ajratishgan.

Insoniyat tarixida vujudga kelgan ilk yozuv - bu piktografik yozuv hisoblanadi. U lotincha pikche — tasviriy, grafo- yozaman degan so'zlardan iborat. Bu yozuv turi barcha xalqlarda mavjud bo'lib, uni har bir xalqning o'zi yaratgan. Shu sabab ham uning turlari nihoyatda xilma-xildir. Ilk piktografik belgilar miloddan avvalgi IV ming yillikda shumerliklar tomonidan yaratilgan. Misrliklarning piktografik yozuvlari miloddan avvalgi III ming yilliklarga, O'zbekiston hududidan miloddan avvalgi II—I ming yilliklarga oid piktografik belgilar topilgan³. Bunday yozuv turlari Xitoy va Hindistondan ham topilgan. Amerikadagi hindu kabilalarining ba'zilari piktografik yozuvlardan milodiy XIX asrgacha foydalangan.

Piktografik belgilar orqali umumiylar ma'lumotlar berilgan. Har bir belgi so'z yoki harakatni, ba'zida bir gap ifodalangan. Ularni tushunish oson, yozish esa murakkab bo'lgan. Jumladan, «odam» tasviri odam so'zini, «qush» rasmi qush so'zini anglatgan, «ko'z» rasmi ko'z so'zini yoki ko'z va suv tasviri «yig'lamoq» so'zi ma'nosini bergen.

Jamiyat rivojlanishi bilan inson tafakkuri ham taraqqiy etgan. Muomaladagi g'oyalarning barchasini piktografiya asosida ifodalash imkon bo'lmay qolgan. Bu esa yozuvlarni yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etgan. Bu davrda ideografiya yozuv turi vujudga kelgan. Ideografiya bu grekcha so'z bo'lib, ideya- g'oya, grafo - yozaman degan ma'noni anglatadi. Bu yozuv turida tasvir orqali ifoda eta olmagan g'oyalar ifodalangan. Masalan, piktografik yozuvda ko'z tasviri bilan faqat «ko'z» so'zini anglatsa, ideografiyada esa, bu o'tkir ko'z ma'nosida qo'llanilgan. Bu davrda piktografik belgilar ikki ma'noda ishlatilgan, bittasi to'g'ri ma'noni anglatsa, ikkinchisi ramziy ma'noda ishlatilgan.

Jamiyat rivojlanishi bilan piktografik belgilar, ya'ni tasvirlar ramziy ravishda yozila boshlangan. Bu yozuv tarixda mixxat deb nomlangan. Mixxat yozuvi rasmlarning sekin-asta soddalashib borishi bilan ifodalanadi. Keyinchalik ularning umumiylar xususiyatigina saqlanib, ramziy belgilarga aylangan. Bu rasm chizganga nisbatan ancha oson va qulay bo'lgan, chunki u vertikal, gorizontal va egri chiziq ko'rinishida bo'lgan. Bunday yozuv turlari Mesopotomianing Lapca, Ur, Eredu, Akkad davlatlarida keng tarqalgan. Shumerliklar yozuvni loy taxtalarga yozganlar. Unda yozilgan chiziqlarning uchi mixga o'xshab qolgan, yozuvning nomi ham shundan kelib chiqqan. Mixxat yozuvi miloddan

avvadgi III—I ming yilliklarda keng qo‘llanilgan. Bu yozuv turi Ossuriya, Bobil va qadimgi Eron davlatlarida keng tarqalgan. Mashhur Behistun yozuvi, Persepol va Suzadagi yozuvlar ham mixxat yozuvida yozilgan.

Mixxat yozuvi dastlab o‘ngdan chapga, ustun tarzida, keyinchalik chapdan o‘ngga yozila boshlangan. Uning 300 dan 900 gacha belgisi bo‘lgan. Mixxat yozuvida topilgan eng qadimiy yodgorlik Shumer davlatining hujjati hisoblanadi.

Yozuv shakllanishidagi keyingi jarayon iyeroglif yozuvining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. «Iyeroglif» grekcha so‘z bo‘lib, «muqaddas kesma xat» degan ma’noni anglatadi. Bu yozuvdagi belgilar ayrim tovushlarni, bo‘g‘imlarni, so‘zlarni va tushunchalarni ifodalagan. Turli tillarda gaplashuvchi xalqlar ham undan bemalol foydalana olganlar.

Misr iyerogliflari mil.avv. III ming yillikda vujudga kelgan. U 600 belgidan iborat bo‘lgan. Ularda buyum, odam va hayvonlar to‘liq ifodalangan. Biror-bir tushuncha ramziy belgilar orqali ifodalangan. Masalan, «sovuuq-suv» to‘kayotgan vaza belgisi, «qarilik» qayg‘uga botgan inson tasviri bilan berilgan.

Bugungi kungacha Xitoy, Yaponiya, Koreyada iyeroglif yozuvidan foydalanilayapti. Xitoy iyeroglifi Yaponiya yozuviga asos bo‘lgan. Xitoy iyeroglifida 60 ming belgi bor. Uning bir necha minggini o‘rgangan xitoyliklar bemalol gazeta va jurnallarni o‘qiy oladilar.

Alfavitli yozuvning vujudga kelishi bilan iyeroglif va mixxat yozuvlaridan foydalanilmay qo‘yildi. Bu esa ko‘p yozuvlarning muomaladan chiqib ketishiga olib keldi. Ilk alfavitli yozuv mil.avv. 1100 yilda Falastinda g‘arbiy semit qabilalaridan biri oramiylarda paydo bo‘lgan. Oramiy yozuvi qabila nomi bilan atalgan va ularning tili qadimgi yahudiy va finikiya tiliga yaqin bo‘lgan. Oramiy yozuvida finikiya harflari qo‘llanilgan. U 22 ta undosh va yarim undosh belgilardan iborat bo‘lgan. Finikiya alfavitni Kirill, lotin va grek alfavitiga asos solgan. Finikiya alfavitida misr iyerogliflarida bo‘lmagan tovush belgilari ham bo‘lgan. Har bir finikiya harfining nomi bo‘lgan: alef, bet, gimel, dalet, zayin va boshq. Alfavitda harflar ketma-ketligi qat’iy tartibda bo‘lgan. Hozirgi alfavitlar unga nihoyatda kam o‘zgartirishlar kiritgan. Greklar bu alfavitga unli tovushlarni kiritdilar va uni yanada takomillashtirdilar. Lotin, Kirill va runiy alfavitlari shu alfavitlarning g‘oyalari ostida yaratilgan.

Harfli alfavitni dastlab greklar ixtiro qilganlar. Greklar alfaviti oson va aniq bo‘lgani uchun uni darrov boshqa xalqlar lidiyaliklar, frakiyalar, etruslar qabul qildilar. Lotin alfaviti ham grek yozuvi asosida shakllangan.

O‘zbekiston hududida ham yozuvlarning rivojlanish jarayonlarini kuzatishimiz mumkin. Bu yerdan pigtografik yozuvlar, oramiy yozuvlari, uning asosida xorazm, boxtariy, sug‘d yozuvlari shakllangan. Pigografik yozuvlar O‘zbekistonning janubiy hududlaridan topilgan Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari mayjud ekanligi aniqlangan.

Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari XX asrning 60-70 yillarida A.Asqarov tomonidan o‘rganilgan. Sopollitepada olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida sopol idishlarga yozilgan 29 ta belgi topilgan. Ular shakllariga qarab 8 ta guruhga ajratilgan: yarim oy shakliga o‘xshash, tortilgan kamon shaklida bo‘lib, o‘rtasidan to‘g‘ri chiziq o‘tkazilgan, ikkita to‘g‘ri chiziq xoch shaklida, ikkita aylanani birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq «A» harfini eslatuvchi va ilon shaklidagi belgilar bo‘lgan. Bu belgilar dastlab topilganda Sopollitepalik kulollarning tamg‘alari bo‘lsa kerak degan fikr hukmron edi. Lekin xuddi shunga o‘xshash belgilar Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg‘oniston, Eron va Hindiston

hududlaridan topilishi ularning ilk yozuv ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu belgilarning rivojlanishining keyingi bosqichini tadqiqotchilar Jarqo‘tondan topdilar. Jarqo‘tonda ham bu belgilar faqat sopol idishlarda, xumlar, ko‘zalar va qasqonlarda uchraydi. Bu yerdan 46 ta belgi topilgan. Ularning ko‘pchiligi bir martagina sopol idishlarda yozilgan. Takroran ishlatilmagan. Shu sabab ular guruhlarga ajratilmagan. Sopollitepa yozuvida belgilar alohida ishlatilsa, Jarqo‘tonda bir necha belgi birga yozilgan. Tadqiqotchilar fikricha bu yozuvning taraqqiyoti bilan bog‘liq. Jarqo‘tondan topilgan belgilar orasida eng ko‘p uchragani xoch belgi sanaladi. Bu belgi tumorlarda va muhrlarda ham uchraydi. Ba’zida xoch bilan birga yarim oy, aylana shaklidagi belgilar birga chizilgan. Bu dalillar xoch belgisining keng tarqalgan belgi ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilar Jarqo‘tondan topilgan ba’zi belgilarni ularning turmush tarzi bilan bog‘laydilar. Omoch shaklidagi va arava g‘ildiragi belgisi shundan dalolatdir. Jarqo‘ton qabrlaridan narvonga o‘xhash belgi topilgan. Tadqiqotchilar buni nariji dunyoga o‘tish tushunchasi bilan ifodalaydilar. Shunday belgilar Erondagi Shahdod yodgorligidan ham topilgan.

Pigtografik belgilar Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi G’oz qishlog‘idan ham topilgan. Bu yodgorlik ilk temir davriga oid bo‘lib, bu yerdagi topilma pigtografik yozuvning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu yozuv yumshoq tarkibli monolit toshdan yasalgan keli (ugir) da o‘yib ishlangan. Unda 13 ta belgi aniqlangan. Ular orasida murakkab belgilar borligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilar fikricha bu keli zardushtiyarlarning otashkadasida muhim buyum sanalgan. Olimlar kelining sirtiga ham zardushtiyarlarning muqaddas so‘zleri yozilgan bo‘lsa kerak degan fikrlarni beradilar.

O‘zbekiston hududida qadimgi davrlarda oramiy yozuviga asoslangan yozuvar topilgan. Ularning eng qadimiysi Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan Oybuyirqala yodgorligidan topilgan. Bu yodgorlik miloddan avvalgi V-IV asrlarga oid bo‘lib, u yerdan xum sirtiga yozilgan yozuv topilgan. Bu yozuvni M. M. Mambetullayev va V. A. Livshitslar o‘rganganlar. Xumdagagi yozuvni V.A.Livshits tahlil qilgan. Olim uni oramiy yozuviga asoslangan xorazm yozuvi deb aytgan. Yozuv lotin yozuvida quyidagi kshrinishga ega bo‘lgan: mrys (mry) XI h III III III, ya’ni 11 mari9-x. Bu xumning sig‘imini bildirgan. Hajm o‘lchovi **mari** Eron, Parfiya, Misr va old Osiyoda keng qo‘llanilgan. Lekin ular turlicha belgilangan. Xorazmda 1 mari 16,5 yoki 17 litr bo‘lgan. Xumga 200 litrga yaqin suyuqlik sig‘gan. Bu topilma Xorazmda qo‘llanilgan hajm o‘lchovi haqida ma’lumot berdi.

Qadimgi O‘zbekiston hududida oramiy yozuvi asosida Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d yozuvtari vujudga kelgan. Ularning tadqiqotchilar tomonidan o‘qilishi tariximizning ko‘pgina jihatlarini yoritishga imkon berdi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat izlari bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan tan olinmoqda. Aynan shuning uchun ham yangi avlod adabiyotlarini yaratishda yozuvar tarixiga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

2-mavzu: Turk xoqonligi davlatining O‘zbekiston davlatchiligidida tutgan o‘rnini masalasi

Reja:

1. Ilk o‘rtalarning tarixiga oid tadqiqotlar

2. Turk hoqonligi tarixshunosligi

Turkiylar – jahondagi eng qadimgi va eng yirik etnoslardan biri bo‘lib, ular Osiyoning sharqiy hududlarida qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o‘zlaridan munosib iz qoldirib kelganlar. Xitoy manbalari, mashhur “O‘g‘iznama”, O’rxun-Yenisey runiy yozuvlari, Kultegin bitiklari bunga ishonchli dalildir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash xududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, ashin, arg‘un, o‘g‘iz, to‘qqiz o‘g‘iz, o‘ttiz tatar, qarluq, kitan, turq uyg‘ur, toharlar, duba (tuba-tuva), va boshqalar yashaganlar. So‘nggi davrda sharqshunos olimlar, jumladan o‘zbek olimlarining tadqiqotlari natijasida hamda qadimgi Xitoy manbalaridagi ma’lumotlarga ko‘ra turk atamasi bundan 3,5-4 ming yil muqaddam rasmsimon iyeroglislar bilan yozilgan bitiklarda “Tiyek” va “Tiauk” shaklida uchraydi. Turk so‘zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma’nolarni anglatadi, degan fikr majud.

Turon davlatchiligi tarixida Turk xoqonligi davri muhim o‘rin egallaydi. Turk xoqonlik xususida ma’lumotlar yetarli bo‘lsada, lekin ularning ko‘pchiligi bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma’lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VI-VIII asrlarda to‘plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar – O’rxun-Yenisey, Turk-Run yozuvlari, Xitoyning “Tan xonadoni tarixi” (VII-IX asrlar) tarixiy manbasi, VI asrning birinchi yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik yozuvchi Ioan Efesskiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdeq Turk xoqonligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rtasidagi mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Abu Rayxon Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham uchraydi. Xususan, Abu Ishoq Nishopuriy (VIII asr) o‘zining “Qissai al-anbiyo” asarida turklarning kelib chiqishini Nuh payg‘ambar o‘g‘li Yofasning to‘ng‘ich o‘g‘li Turk bilan bog‘laydi. Boshqa afsonaga ko‘ra, ular o‘n yashar bola va ona bo‘ridan tarqalganligi ta’kidlanadi. Bu ma’lumotlar Bey-shi va Xitoy yilnomalarida berilgan bo‘lib, turklarning ota-bobolari katta botqoqlik chekkasida (“G‘arbiy dengiz”ning o‘ng qirg‘oqlarida) yashagan. Biroq ular qo‘shti qabilalar tomonidan qirib tashlanadi. Ammo ulardan o‘n yashar bola tirik qolgan. U Turfon tog‘lariga ketib, u yerda urg‘ochi bo‘ridan o‘nta bola ko‘rgan. Bo‘ri bolalari Turfondagi ayollarga uylanadilar. Xar bir boladan bir urug‘ kelib chiqadi. O‘g‘illardan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo‘ladi. Afsonaga ko‘ra, “turk” so‘zi Oltoy tog‘ining eng qadimgi nomidir. Yana bir boshqa afsonaga ko‘ra, turk qabilasining ajdodlari Oltynning shimoliy yonbag‘irlaridagi viloyatidan kelib chiqqan bo‘lib, bu yerdagi qabila boshlig‘i Abanbi ularning ilk yo‘lboshchisi bo‘lgan.

VI asrning boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug‘ining mavqeい ko‘tariladi. U Asan Shad nomi bilan urug‘ boshlig‘i bo‘ladi. Uning o‘limidan keyin esa o‘g‘li Tuu taxtga o‘tiradi. Tuuning o‘g‘li Tumin-Bumin 551-yilda turk xoqonligiga asos soladi. Bumin Ili daryosi bo‘yida hukmdor deb e’lon qilinib, “Ili qag‘an” degan unvонni oladi. Oltoy xoqonlikning markazi bo‘lib qoladi. Oltoydagi O’tukan shahri xoqonlikning poytaxti qilib belgilanadi. (ushbu xoqonlik 551-744-yillarda faoliyat ko‘rsatdi) Qadimgi turk manbalarida bu ittifoq “tyurk”, “tyurk el”, ”turk bo‘dun” kabi nomlar bilan tilga olinadi. 552-yilda Bumin boshliq bu ittifoq Markaziy Osiyodagi eng kuchli Jo‘jan xoqonligiga zarba beradi. Bumin ukasi Istamiga (Istemi-turkcha, Sebimi-xitoycha, Sinjibi-arabcha, Stembi-xagah yunoncha) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldoriga to‘g‘ri

keluvchi “Yabg‘u”(bahodir) unvonini berib, u bilan birga davlatni kengaytirish payiga tushadi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug‘i ortib boradi. 552-yilda Bumin vafot etadi. Taxtga uning o‘g‘li Qora Issiqxon, 553-yilda uning ukasi Mug‘anxon o‘tiradi va 20 yil xonlik qiladi. Turklar tomonidan qisqa vaqt ichida Yenisey (Enasoy) daryosi bo‘yida yashovchi qirg‘izlar, shimoliy Xitoy viloyatlari bosib olinib, Xitoy imperatori turklar bilan sulu tuzishga majbur bo‘ladi. Istemli boshchiligidagi turklar 555-yilda Toshkent va uning atroflari, Qozog‘iston, Xorazm xududlari Yettisuv tutashgan yurtlarda yashovchi nushibu, dulu va turkash qabilalarini bo‘ysundiradilar. Shu yili turklar Sharqiy Turkistonning obod dehqonchilik viloyatlarining bir qismini hamda Sirdaryo va Orol dengizi bo‘yidagi dashtliklarni butunlay bosib oladilar. 558 yilga kelib Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo‘ylari zabit etilib, turklar avarlar bilan to‘qnashadilar. 563-567-yillarda Istami Yabg‘u qo‘shinlari eftalitlarga ketma-ket zarbalar berib uning hududlarini, ya’ni hozirgi O’rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan yerlarni egallaydilar. Buning oqibatida eftalitlar hokimiyati qulaydi. Shunday qilib, janubdan Eron sosoniylardan, shimoldan esa Turk xoqonligidan qattiq zarbaga uchragan Eftalitlar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so‘ng, batamom barbod bo‘ladi.

Turk xoqonligi O’rta Osiyo xududlarini ishg‘ol etgach, xoqonlik Eron bilan chegaradosh bo‘lib qoladi. Natijada ikki davlat o‘rtasida munosabatlari keskinlashadi. Turk xoqoni Istamining 567-yilda ikki marta yuborgan elchilari faoliyati muvaffaqiyatsiz chiqadi. Eron bilan munosabatlarni o‘rnatishga intilishlar natija bermaydi Biroq, Eron bilan o‘zaro munosabatlarni yahshilash imkonni bo‘lmagach xoqonlik sosoniylar bilan bir necha bor urush olib boradi. Istemli qo‘shinlari Eron shohi Xusrav I ni yengadi.

Mug‘anxon va uning avlodlari G’arbda Qora dengizgacha bo‘lgan hududlarni zabit etib, o‘zlariga bo‘ysundiradilar. Turk xoqonligi 568-569-yillarda o‘sha davrning qudratli davlati – Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intilib, Sug‘d savdogari Maniak boshchiligidagi elchilarni u yerga yuboradi. Shundan so‘ng Vizantianing Zemarx boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Biroq ko‘p vaqt o‘tmay Vizantiya bilan munosabat keskinlashadi. 575-576-yillarda turklar Kimmeriy Bosforini egallab, Qrim yarim oroligacha kirib boradilar. Keyinchalik Vizantiya va xazarlar yordamida turklar birnecha bor Eronga qarshi qo‘shin tortadilar. 588-yilda Xirot yaqinida Eronning mashhur sarkardasi Bahrom Chubindan yengiladilar. Turk xoqoni jangda halok bo‘ladi.

Shunday qilib, VI asrning 70-80-yillarida Yeniseyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo‘ylarigacha, Manjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho‘zilgan ulkan maydonda ko‘chmanchi chorvadorlar davlati – Buyuk Turk xoqonligi tashkil topadi.

Turk xoqonligi qanchalik buyuk bo‘lmasin, lekin u chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi turkiy qabilalar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Bu ittifoqni xoqon boshqarar edi. Turk xoqonlari O’rta Osiyoda hukmronlik qilsalar-da, biroq o‘zları bu hududlarga ko‘chib kelmadilar. Ular Yettisuv va boshqa hududlardagi markaziy qarorgohlarida qolib, bo‘ysundirilgan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ularidan olinadigan soliq va o‘lponlar bilan kifoyalanganlar. Turk xoqonligi davrida O’rta Osiyodagi 15 dan ortiq mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlar davom etgan. V-VII asrlarda bu mahalliy davlatchalar, avvalo eftaliylar, so‘ngra Turk xoqonligiga bo‘sundirilgan bo‘lsa-da, ammo

eftaliylar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi yerli sulola hukmdorlari qo‘lida qoldirilib, turklar ulardan boju yasoq undirib olish bilan cheklanadilar. Biroq mamlakat boshqaruvida urug‘-aymoqchilik udumlari kuchlik bo‘lib, zodagonlarning boshboshdoqlik harakati zo‘rayib bormoqda edi.

O‘zaro qabilaviy urushlar, sulolaviy kurashlar oqibatida Turk xoqonligi VI asrning 80-yillariga kelib (bu sana ba’zi manbalarda 603-yil bilan belgilanadi) ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Ulardan biri Mo‘g‘ulistonda tashkil topgan, markazi Olttoy bo‘lgan Sharqiy turk xoqonligi, ikkinchisi esa O‘rta Osiyo, Jungariya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o‘z tasarrufiga olgan markazi Yettisuv bo‘lgan G‘arbiy turk xoqonligi edi. G‘arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan ajralib turardi. Aholining kattagina qismi o‘troq dehqonchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul edi. Yer va suv munosabatlari rivoj topib borayotgan g‘arbiy xoqonlikdagi turklarning bir qismi o‘troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan qorishib ketadi.

VII asrning birinchi choragida G‘arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi..Uning sharqiy chegarasi Olttoygacha, janubi esa Hind daryosiga borib taqalib, markazi Yettisuv edi .Xoqonning yozgi qarorgohi Isfijob yaqinidagi Mingbulloqda, qishkisi Suyob shahrida edi. Xoqon To‘nyabg‘u (618-630) hukmronligi davrida boshqaruv tartiblari isloh etiladi. Viloyat hokimlariga “yabg‘u” unvoni berilib, ular xoqonning noiblariga aylantiriladi. O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toharistonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari yuboriladi. Bunday vakillar “tudun”deb yuritiladi. Biroq xoqon markaziy hokimiyatni mustahkamlash bobida amalga oshirgan ishlari yaxshi natija bermadi, o‘zaro kurash davom etdi. Xoqonlikning harbiy-ma’muriy tayanchi hisoblangan dulu va nushibu qabila ittifoqi zodagonlari o‘rtasida hokimiyat uchun kuchayib borgan kurash oqibatida G‘arbiy turk xoqonligi zaiflashib, bo‘linib ketadi. 667-679-yillarda vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi xoqonlik markazi Yettisuvni bosib oladi. Biroq G‘arbiy turklarning muttasil olib borgan kurashlari natijasida, VII asr oxiriga kelib G‘arbiy xoqonlik o‘z mustaqilligini tiklaydi. Xitoy gumashtasi Xusrav Bo‘ritosh Yettisuvdan haydab chiqariladi. Chochdan to Beshbaliq va Turfongacha bo‘lgan viloyatlarda dulu qabila ittifoqidagi turkashlar hukmronligi o‘rnataladi va Turkash xoqonligi tashkil topadi.

Turk xoqonligida saltanat ustidan oliy hukmronlikni “xoqon” olib borgan. Bu lavozim merosiy bo‘lgan. Xoqondan keyingi shaxs “Yabg‘u” davlatdagi birinchi amaldor vazifasida bo‘lgan. Taxt merosxo‘ri “tegin” deb atalgan. “Tudun” unvoni yuqorida ta’kidlangandek hukmdorning joylardagi noiblariga berilgan. Turkiy ko‘chmarchilarining asosiy qismi kambag‘al chorvador va ovchilardan iborat bo‘lib, bunday xalq ommasi “budun” yoki “qora budun” deb atalgan. Mamlakat “budunlar” yashaydigan ellarga bo‘lingan. Urug‘-qabilaning nomdor vakillari “beklar” deb yuritilgan. Jamoani xoqon boshchiligidagi zodagonlar kengashi – “qurultoy” boshqargan. Aholining ijtimoiy hamda xo‘jalik hayoti turlichcha bo‘lib, ko‘chmarchi turklarda urug‘ jaoasi an’analari hali kuchli edi. Ko‘chmarchilarining asosiy qismi kambag‘al chorvadorlar edilar. Ular o‘z urug‘i va qabilasi doirasida oqsuyak tabaqaga tobe holda yaylovma-yaylov ko‘chib yurar edilar. Katta xududlarni egallagan xoqonlik bo‘dunlar yashaydigan ellarga bo‘lingan edi. Ellarni harbiy zodagonlarning vakili “beklar” boshqargan. Ko‘chmarchilarining asosiy mashg‘uloti chorvachilik va yilqichilik edi.

G’arbiy Turk xoqonligi aholisining hammasi ham ko‘chmanchilardan iborat bo‘lmay, Yettisuv va uning tevarak atrofidagi hududlarda o‘troq ziroatkorlar istiqomat qildi. Ushbu vohalarda shaharlar va qishloqlar ko‘p bo‘lib, aholi asosan dehonchiliq hunarmandchilik hamda savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullangan. Mamlakatda dehqonchilik ancha rivojlangan. Asosan don va poliz ekinlari ekilgan. Paxtachilik sohasida ham yuqori hosil yetishtirilgan. Turk hunarmandlari yasagan zeb-ziynatlar, qurol-yarog‘lar xilma-xilligi va puxtaligi bilan mashhur edi. Farg‘ona, Choch, Eloqda, Usrushonada, Sug‘dda oltin, mis, temir va boshqa madanlar qazib olinardi. Turk xoqonligi xududlarida tranzit karvon savdo yo‘lining o‘tishi ichki va tashqi savdaga ta’siri kuchli edi. Sug‘d sadogarlarining mavqeい baland, bo‘lib, ular xalqaro savdoda asosiy vositachi edilar. VII asrning birinchi yarmida Buxoro hududi savdoning markazlaridan bo‘lgan. Poykent “savdogarlar shahri” deb nom chiqargan. Tashqi savdoda Xitoy bilan aloqa yetakchilik qilgan. Tarixiy manbalarda bu davrda ko‘plab savdo karvonlari yuborilganligi qayd qilingan. Birgina 627-647 yillarda Buxoro, Samarcand, Ishtixon tarkibida elchilar bo‘lgan birlashgan to‘qqizta savdo karvoni Xitoya yetib borgan.

Shunday qilib, G’arbiy turk xoqonligiga birlashgan aholining dehqonchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan o‘troq qismi madaniy jihatdan ilg‘or bo‘lib, xoqonlikning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida yetakchi o‘rinni egallagan. Biroq aholining bu qismi hayotida mulkiy tabaqlanish kuchayib, yer maydonlari va suv manbalarining katta qismi mulkdor zodagon dehqonlar qo‘lida to‘planmoqda edi. Ziroatchi aholining kattagina qismi zodagon dehqonlarga qaram kadivarlargacha aylanib bormoqda edi.

Turk xoqonligi davrida yuz bergen murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat mamalakat obodonchiligi, xo‘jalikning ravnaqi, shaharlarning qiyofasi va aholisining turmush tarziga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Yer egaligi munosabatlarning jadallahuvi, ko‘chmanchi chorvador qabilalar o‘troqlashuvining kuchayishi ekin yerlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda “ko‘shk”, “qasr”, “qo‘rg‘on” va “qo‘rg‘onchalar” nomli istehkomli turar joylar tashkil topdi. Ular asosan markaziy shaharlarning tevarak atrofida joylashgan edi.

Sug‘orma dehqonchilikning ravnaqi, xunarmandchilik va asbob –uskunalarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi, savdo-sotqning avj olishi dastlabki shaharlar shakllanishi va ravnaqiga, ayniqsa hunarmandchilik mahallalarining kengayishiga ta’sir qildi. Movarunnahr shaharlarning maydoni unchalik katta bo‘lmagan. Masalan, Afrasiyob xarobalari 216 hektar atrofida edi. Ustrushona poytaxti Bunjikat 10 hektardan oshmagan, Eski Poykent shahri devoirining umumiyligi 2 km atrofida, Chochning asosiy shaxri Binkent chegarasi 5, Termizning umumiyligi doirasi 7-10km atrofida, Jizzaxning maydoni undan ham kichik bo‘lgan.

Xitoy manbalarida ta’kidlanishicha Xorazm, Farg‘ona, Sug‘d, Chu vodiysida Tuproqqal‘a, Buxoro, Samarcand, Ishtixon, Toshkent, Isfara, Qubo, Koson, Aksikent kabi hunarmandchilik va savdo-sotiq tarmoqlari gurkirab rivojlangan shaharlari bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi tashqi tomondan devorlar bilan o‘rab olingan. Bu davrda, bir tomondan, shahar aholisining ortib, uning gavjumlashuvi yuz beradi, ikkinchi tomondan, shaharlar atrofi o‘zlashtirilib, obod etiladi. Markaziy shaharlarning tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzelari – rabotlar paydo bo‘ladi. Ularda xunardmandchilik mahallalaridan tashqari, karvonsaroylar, bozor, ibodatxona va dahmalar

qad ko'targan. Karvonsaroylar Mavorunnaxrning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarida, balki tranzit savdoning yuksalishida muhim rol o'ynagan. Ularda savdo karvonlari qabul qilinib, savdo ko'rgazmalari tashkil qilingan, savdo-sotiq va mol ayirboshlash amalga oshirilgan. Ko'p hollarda ular qal'a, xarbiy turar joy, omborxona hamda ma'naviy-madaniy markaz vazifasini ham bajanganlar. Ilk o'rta asrlarda shaharlar uch qismdan, ark (podsho qasri joylashgan), shahriston (ichki shahar) va rabotlardan iborat bo'lib qoladi. Shaharlarning uchchala qismi ko'p xollarda alohida devorlar bilan o'rab olinadi.

Shunday qilib, ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyoda yerga egalik qilish munosabatlari shakllanib, mustahkamlanib bordi. Siyosiy hayotda Eftaliylar davlati va Turk xoqonligi hukmronligi o'rnatildi. Hunarmandchiliq sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivoj topib. Buyuk ipak yo'li orqali tashqi savdo rivojlandi.

Ilk o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'li ravnaqi tufayli O'rta Osiyo xalqlari jahon tarixi jarayoniga tortilib, o'troq dehqonchilik vohalari bilan dasht xalqlari madaniyatları o'zaro ta'siri kuchaydi, bu diyorda ilk o'rta asrning o'ziga xos sirqirra va nihoyatda boy madaniyati shakllandi va rivojlandi.

Bu yuksak madaniyatning serjilo qirralari, ayniqsa, VI-VIII asrlarning moddiy madaniyat obidalari, diniy e'tiqodlar va tasviriy san'at namunalarida o'z ifodasini topdi. Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, binokorliq me'morchilik va tasviriy san'atning ayrim jabhalarida ko'rindi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Naxshab, Toshkent kabi dehqonchilik vohalarida ko'plab istehkomli qasrlar va zodagon dehqon qo'rg'onlari qad ko'tardi. Nahshab vohasidagi Zahoki Maron, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorazmdagi Alfir qal'alari, Sug'd, Tohariston, Farg'ona va Chochning shahar va qal'alari shular jumlasidandir. Ushbu shahar va qal'alarda devorlari turli tasvirlar bilan bezalgan saroy va ibodatxonalar qurilgan. Bu davr binokorligi va me'morchiligidagi, ayniqsa qasrlar alohida o'rin tutgan. Ularning ayrimlar, hatto ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga maxsus ko'tarma – pandus orqali chiqilgan. V asr oxiridan boshlab binokorlikda an'anaviy xom g'isht va paxsa bilan bir qatorda pishiq g'isht ham ishlatila boshlangan. Ilk o'rta asrlar me'morchiligining qurilish g'oyalari, muhandislik yechimlari va me'moriy uslublari Xorazm, Sug'd, Farg'ona, Choch va Toxaristonning shahar va qal'alari mulkdor dehqonlarning qo'rg'onlari, ibodaxonalar, ularning ichki naqshlari hamda tasviriy san'atda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ilk o'rta asrlarda qo'shni mamlakatlar, ayniqsa Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib bordi. Bu davrda O'ra Osiyolik shishagarlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatdilar. Xitoy imperatorlari saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar.

Bu davrda geografik jihatdan bir–biridan uzoqda joylashgan viloyatlarning aholisi turli tillarda so'zlashgan. Turkiy xalqlar qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Turk xoqonligi davrida sug'd yozuvi, xorazm yozuvi oromiy yozuvi bilan bir qatorda qadimiy turkiy xalqlarning yozuvi, O'rxun-Yenesey yozuvi, Turk-Run yozuvi, Ko'k Turk yozuvi, Belga xoqon yodnomasi va shu xildagi noyob topilmalar keng ishlatilgan. Yaqinlarga qadar turkiy yozuv VI-VII asrlarda shakllangan deb kelingan edi. 1970-yil Almati yaqinidagi Issiq degan qadimgi qo'rg'on-qabrdan miloddan avvalgi birinchi ming yilliklarning o'rtalariga oid ko'plab buyumlar qatori ko'mush kosacha ham topilib, uning sirtida chizma shakllari qadimgi turkiy yozuviga o'xshash bitik borligi aniqlandi. Uni taniqli olim A.S.Omonjo'lov tomonidan o'qib, talqin qilindi va ushbu bitik

fanda “Issiq” yozuvi nomini oldi. Ushbu turkiy qavmlar yozuvi tarixga oid qarashlarimizni yanada boyitdi. Endilikda topib tahlil qilingan noyob ashyoviy dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashi ma’lum bo’ldi.

Qadimgi Turonzaminda chorvador aholi o’rtasida turkiy til muhitni hukmron bo’lsa, o’troq aholining katta qismi sug’d tilida so’zlashuvi va sug’d tilining keng muomalada bo’lishi kuzatilgan. Bu davrda sug’d tili va yozuvi xalqaro savdo tili sifatida Sharqiy Turkiston va Xitoy hududlarigacha kirib boradi. Bizgacha saqlanib qolgan Sug’d yozuvlari orasida Panjakent yaqinida Qal’ai Mug’dan, Sharqiy Turkistonda Turfan shahri yaqinida topib o’rganilgan hujjatlar, Samarqandning qadimiy xarobasi Afrosiyobda qayd etilgan devoriy yozuvlar betakrordir.

Shaharlarda sug’d va turkiy tildan iborat ikki tillili rasmiy odat bo’lganligi Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asarida ta’kidlangan. Bu yozuvlarda buyuk ajdodlarimiz ijod qilganlar, o’zlaridan qimmatli madaniy, ma’naviy, meros qoldirganlar. Sug’dda savodxonlikka intilish juda ham kuchli bo’lgan. Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, bu yerda besh yoshga to’lgach o’g’il bola yozuv va hisobga o’rgatilar, so’ngra ular yigirma yoshga kirganlarida savdo ishlarini o’rganish uchun o’zga mamlakatlarga jo’natilar edi. Sug’d yozuvi asosida uyg’ur va turk yozuvlari shakllangan. Uyg’ur yozuvidan esa o’z navbatida keyinchalik mo’g’ul va manjur xatlari paydo bo’ladi. Shubhasiz bu tabiiy voqelik edi. Chunki, V-VIII asrlarda O’rta Osiyo, Yettisuv va Sharqiy Turkiston viloyatlarida sug’d tilining amaliy qatlami juda keng edi. Aholi sug’d va turk tillarida bemalol so’zlashgan.

Turk xoqonligi siyosiy jihatdan ko‘p xalqlarni birlashtirgani sababli turli diniy e’tiqoddagi aholi yonma-yon yashagan. V-VIII asrlarda O’rta Osiyoda zardushtiy, budda, nasroniy (xristianlik), moniy va qam (shomon) kabi bir necha dinlar mavjud bo’lgan. Ammo aholining katta qismi olovga topinuvchi ma’jusiy edi. Otashparastlik Xorazm, Sug’d va Choch viloyatlarida, ayniqsa, keng tarqalgan edi. Shaharlarda ma’jusylarning “vag’n” deb atalgan ibodatxonalar bo’lgan. Kohinlar “vag’npat” deb yuritilgan. Muqaddas otash “azarxurra” deb atalgan. U maxsus olovxona – “otashkada”larda kechayu-kunduz muttasil yonib turardi. Otashkada mutavallilari o’ta zohid dindorlardan bo’lib, ular “atrabon” deb yuritilgan.. Zardo’shiylik dinida yaratuvchilik qudratiga ega tangri – Axuramazda bo’lib, u olam va odamzodning, tabiat va jamiyatdagi barcha xodisalarning yaratuvchisi sifatida targ’ib qilingan. U zulmat, ochliq o’lim, urush, yomon (gunoh) ishlar, razil niyatlar va qabohatliklarning homiysi Axriman bilan doim uzluksiz kurash olib borgan.

Ilk o’rta asrlarda aholi o’rtasida budda dinining ham e’tiqodiy mavqeい past emas edi, Garchi u Sug’dda deyarli tarqalmagan bo’lsa-da, ammo O’rta Osiyoning janubiy viloyatlarida, xususan, Toharistonda, Farg’ona va Yettisuvda hamda Sharqiy Turkistonda keng tarqalgan edi. VI asr oxiri – VII asr boshlarida ayrim G’arbiy turk xoqonlari budda dinini qabul qilgan, ular butxonalar qurilishida homiylik qiladilar.Tarixiy manbalar ma’lumotlariga qaraganda VII asrda Balx shahrida yuzta, Termizda o’ntacha va Kabodiyonda uchta budda monastirlari bo’lgan. Ularning har birida bittadan to 50 nafargacha rohib (monax)lari bo’lgan.Ilk o’rta asrga mansub ibodatxonalarining qoldiqlari Farg’ona vodiysidagi qadimgi Quva shaxri xarobalarida qazib o’rganildi.Xitoy Sayyohi Syuan Szanning ma’lumotlariga qaraganda, birgina Qoshg’arda bir necha yuz budda ibodatxonalar bo’lgan. Ularda o’n mingdan ortiqroq buddaviy rohiblar zohidlik bilan o’z

dinlari yo‘lida xizmat qilganlar. Bu davrda O’rta Osiyoda nasoro (xristian) dinining nestorian ta’limotiga e’tiqod qiluvchi jamoalarning soni ham oz emas edi. Samarqandning Urgut tumani Sug‘ddagina emas, balki butun O’rta Osiyoda nasoroni targ‘ibotlarning markazlaridan hisoblanardi. Aftidan, nasoro dini Sug‘dga V-VI asrlarda kirib kelgan, VI asr boshlarida Samarqandda yepiskop, VIII asrda esa mitropolit kabi nasoro dinining olyi unvonidagi ruhoniylar nasoroni jamoalariga rahnomolik qilganlar.

O’rta Osiyo xalqlarining hayotida zardo‘shtiy, nasoroni va budda dinlari aosida yuzaga kelgan moniy dini ham ancha chuqur ildiz otgan edi. Bu dinning asoschisi Bobillik Moniy degan tarixiy shaxs bo‘lib, o‘z targ‘ibotini Midiya va Forsda boshlagan, VI-VIII asrlarda bu mazhab tarafdozlari O’rta Osiyoda, Tohariston, Sug‘d, Sharqiy Turkiston va Xitoyda ham yoyilgan. Tarixiy manba ma’lumolariga qaraganda ushbu din Murg‘ob vohasi orqali Tohariston, Sug‘d, Sharqiy Turkiston va Xitoya yoyiladi. VIII asrda Xitoy imperatori tomonida moniy dini “G’arbiy mulk”larning mahalliy dini, Uyg‘ur xoqonligining davlat dini deb e’lon qilinadi. Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan shomon diniga sig‘inib kelgan. Qadimda turklar o‘z dinini “qam” deb yuritganlar. VI-VIII asrlarda G’arbiy turk xoqonligining chorvador aholisi o‘rtasida buddaviy va nasoroni jamolari paydo bo‘lib, ayrim Turk xoqonlari bu yangi dinlarga homiylik qilsalarda, ammo chorvador aholining aksariyati hali “shomon” diniga e’tiqod qilardi. Bu din koinotni yo‘qlikdan bor qilgan “ko‘k tangriga” e’tiqod qiluvchi tavhid (yakka xudolik) dini hisoblanardi.

V-VIII asrlarda O’rta Osiyo shaharlarda hunarmandchilik va me’morchilik bilan bir qatorda tasviriy san’atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi tarmoqlari ravnaq topgan. Ularning ayrim namunalari ilk o‘rta asrlarda bino qilingan qasr va saroylarni bezagan siymo va ramziy belgilarda namoyon bo‘ladi. Ularda ilk o‘rta asrlar davrida sodir bo‘lgan ijtimoiy siljishlar va siyosiy munosabatlар ma’lum darajada o‘z aksini topgan. Bolaliktepa va Qoratepa, Panjakent, Varaxsha, Afrosiyob, Quva xarobalaridan hamda boshqa yodgorliklardan topib o‘rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkor naqshlar o’sha zamon yuksak san’atining nodir asarlaridandir. Ularda ilk o‘rta asrlar davrining o‘ta murakkab siyosiy munosabatlari tazyiqi ostida yuzaga kelgan ma’naviy va maishiy hayotning omuhtalashib ketgan sermazmun va beqiyos manzaralari tasvirlanadi. Masalan, Bolaliktepa devoriy suratlarida qo‘llarida qadah tutib, hashamatli zarrin liboslarda juft-juft bo‘lib purviqor o‘tirgan erkaklar va ayollarning bazmi jamshidi tasvir etilgan bo‘lsa, Varaxsha saroyida oq fil ustiga mingan filbon va pahlavonlarning old va orqadan chovut solayotgan arslon va qanotli grifonlar bilan olishuvi yoki suyanchiqlari qanotli tuya shaklida ishlangan oltin taxt ustida o‘tirgan hukmdor hamda otashdonda alangalanib turgan muqaddas olovni tiz cho‘kib tavob qilayotgan ziyoratchilar namoyish qilingan. Bunday misollarni Panjakent shahar harobalari va Afrasiyob devoriy suratlari misolida ham ko‘rish mumkin. Ilk o‘rta asrlarda haykaltaroshlik ham rivojlangan bo‘lib, budda va uning kohinlarining haykallari ko‘plab yasalgan. Termiz yaqinidagi Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Farg‘ona vodiysidagi Quva va Qo‘rg‘ontepadan buddanining bahaybat haykallari topilib o‘rganilgan.

Muhtasar qilib aytganda ilk o‘rta asrlarda O’rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Yerga egalik qilish munosabatlari shakllanib, mustahkalanib bordi. Siyosiy hayotda Eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronligi o‘rnatildi.

Mamlakatda hunarmandchiliq sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlari amalga oshirildi, chorvachilik rivojlandi, tranzit savdo yo‘llarining bu xududdan o‘tishi ichki va tashqi savdoga ijobiy ta’sir qildi. Xalqlar madaniy hayotida qurilish, me’morchiliq xat-savod, diniy e’tiqodlar, tasviriy san’at va musiqa ravnaq topib, madaniy aloqalar jonlandi. Natijada ilk o‘rta asrlarning madaniy hayotini o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos serjilo madaniyat yaratildi va rivojlandi.

3-mavzu: Markaziy Osiyoga arab xalifaligi bosqini Reja:

3. Arab xalifaligi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
4. Markaziy Osiyoda arab xalifaligi masalasi

Arab xalifaligi o‘rta asrlar dunyosida juda katta iz qoldirgan davlatlardan biri bo‘lib, O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Afrikaning ko‘plab davlatlarini o‘ziga bo‘ysundirib, qudratli sultanat darajasiga ko‘tarilgan. Xalifalik o‘zining ijtimoiytadrijiy taraqqiyoti davomida murakkab zidiyatli tarixiy jarayonlarni bosib o‘tgan. Arablarning ko‘pchiligi sahro va dashtlarda yashovchi ko‘chmanchi tuyakash chorvador edi. Ko‘chmanchilar badaviylar deb atalardi. Vohalardagi aholi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Dengiz bo‘ylari, vohalarda shaharlar qad roslagan bo‘lib, ularda asosan savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan aholi yashar edi. VI asrning o‘rtalariga qadar Arabiston yarim orolida yashagan qabila, urug‘larning hayot tarzi qoloq bo‘lib, ularning ko‘pchiligidagi ibridoiy-patriarxal tuzum hukm surgan. Arabiston yarim orolining Qizil dengiziga tutash vohasi va janubiy Yamanda arab qabilalari asosan o‘troq hayot kechirgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik ancha rivojlangan. Arabiston yarim orolining g‘arbiy qismida Qizil dengiz sohillarida quloy geografik xududda joylashgan iqtisodiy hayotda bir muncha ilgarilab ketgan edi.

Hijoz vohasining bosh shahri – Makka xalqaro karvon savdosining markazi hisoblangan. Tabariyning ma’lumotlariga qaraganda Makkada doimiy ravishda katta-katta savdo karvonlari tashkil qilinib, ular Misr, Vizantiya Eronga tomonga harakat qilgan. Savdo karvonlari yo‘lida joylashgan Makkadan tashqari Yasrib (keyinchalik Madina), Toif, Xaybar kabi shaharlar ham rivojlanib borib, gavjum savdo markazlariga aylangan edi. Makka arab tarqoq qabilalarini birlashtirishda markaziy o‘rin tuta bordi. Negaki urug‘, qabilalarda ko‘pxudoliq otashparastlik hukmron bo‘lib, shu asosda tez-tez urushlar bo‘lib turardi. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarining turli mintaqalar bilan bog‘langanligi bu hududni har jihatdan mavqeini ko‘taribgina qolmay, shu bilan birga uning tarqoq qabila, urug‘larni birlashtirish, markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi yetakchilik o‘rnini ham tayin qilib bergen.

Shunday vaziyatda Islom to‘g‘ri va haq yo‘lni ko‘rsatuvchi din sifatida yuzaga keldi. Bu dinning asoschisi quraysh qabilasining nufuzli hoshimiylar urug‘idan chiqqan Muhammad ibn Abdulloh (570-632) dir. Muhammad alayhisalomning bobolari Makkadagi Ka’ba ibodatxonasi kalitining nigohdori bo‘lgan. Muhamad alayhissalomga payg‘ambarlik 40 yoshda nasib etgan. Muhammad payg‘ambarning ta’limotiga ergashganlarni “muslim”, ya’ni islom diniga sodiq “itoatkorlar”, deb yuritganlar. O‘z payg‘ambarlik faoliyatini Muhammad Makkadan boshtagan. Bu yerda Ka’ba joylashgan edi. Ka’bani Odam Ato

barpo qilgan bo‘lib, uni Ibrohim payg‘ambar o‘g‘li Ismoil bilan qayta qurib, birinchi haj safarini uyushtirgan. Ka’baning ichida muqaddas tosh “hajar – ul-asvod” o‘rnatilgan. Islom ta’limoti aholining barcha qatlamlari manfaatlariga mos bo‘lib, tez orada tarqala boshlaydi. Lekin yangi din tarafdarlarining ahvoli ularning e’tiqodlariga ko‘ra og‘irlashib borgach, Muhammad 622-yil 16-iyulda (ba’zi adabiyotlarda 15-iyulda deyiladi) safdoshi Abu Bakr bilan Makkadan Yasribga ko‘chib boradi. Xijrat(arabcha ko‘chish) natijasida Makkadan Yasribga ko‘chib borganlar islom tarixida “muhojirlar” (ko‘chib kelganlar), islomni qabul qilgan yasribliklar esa “ansorlar” (yordamchilar) deb nom oladilar. Yasrib shahri Madina (payg‘ambarnig shahri) nomi bilan ataladigan bo‘ladi. Bu arab tilida “hijrat” deb atalib, shu kundan boshlab musulmon olamida qabul qilingan hijriy yil boshlanadi.

Muhammad payg‘ambar umrining oxirlariga kelib ko‘p sonli arab qabilalarini islom bayrog‘i ostida birlashuvi negizida Arab xalifaligiga asos solindi. Muhammad payg‘ambar nasroniy yil hisobida 632-yil (hijriy yil hisobida 10-yili) 25-mayda vafot etadi. Payg‘ambar vafotidan so‘ng payg‘ambarning ishonchli noiblari yoki o‘rbosarlari (arabcha – xalifalar) Abu Bakr Siddiq (632-634), Hazrati Umar (634-644), Hazrati Usmon (644-656) va Hazrati Ali ibn Tolib (656-661) lar davlatni boshqaradilar. Shu tariqa tariqa tarihaa “arab xalifaligi” paydo bo‘ldi. Xalifalar islom tarixshunosligida “Al-Xulafo arroshidun”, ya’ni haq yo‘ldan borgan “sahih xalifalar” degan nom bilan shuhrat topadilar. Ular hukmronlik qilgan davrda Arabistonda islom dini to‘la g‘alaba qozonib, tarihaa ilk o‘ta markazlashgan musulmon davlati – Arab xalifaligi tashkil topadi (632-1258). So‘ng xalifalikni 661-750-yillarda ummaviylar sulolasи qo‘liga o‘tgan. Ushbu sulolaga Muoviya bin Abu Sufyon asos solgan. Ummaviylardan so‘ng xalifalik taxti Abbosiylar (750-1258) qo‘liga o‘tdi. Sulolaning asochisi payg‘abarning amakisi avlodidan bo‘lgan Abul Abbas al-Saffoh edi. Xalifalik tomonidan Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Vizantiya va Iroq, Eron bo‘ysundirilib, islom jahon dinlaridan biriga aylanadi. Ummaviylar davrida Arab xalifaligi hukmronligi shu qadar katta hududlarga yoyildiki, uning tarkibiga G‘arbda Misr, shimoliy Afrika yerlari, Andaluziya (xozirgi Ispaniya), shimoli-sharqda Kichik Osiyoning katta qismi, Eron va O‘rta Osiyo, shimoli-g‘arbiy Hind sarhadlari kirar edi. VII asrning ikkinchi yarmida islomda ro‘y bergen ixtiloflar natijasida ikkita yo‘nalish-sunniylar va shialar paydo bo‘ldi.

Arab xalifaligining istilochilik yurishlarida O‘rta Osiyo yerlarini bosib olish va uning xalqlarini itoatga keltirish, bu hududda islom dinini yoyish alohida o‘rin tutadi. VII asr o‘rtalariga kelib Eron xududlari egallangach, endilikda xalifalik e’tibori Xuroson va O‘rta Osiyo yerlarini bosib olishga qaratiladi. Ularning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlarini o‘z maqsad va rejalarini bilan ikki davrga bo‘linadi. Birinchi davr 650/651-yillardan boshlanib, 705-yilgacha davom etadi. Ikkinchi davr 705-715-yillarni o‘z ichiga oladi.

Arablarning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari 651 yilda Marvni fatx etish bilan boshlanadi. So‘ngra xozirgi Afg‘onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi va januy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlarni istilo etadilar. Ular bu hududlarni Xuroson deb ataydilar. Arablar bu yerlarda o‘rnashib olgach, Amudaryodan shimoldagi boy viloyatlarni “Movarounnaxr” ya’ni “daryoning narigi tomoni” deb ataydilar va ushbu hududlarni bosib olishga tayyorgarlik ko‘radilar.

Bu davrda Movarounnaxrda feodal tarqoqlik hukmron bo‘lib, 15 dan ortiq kichik – kichik davlatlar mavjud bo‘lib o‘zaro urushlar bo‘lib turardi. Arablar Amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu yerlarning boyliklarini talab, o‘ljalarni

qo‘lga kiritgach, ortga qaytadilar. Arablarning Movarounnaxrga dastlabki hujumlari natijasida 654-yilda Sug‘ddagi Maymurg‘, 667-yilda Chag‘oniyonni bosib olishdan boshlanadi. 673-yilda xalifalikning Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro viloyatiga bostirib kiradi, Romiton va Poykentni egallaydi. Buxoro qamal qilinadi. Bir necha kunlik qamaldan keyin shahar taslim bo‘ladi. Arablar sulh imzolab, yuz ming dirham hajmida boj undirib, shaharni talab orqaga qaytadilar. 675-676-yillarda Xuroson noibi Said ibn Usmon boshliq arablar Buxoro va Samarqand tomon yangitdan yurish boshlab Buxoroni egallaydilar. Ammo sug‘dliklar bir oy davomida qamalga olingan Samarqandni himoya qiladilar. Arablar sug‘dliklar bilan sulx tuzishga majbur bo‘ladilar, 3 ming kishini asrga olib orqaga qaytadilar. Bular O‘rta Osiyo yerlarini egallah borasidagi dastlabki urinishlar edi.

Arablar tomonidan O‘rta Osiyonni bosib olishning ikkinchi davri VIII asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Xalifa Abdulmalik ibd Marvon 704-yilda Qutayba ibn Muslimni Xurosonga noib etib tayinlaydi. Unga Movarounnahrdan to Xitoy hududlarigacha bo‘lgan viloyatlarni xalifalikka bo‘ysundirish vazifasi yuklanadi. Harbiy yurishni Qutayba 705-yilda Balx va Chag‘oniyon viloyatlari atroflarini zabit etishdan boshlaydi. Qutayba katta tayyorgarlikdan keyin 707-yili Amudaryodan o‘tib Poykandni egallah sari harakatlanadi. 50 kunlik qamaldan keyin arablar shaharni egallaydilar, qo‘lida qurol tutishga qodir erkaklar qirib tashlanadi, uning boyliklari talanadi. Qutayba ibn Muslim mahalliy hukmdorlarning o‘zaro kelishuvi va ittifoqiga izn bermay, Movarounnahr xududlarini birincketin egallaydi. 708-709-yillarda u Buxoro va uning atrofidagi ko‘plab qal’alar va obod yerlarni bosib oladi. 710-yilda Qutayba Shuman, Naxshab va Keshni, 711-yili Xorazmni egallaydi. Sug‘dning bosh shahri - Samarqand 712-yilda egallangach, shahar vayron qilinadi, shahar hokimi Tarxun qatl etiladi Samarqandning yangi hokimi G‘o‘rak (710-737) bilan Qutayba o‘rtasida sulh bitimi imzolanadi. Bitimga ko‘ra arablarga yiliga 200 ming dirham tovon to‘lash hamda 30 ming erkakni ularga berish majburiyati olinadi. Juda katta miqdordagi boyliklar tashib ketiladi. Sharhnomaga binoan shahar markazi arablarga bo‘shatib berilib, u yerda ular masjid quradilar. Qutayba keyingi Smrdaryo bo‘ylab yurishlarda 715-yilga qadar bo‘lgan davrda Toshkent, Xo‘jand, Farg‘ona, Sharqiy Turkiston vohalarini bosib olib, Qashqargacha bo‘lgan xududda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Biroq uning uning faoliyat uzoqqa bormaydi. U xalifa Sulaymon ibn Abdulmalikka qarshi isyon ko‘taradi. Isyon mag‘lubiyatga uchragach, 715-yilda u Farg‘onada o‘z askarlari tomonida o‘ldiriladi.

Shunday qilib, o‘n yil davomida olib borilgan qonli urush oqibatida arablar dunyoning eng qadimiy va madaniy o‘lkalaridan biri Movarounnahrni o‘z mustamlakalariga aylantiradilar. Arablar tomonidan o‘lkani zabit etish jarayonida uning deyarli barcha obod dehqonchilik vohalari oyoq osti kilinib, ko‘p shahar va qishloqlarga o‘t qo‘yib, vayron etildi. Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarning shahristoni, dehqonchilik vohalardagi eng unumdar yerlarning va suv inshootlari katta qismi arablarga ixtiyoriga o‘tdi. Mahalliy aholi turli xil jamoa ishlariga majburan jalb qilindi.

Movarounnahrni egallagan arab hukmdorlari xalqqa zulmni kuchaytirish maqsadida bu yerda sosoniylarning soliq tartibini joriy etdilar. Arab xalifaligi hazinasiga to‘lanishi majburiy bo‘lgan markazlashtirilgan soliq turlari quyidagicha bo‘lgan: Xiroj – arabcha – “chiqim, xarajat, sarf-soliq”; yer solig‘i – daromadning uchdan bir qismi miqdorida

undirilgan; Ushr – arabcha “o‘ndan bir” – davlat idora ishlari uchun daromadning o‘ndan bir hajmi hisobida olingan; Juzya (jon solig‘i) – , aholidan oziq- ovqat, xomashyo yoki pul hisobida yig‘ilgan; Zakot – arabcha – “tozalanish” – mol-mulkning 2,5 foizi miqdorida olingan.

Bulardan tashqari aholiga ko‘plab mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham yuklangan.

IX asr yashab o‘tgan arab tarixchisi Xo‘rdodbehning ko‘rsatishicha, xalifalikka faqat xiroj solig‘i hisobiga Sug‘d viloyati 326 ming, Farg‘ona 280 ming, Ustrushona 50 ming, Shosh 607 ming dirham soliq to‘lagan. Buxoroga belgilangan xiroj solig‘i miqdori bundan ham ko‘p bo‘lgan. Mahalliy aholi bu soliqlarni muntazam to‘lab borishga majbur etilgan. Arablar dastlab juzya solig‘ini musulmon diniga kirmagan odamlarga joriy etganlar. Biroq keyinchalik hamma islom diniga kira boshlagach, bu soliq barcha yerli aholiga bab-barobar solina bergen.

Movarounnaxr bosib olingach arablar o‘z hukmronliklariningsiyosiy negizini mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minalashda islom dinini keng yoyishga va targ‘ib qilishga katta e’tibor berdilar. Mahalliy aholi e’tiqod qilayotgan zardushtiyliq moniyliq buddizm, nasroniy va boshqa dinlar soxta deb e’lon qilindi. Islom dini va uning ruknlarining mahaliy xalq orasida yoyilishi nihoyatda qiyin, murakkab kechgan Arab ma’murlari bu sohada ko‘p hollarda zo‘rliq zo‘ravonlik va kuch ishlatish yo‘li bilan mahalliy aholini islomni qabul qilishga undaganlar. Arab istilochilari zabit etilgan O’rta Osiyo hududlarida qattiq qo‘llik bilan arablashtirish siyosatini olib bordilar. Ushbu maqsad yo‘lida ular ko‘p minglab arab qabilia, urug‘larni O’rta Osiyoga ko‘chirib keltirib, eng yahshi yerkarni ularga zo‘rlik bilan olib bergenlar. Movarounnaxr hududlarida arablar egallab olgan yerlar hozirgacha ham “arab qishloq”lari nomi bilan saqlanib qolgan. Ziyod ibn Abu Sufiyon davridayoq o‘lkaga 50 mingdan ortiq arab aholisi Basra, Kufa atroflaridan ko‘chirib keltirilgan. Jumladan, dastlabli paytlardayoq quraysh qabilasiing 5 mingdan ortiqroq aholisi Samarqand atrofidagi dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan xududlarga joylashtirilgan.

Arab xalifaligining O’rta Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati, yerli aholining barcha haq-huquqlaridan mahrum etilishi, zulm va islom dini, xalifalik qonun-qoidalarining zo‘rlik bilan joriy etilishi, shubhasiz mahalliy xalq orasida norozilikning kuchayishiga olib keldi. Bu xolat o‘lkaning turli xududlarida arablar zulmiga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

720-722 yillarda Sug‘diyonada yuz bergen Samarqand hukmdori G’o‘rak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligidagi qo‘zg‘olonlar arablar bosqiniga qarshi dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo‘lgan. Sug‘dliklarning ozodlik kurashini turklar qo‘llab-quvvatlaganlar. Yettisuvdan Turkash xoqon shaxzoda Kursul boshchiligidagi katta qo‘sinni yordamga yuborgan. Sug‘dliklarning birlashgan kuchlari arablarga qarshi muvaffaqiyatlari janglar qilib, bir qator zarbalar bergenlar. 721-yilda Xurosonga noib etib tayinlangan Said ibn Amr Al-Xoroshiy qo‘zg‘olonchilarga qarshi keskin choralar ko‘rgan. Sug‘dliklar Farg‘ona tomonga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Biroq sug‘dliklarning Xo‘jand atrofiga yetib kelgan guruhi Said al-Xoroshiyning muntazam qo‘sishlari tomonidan shafqatsizliklarcha qirib tashlangan. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda uch ming, yana boshqalarida esa yetti ming odam halok bo‘lganligi ta’kidlanadi. Saib Al-Xoroshiy

Panjkent hokimi Divashtich boshchiligidan Zarafshon bo‘ylab tog‘lar oshib Obgar (Obargar) qal’asi oldiga yetib kelgan sug‘dlarni tugatish uchun Sulaymon ibn Abussari boshchiligidan katta qo‘shin jo‘natadi. Arablar qal’ani egallaydilar. Qo‘zg‘olon bostirilgach omon qolish sharti bilan qo‘lga olingan Divashtich ham Arbinjonga olib borib qatl etiladi, uning boshi Iroq hokimiga yuborilib tanasi zardo‘shtiyarning xilxonasi – novus devoriga qoqib qo‘yiladi.

Xalifalikning og‘ir soliq siyosatiga qarshi Samarcand, Buxoro, Xuttalon viloyatlarida 725-729 yillar davomida qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan. Xuroson noibi bu qo‘zg‘olonlarni bostira olmaydi. Xalq xarakatlari keng avj olib, butun Movarounnaxr, Xurosonga va Xuttalonga yoyiladi. Qo‘zg‘olonchilar turklar yordami bilan arablarni mamlakatdan haydar chiqara boshlaydilar. Movarounnaxrda arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros ibn Abdulloh islomni qabul qilganlardan xiroj va jiz’ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Zodagon dehqonlarning ko‘pi o‘z chokar va kadivarları bilan birga islomni qabul qilib, arablar tomoniga o‘tadilar. Shu tariqa Sug‘dda xalifalik o‘z maqeini bir munkha mustahkamlab olishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq xalifalikning sharqida vaziyat keskinligicha qoladi. Tohariston va Sug‘dda 736-737-yillarda yangitdan kuchli qo‘zg‘olon ko‘tarilib, o‘z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etdi. Qo‘zg‘olon o‘z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etdi. Xuroson va Movarounnahrning yangi noibi Nasr ibn Sayyor (738-748) qo‘zg‘oloni bostirish uchun Sug‘d, Farg‘ona, Choch va Farg‘onaga xarbiy yurishlar qiladi. Uning olib borgan uddaburon siyosati tufayli qo‘zg‘olon harakatlari bartaraf etiladi. Mamlakatda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun moliya islohotini o‘tkazadi, islomni qabul qilganlarni jiz’ya solig‘idan ozod etadi, yer egalarining e’tiqodidan qat’iy nazar, xiroj to‘lash shart qilib qo‘yiladi, halifalik tomoniga o‘tgan yirik dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi.

Muhtasar qilib aytganda VIII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda arablarga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlari istilochilarga qarshi kurashning birinchi bosqichi edi. Qo‘zg‘olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, ularning oldiga qo‘yan maqasad va talablari ham turlicha edi. Ozodlik kurashining bu bosqichida turli tabaqa vakillarini o‘z e’tiqodi va dinini saqlab qolishdek maqsad birlashtirgan edi.

Mamlakatda arablar hukmronligiga qarshi xalq ko‘tarilishi avj olayotgan bir davrda xalifalikning ijtimoiy va siyosiy hayotida ham keskin o‘zgarishlar paydo bo‘lib, ummaviylar xonodoniga nisbatan norozilik kuchayib ketdi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat Ummaviylar sulolasiga xalifalikni boshqarishga yaramay qolganligidan, bu sulola umrining tugab borayotganidan dalolat berar edi. Oqibatda ummaviylarga qarshi raqib guruhlar paydo bo‘lgan edi. Ular ummaviylarni rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblab, xalifalikni abbosiylarga topshirish kerak degan da’voni ilgari suradilar. Ana shunday guruhlardan biri abbosiylar edi. Shu munosabat bilan Muhammad avlodidan bo‘lgan abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishi e’tiqodi mustahkam islom yo‘lining tiklanishidir, deb talqin qilindi. Ummaviylarga qarshi umumiylor noroziliq ayniqsa ,VIII asrning 40-yillarida xalifa Marvon II (744-750) hukmronligi davrida nihoyatda kuchayadi. Ummaviylarga qarshi harakatga abbosiylarning nufuzli vakillaridan Imom Ibrohim ibn Muhammad boshchilik qiladi. Abbosiylar g‘oyasi harakatini targ‘ibot va tashviqot qilish uchun, bu guruhning eng ishonchli va sodiq vakillari xalifalikning barcha xududlariga yuboriladi. 746-yilda abbosiylar harakatiga boshchilik qilish uchun Abumuslim (asli ismi Abdurahmon ibn Asad) Xurosonga

yuboriladi. Unga “Payg‘ambar xonadonining ishonchli vakili” degan unvon beriladi. U Marv shahri yaqinidagi Safizanj qishlog‘ini keyinchalik Moxuvon qal’sini o‘ziga qarorgoh qilib oladi. Timqora rang abbosiylar harakatining timsoli sifatida e’tirof etiladi. Dastlab arab zodagonlari, so‘ngra mahalliy dehqonlar, hunarmandlar Abu muslimni qo‘llab quvvatlaydilar. Bu harakat Xuroson, Movarounnahr va Tohariston viloyatlarida keng tarqaladi. Abumuslimning qora tusdagi bayrog‘i ostida to‘plangan qo‘zg‘olonchilar soni kun sayin ortib boradi. 744-yilning yozida Abu Muslim ummaviylarga qarshi aholini ochiq kurashga da’vat etadi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Abu Muslim qo‘shinlari bilan jang qilishga jur’at etmay 748-yilning boshida poytaxt Marvni qo‘zg‘olonchilarga jangsiz topshiradi. 749-yilda Abumuslim boshchilik qo‘zg‘olonchilar xalifalikning bosh shahri Damashqni egallaydilar. Natijada ummaviy Marvon II taxtdan ag‘dariladi. Uning o‘rniga abbosiylar xonadonidan bo‘lgan Abdulabbos Saffoh (749-754) xalifalik taxtiga o‘tiradi. Abbosiylarning hokimiyatga kelishida, shubhasiz, o‘z davrining yirik siyosiy arbobi va sarkardasi Abumuslimning hizmatlari nihoyatda buyuk edi. Mamlakatni idora etishda arablar mulkdor zodagon tabaqa vakillariga tayandilar. Avvalobor ular abbosiylarni hokimiyat tepasiga olib chiqqan harakatning yo‘lboshchisi Abumuslim va ummaviylarga qarshi kurashda jonbozlik qilgan Xolid ibn Barmoq kabi harbiy va siyosiy arboblarni xalifalikning turli lavozimlariga tayinlaydilar. Yuqori lavozimlarga tayinlangan Abumuslimning xalifalikda shuhrati va obro‘sni baland edi. Keyinchalik Abumuslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrga noib qilib yuboriladi. 755-yili Abumuslim xalifa Abuja’far Davonaqiy (754-775) tomonidan poytaxtga chaqirilib, xiyonatkorona o‘ldirilishi Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olishiga turtki bo‘ldi.

Arab istilochilari zulmiga qarshi Movarounnaxrdagi eng katta qo‘zg‘olon 769-yilda boshlandi. Bu qo‘zg‘olon tarihaa “oq kiyimlilar” yoki qo‘zg‘olon rahbarining nomi bilan Muqanna qo‘zg‘oloni deb yuritilib, butun O’rta Osiyo xududlariga tarqaladi. Muqanna “niqobdor”, “pardali” ma’nolarni anglatadi Muqannaning asl ismi Xoshim ibn Xakim bo‘lib, uning ismi va shaxsi to‘g‘risida yozma manbalarda turlicha ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, Yaqubiyning ta’kidlashicha uni Xoshim ul A’var(bir ko‘zli), ya’ni bir ko‘zli Hoshim deb ataganlar. Narshahiy “Buxoro tarixi” Muqannani juda xunuq boshi kal, bir ko‘zi ko‘r bo‘lganligi sababli hamisha boshi va yuzini ko‘k parda tutib yurardi deb ta’riflaydi. U savodli, aqli va tadbirkor bo‘lgan. Xuroson noibligida kichik lashkarboshilikdan vazirlikka qadar ko‘tarilgan. Muqanna Mazdak g‘oyalarining ilxomchisi sifatida faoliyat ko‘rsatib, ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da’vat etuvchi ta’limotni targ‘ib qilib, o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilgan. U arablarni O’rta Osiyo hududlaridan haydab chiqarish g‘oyalarini targ‘ib etgani uchun xalifa Al-Mansur tomonidan u Bog‘dod zindoniga tashlangan. 769-yilda zindondan qutulib, Marvga kelgan Muqanna xalq harakatiga boshchilik qiladi. O’rta Osiyoning turli viloyatlariga o‘z tag‘ibotchilarini yuboradi. Muqanna g‘oyalariga ixlosmand va tarafdar kuchlar, ayniqsa, Sug‘dda ko‘pchilikni tashkil qilardi. Muqanna 36 muxlisi bilan Amudaryoning o‘ng qirg‘ogiga o‘tib, Kesh yaqinidagi Som qala’sini o‘z qarorgohiga aylantiradi. Tez orada oq kiyimlilar harkati kengayib katta qo‘zg‘olonga aylanadi. Uni dovrug‘i Xurosonga qadar borib yetadi.

Oq kiyimlilar qo‘zg‘olonidan dahshatga tushgan xalifa Abu Ja’far 775-yilda Jabroil ibn Yaxyo boshliq katta xarbiy kuchni Movarounnaxrga yuboradi. Ammo qo‘zg‘olonchilar

Samarqand ostonalarida bu qo'shinni yengadilar. Natijada Naxshab, va Chag'oniyan vodiylari qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Qo'zg'olon 776-yildan Buxoro vohasida kuchayib ketadi. Bu Buxoro uchun katta havf ekanligini yaxshi bilgan Arablar 776-aprelida Samarqand noibi arab qo'mondoni Jabroil va Buxoro amiri Xusayn ibn Maozning birlashgan kuchlari oq kiyimlilar qo'rg'oni Narshaxni egallaydilar. Qo'zg'olonchilardan 7000 kishi o'ldiriladi. Qo'zg'olon yo'lboshchilaridan Xakim ibn Axmad va Xishriylar qatl qilinadi. Natijada Kesh va Samarqand qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanadi. 777-yilda oq kiyimlilarga zarba berish uchun xalifa Mahaiy Nishopurga keladi va Xuroson noibi Maoz ibn Muslim va Hirot amiri Said Xoroshiy qo'mondoligida katta qo'shin to'planib, Samarqandga yuboriladi. 777-778-yillar mobaynidagi og'ir janglardan keyingina Samarqand arablar tomonidan ishg'ol qilinadi. Oq kiyimlilar Narshax va Samarqandda mag'lubiyatga uchragach, sotqinlik yo'liga o'tib, arablarga yordam beradilar. Ular arablar tomonida turib Muqannaga qarshi Keshga tomon harbiy yurisha qatnashadilar. Muqannaning qarorgohi Som qal'asini qamal qiladilar. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng xoldan toygan oq kiyimlilar taslim bo'lishga majbur bo'ladilar. Shu tariqa qo'zg'olon yengiladi va Muqanna halokatga uchraydi. Tarixchi Tabariyning yozishicha, Muqanna o'z halokatining muqarriligiga ko'zi yetgach, zahar ichgan. Shunday qilib, o'n yildan oshiqroq davom etgan va Arab xalifaligin larzaga keltirgan Movarounnaxr xalqining Muqanna boshchiligidagi ozodlik uchun arab bosqinchilariga qarshi qo'zg'oloni shu tariqa tugaydi.

Ammo bu bilan arab istilochilariga qarshi kurash to'xtab qolmaydi. Muqanna qo'zg'olonidan 20 yil o'tar-o'tmas, 806-yilda Sug'dda Rofe ibn Lays boshchiligidida xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Samarqandda boshlangan qo'zg'olon Movarounnaxning qator viloyatlariga yoyiladi. Uni bostirish uchun xalifalik tomonida ko'rilgan chora-tadbirlar natija bermagach, Xuroson noibi Ma'mun mahalliy zodagonlardan yordam so'raydi. Somonxudot, uning nabiralari No'h, Ahmad Ilyos va Yahyolarning yordami bilan qo'zg'olon bostiriladi.

Xullas, VIII asr boshlarida Arab xalifaligi tomonidan Movarounnaxr istilo qilindi. Bosib olingan yerlarda islom dini yoyilib, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti xalifalikning tartib-qoidalariga itoat etdirildi. Arablar bosqiniga qarshi xalq qo'zg'olonlari beshafqat bostirildi.

4-mavzu: IX-XII asr O'zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi Reja

1. Siyosiy tarixga oid tadqiqotlar
2. Iqtisodiy va madaniy tarix masalalaring yoritilishi

Istiqlol yillarida mamlakatimiz tarixchilari tomonidan o'tmish voqeligi, unda kechgan turli jarayonlarni holis ravishda o'rganish, tahlil etish natijasida ko'plab ahamiyatga molik tadqiqotlar amalga oshirildi, tarixning ochilmagan saxifalari o'rganildi, bir yoqlama talqin etilgan masalalarga tegishli oydinlik va aniqliklar kiritildi. Shu bilan bir qatorda hali tarixchi olimlar oldida Vatan tarixinining ko'plab tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalari ham borki, ular orasida o'rta asrlar, xususan IX—XII asrlarda hukmronlik qilgan sulolalar tarixi ham alohida o'rin egallaydi. Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida bu holni G'aznaviylar sulolasi misolida ham keltirish mumkin.

Sobiq sovet davri tarixshunosligida G'aznaviylar, xususan mazkur davlatning eng

yorqin namoyandası Mahmud G’aznaviy tug‘risida umumiy hamda bir yoqlama salbiy qarash ustunlik qilgan. Darslik va adabiyotlarda Mahmud Faznaviyni asosan «ta- lonchi», «zo‘ravon hukmdor» deb ko‘rsatish odat tusiga kirgan.¹

Mustaqillik yillariga kelib ushbu masala mohiyatini ilmiy jihatdan zamonaviy talqin etish boshlandi. Bu borada ilmiy-publisistik xarakterdagı Mahkam Andijoniyning maqolasini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu maqola garchi shu yo‘nalishdagi ilk chiqish bo‘lsa-da, lekin unda ko‘proq publisistik xarakter ustunlik qilgan hamda masala mohiyatining tarixi iliq, xolislik jihatlari ancha sust aks etganligini ta’kidlash lozim.¹ Mazkur jihatlar ilmiy asosda, tarixiy manbalarga to‘laqonli tayangan holda yozilgan Azamat Ziyoning monografiyasida o‘z aksini topgan bo‘lib, masalaning dolzarblik jihatlariga katta e’tibor berilgan.²

Mavzuning manbashunosligiga to‘xtalganda Mahmud Faznaviylar tarixi aksariyat Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi Ma’sudiy» asaridagina o‘z aksini ko‘proq topganligini ta’kidlash joiz.

Shu bilan birgalikda Nizomulmulkning «Siyosatnama», Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chaxor maqola» va boshqalarda Mahmud Faznaviy va u barpo etgan davlat xususida tegishli ma’lumotlar uchraydi.

Mahmudning otasi Sabuqtegin asli Sirdaryo bo‘ylarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub bo‘lib, yoshligida asir olinib, so‘ngra qul qilib sotilgan edi. Somoniylar davlatidagi turkiy askarlar qo‘shtida xizmat qilgan Sabuqtegin 977 yildan boshlab Fazna va uning atroflarini Somoniylar noibi sifatida boshqaradi. Bu vaqtga kelib Somoniylar sulolasini inqirozga yuz tutgan bo‘lib, Sabuqtegin rasman noib bo‘lsa-da, o‘zini mustaqil hokimlardek tutardi. Shijoatkor sarkarda Sabuqtegin aynan Somoniylar amiri Nux II (976-997 y.)ning dushmanlariga qarshi kurashda yordam berib, «Nosiriddin ad-davla» (Davlat va din ximoyachisi) o‘g‘li Mahmud esa «Sayf ad-Davla» (Davlat shamshiri) degan sharafli nomlarga sazovor bo‘lishadi.

Sabuqtegining ta’siri mamlakat ichida tez orada shu qadar kuchayib ketdiki, uning qarshisida Nuh II taxtda rasman o‘tirgan, aslida zaif hukmdorga aylanib qoldi.

Nuh II ning vafotidan so‘ng Somoniylar hokimiyyat tepasiga uning o‘g‘li Mansur II ibn Nuh (997-999) keldi. Tarixchi Abulfazl Bayxaqiy «Tarixi Ma’sudiy» asarida bu xususda shunday yozadi: «Abul Xoris Mansur ibn Nux go‘zal chehrali, so‘zamol, jasur, ammo serjahl yigit edi. Hamma undan qo‘rqib-qaqshab turardi. U davlat ishini mohirona boshqara boshladи». Tez orada, Nishopur hokimi Begtuzun bilan Balx noibi Maxmud G’aznaviy orasida Nishopurga egalik xususida nizo chiqdi. Mahmud katta o‘g‘il sifatida Faznaga qonuniy voris hisoblanishiga qaramasdan, qarigan Sabuqtegin o‘limi oldidan kichik o‘g‘li Ismoilni o‘z o‘rniga tayinlaydi. 997 yili otasi vafot etgach, Ismoil hokimlik lavozimida yetti oygina o‘tirdi. Zodagon va harbiylarning qullab-quvvatlashi bilan 998 yili Mahmud G’aznaviy hokimiyyatni egalladi. Natijada, uning 30 yildan ziyod (998-1030) davom etgan uzoq va barqaror hukmronlik davri boshlandi.

Somoniylarga xizmati singan, Mansurning dushmanlariga qarshi ancha kuch sarflagan Mahmud uchun bu o‘ziga xosadolatsizlik edi. Chunki Nishopurga egalik qilishni Mahmud aynan o‘ziga tegishli deb hisoblardi. Mansur ikkala hokimni yarashtirish maqsadida Marvga yo‘l oladi. Mansur bilan Mahmudning uchrashishidan hayiqqan Begtuzun va amir Foik xiyonatkorona tarzda Mansurning ko‘zini ko‘r qilib, Buxoroga jo‘natishdi. Shundan so‘ng

Buxoro taxtiga 999 yili Mansurning ukasi Abdulmalik II egalik kiladi. Bundan g'azablangan Mahmud Xurosonga qo'shin tortadi va uni butkul Somoniylar davlatidan ajratib oldi. Oradan ko'p o'tmay Somoniylar davlati Qoraxoniylar sulolasi qo'liga o'tib, oxirgi amir ham zindonband qilinadi. Shunday voqealarga boy 999 yili Bag'dod xalifasi al-Qodirbillox Mahmud Faznaviyga «Yaminud-davla va aminul-milla» (Musulmon davlatining o'ng qo'li va millatning omonligi) degan faxriy unvon va Xuroson hokimligiga yorliq, bayroq va nog'ora yuboradi. O'z navbatida, Mahmud G'aznaviy ham Abbosiylar xalifasini rasman tan olib, uni payg'ambar avlodni sifatida qadrlaydi. Bu esa Mahmud G'aznaviy davlatining to'liq mustaqilligidan darak berar edi. 1001 yildagi Qoraxoniylar xoni Nasr Eloqxon bilan o'zaro kelishuviga binoan Amudaryo chegara sarxad qilib belgilandi. 1002 yili esa Mahmud Eronning Seyiston viloyatini qo'lga kiritadi. Ta'kidlash joizki, Seyiston musulmon olamining boshqarishi murakkab bo'lgan turli xavfli oqim va yo'nalishlar makoni edi.

Ayni paytda, sunniy musulmonlar hamda Bag'dod xalifasiga xavf tug'diradigan maskan edi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Seyistonning sobiq hukmdori Xalif ibn Ahmad taxtga da'vogar o'g'li Toxirni o'z qo'li bilan o'ldirilishini Mahmud G'aznaviy katta jinoyat, musulmonlikka xilof harakat, deb baholaydi. 1006-1008 yillarda Qoraxoni Qodirxon Mahmud G'aznaviy yo'qligidan foydalanib, Xurosonga yurish qiladi. Bunday hol ikki bor takrorlanib, Mahmud har ikkala holatda ham Qodirxon qo'shinlarini tor-mor keltiradi va Xurosondan haydab chiqaradi. 1010-1011 yillarda Fyp viloyatiga yurish qilib, uning hokimi ibn Suriyni asir oladi. Keyin G'archistonni (Marv va Hirot oralig'idagi xudud) egallab, podshoh Sharrni ham bandi qiladi. 1015 yilda esa hozirgi Afg'onistonning chekka tog'li hududi Hamovandni bosib oladi. 1002-1026 yillar mobaynida Mahmud G'aznaviy Hindistonga 17 marotaba yurish qiladi. Shubhasiz, bu yurishlarda sulton ko'plab boyliklarni qo'lga kiritadi, o'nlab shahar-kishloqlarni vayron qiladi. Birgina 1019 yilgi yurishda 350 ta fil, 57 mingta asir, behisob boyliklarni o'jja sifatida qo'lga kiritgan.

Mahmud Faznaviy Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munni (1009- 1017 y.) o'ziga kuyov qilib olib, tez orada ta'sirini Xorazmga ham o'tkazish taraddudiga tushadi. Bu vaqtga kelib, Xorazm yuksak dexqonchilik madaniyatiga erishgan, musulmon dunyosida ilm-fan markazi, yuksak salohiyatli olimlar yurti sifatida ham dong taratgan edi. Xorazm Ma'mun akademiyasida esa, o'nlab ulug' olimlar, jumladan, Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi allomalar samarali ijod qilishgan.

Avvaliga G'aznaviy elchisi, keyin Sulton Mahmudning o'zi Ma'munni siuvga olib, undan qaramlikni talab qila boshlaydi. Bir tarafdan Mahmud G'aznaviy, boshqa tarafdan atrofdagi a'yonlari hamda zodagonlar tomonidan qattiq qistovga olingan Xorazmshoh, 1017 yil bahorida saroy fitnasi qurbaniga aylanadi. Natijada, Mahmud bu voqealikni bahona qilib katta qo'shin bilan kelib, Hazorasp yonidagi jangda Xorazm qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi. Xorazmdan ko'plab boyliklar bilan birga, fan va madaniyat arboblari ham G'aznaga ko'chirib keltiriladi. Ular orasida ulug' olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi. Xorazmga esa sultonning sobiq bosh hojibi Oltintosh noib etib tayinlandi.

Qoraxoniylarning o'zaro tafovutlaridan foydalangan Mahmud G'aznaviy 1024 yili Amudaryo bo'ylariga yurish qilib Qobadiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o'z davlati tarkibiga kiritadi. XI asr tarixchisi Gardiziyy «Zaynul axbor» asarida Mahmud G'aznaviy bilan Tamg'achxon Qodir Qoraxoniyning yuzma-yuz uchrashuvi haqida hikoya

qiladi. Uchrashuv 1025 yili Samarqand janubidagi bir joyda bo‘lib o‘tadi. Shundan so‘ng Sulton Mavarounnahr ishlariga yanada ko‘proq aralasha boshladi.

Shia mazhabidagi Buvahiyalar sulolasи hukmronligiga chek qo‘ygan sulton Mahmud G’aznaviy 1029 yili Ray va Jilobni ham o‘z mulkiga qo‘shib oladi. Natijada, Mahmud G’aznaviy musulmon sharqidagi eng yirik va qudratli davlat sohibiga aylanadi. Al- batta. Mahmud G’aznaviy o‘z davrining farzandi bo‘lib, murakkab va ziddiyatli vaziyatlar, qarama-qarshiliklarga boy bo‘lmish o‘rtta asrlarda hukmdorlik qilgan. Bu hol uning barcha sa‘y-harakatlari, ichki va tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo‘lgan.

G’aznaviyarning mashhur sultoni X asr oxirlari, XI asr boshlarida O’rta Sharkda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-diniy ahvolni tahlil etishga harakat qiladi. Shu davrda musulmon olamida turli diniy oqim va mazhablar, har xil yo‘nalishlar harakati kuchayib ketdi. Ular orasida ixtiloflar, diniy ayirmachilik kayfiyatidagi karmatlar va ayniqsa, shialikning o‘ta so‘l oqimi ismoiliylik ko‘rinishida xavfli edi. Mazkur oqimlar tinch hayotga raxna solar, o‘zaro qo‘rquv va vahimani kuchaytirib, ko‘plab begunox kishilarga zarar yetkazar edi.

An’anaviy sunniy oqimiga qarshi turli diniy guruxlar ko‘proq Hindiston bilan chegaradosh chekka viloyatlarda o‘z faoliyatlarini kuchaytirib yuboradilar. Jumladan, Mo‘lton (hozirgi Pokiston hududi) hokimi Abul Futuh Dovud ibn Nasr yangi mazhabga asos solib, o‘z aholisini unga da’vat eta boshlaydi. Payg‘ambar yo‘li sunniylikning xanafiya mazhabiga sodiq bo‘lgan Sulton Mahmud G’aznaviy shu oqimlarga qarshi ayovsiz kurash olib boradi. Shubhasiz, uning Hindistonni talon-taroj qilishini bu bilan oqlab bo‘lmaydi, albatta. Ammo, sabablarni ham ko‘zdan qochirmaslik kerak. O‘z davri farzandi bo‘lmish sulton diniy fitnalarga qarshi kurashda Bag‘dod xalifasi farmonlari. Imom A’zam Abu Xanifa ko‘rsatgan yo‘l, shariat qonun-qoidalariga tayanar edi.

Misol uchun, aynan karmatlar 929 yili Makkada talonchilik uyshtirib, Kabadagi muqaddas tosh «Hajar ul Asvad»ni olib ketishadi. Tosh faqat 20 yildan keyingina joyiga qaytariladn. Abu Rayhon Beruniy «Osor ul Boqiya» asarida karmatlar boshchisi Abu Toxir Sulaymon tomonidan Makkada amalga oshirilgan g‘ayriinsoniy harakatlarni nadomat bilan ta‘kidlab o‘tadi.

Eronning Daylam viloyatida qo‘nim topgan ismoiliylar esa o‘zlaricha, nomaqbul deb hisoblangan shaxslarni jismonan yo‘q qilishar, o‘z faoliyatlarida islom dini qonun-qoidalarini taftish qilib, an’anaviylikka qarshi chiqishar, terror va daxshat uyg‘otishni asosiy qurollariga aylantirib olgan edilar. Qo‘rqib savdo karvonlari bu yerlarni chetlab o‘tar, ko‘zga ko‘ringan arboblar, ulamo va boshqa shaxslar o‘z jonlari uchun qattiq qayg‘urishar edi. Chunki, ismoiliy josuslari kutilmagan fitnalar bilan ularni «ovlash»ni keng yo‘lga qo‘yishgan edi. Bag‘donna yuz yildan ziyod siyosiy hukmronlikni qo‘lga olgan Buvahiyalar (945-1055) xalifalikning diniy-ma’naviy hayotiga katta talofat yetkazganlar. Bag‘dod shahrini zabt etgan Buvahiyalar hukmdori Muizziddavla (945-967) masjid devorlariga choryorlarni haqoratlovchi shiorlar yozdirishga buyruq berib, turli mazzablarini bir-biriga qarshi qo‘yadi. Bu fikr-mulohazalarga ko‘ra shuni aytish mumkinki, musulmon xalqlari hayot va faoliyatida ma’naviyat va tinch-totuv hayot kechirishiga karmatchilik, ismoiliylik va boshqalar katta xavf tug‘dirar, shu bois ham Sulton Mahmud G’aznaviy ularga qarshi kurashishni o‘zining bosh g‘oyasiga aylantirgan edi. Rayning buvaxiy hukmdori Majdud-davla Rustam (997-1029) yoshligi sababli davlat ishlarini uning onasi malika Sayida olib

borgan. U bilan bo‘lgan yozishmalardan so‘ng Mahmud ayol hukmdor ustiga yurish qilishni o‘ziga ep ko‘rmadi. Sayyida hayotlik chog‘ida biron marotaba ham Rayga tazyiq o‘tkazilmagan. Tarixchi ibn al-Asir bergan ma’lumotiga ko‘ra, onasi vafot etgan, Rustam ismoiliylardan ko‘p aziyat chekadi. Natijada, o‘zi *Sulton Mahmuddan yordam so‘rab, murojaat qildi. 1029 yil Ray egallangach*. Sulton qo‘lga kiritilgan uljaning katta qismini Bag‘dod xalifasiga jo‘natadi va bu boylik asosan qurilish - obodonchilnk ishlariga yo‘naltiriladi. Bu xususda mashhur tarixchi Abulfazl Bayxaqiy, ibn al-Asir, Gardiziyy va boshqalar turli ma’lumotlarni yozib qoldirishgan. Mahmud Faznaviy Hindiston va boshqa yurtlardan olib kelingan o‘ljalarni ko‘p hollarda obodonchilik hamda qurilish ishlariga sarflagan. Jumladan, u G‘aznada ilk davlat madrasasi, mashhur jom’e masjidi, ulkan suv ‘gugoni va yana necha-necha inshootlar barpo ettiradi. G‘azna tez orada Sharqning eng go‘zal va obod shaharlaridan biriga aylanadi. Beruniy G‘azna haqida gapirganda, bu shaharda hashamatli saroylar. Madrasa va bozorlar ko‘pligini qayd etadi.

Sulton Balx va Nishopurda ham bir qancha qurilishlarni amalga oshirgan. Shuningdek, Sulton ilm-fan madaniyat arboblariga ham homiylik qilgan. Beruniyning eng sara asarlari G‘aznada dunyoga kelgan. U Sulton bilan ko‘pgina yurishlarda ishtirok etgan. XI asr muallifi Aruziy Samarkandiy «Chahor maqola» asarida Beruniy bilan Sulton o‘rtasida ancha iliq munosabat bo‘lganligini ta’kidlaydi. Abulfazl Bayhaqiyning mashhur «Tarixiy Ma’sudiy»sida, garchi Sulton bilan Beruniyning munosabatlari hamisha ham silliq kechmaganligi qayd etilsa-da, lekin Sultonning buyuk olimga xayrihoxlik bilan qaraganini e’tirof etadi. Beruniy Mahmud Faznaviy vafotidan (1030) keyin ham G‘aznada to umrining oxirigacha, 1048 yilga qadar yashab qoladi. U G‘aznada rasadxona ochib, shogirdlariga dars, beradi, unumli ijod qiladi. Mahmud G‘aznaviy otasi Sabuqtegin yozib qoldirgan, «Ma’naviy ulug‘vorlik bamisol alanga va shamol. Bularning harakat va parvoz xususiyati bor. Maishat esa, qiya yerdagi qum uyumiga o‘xhash uning tubanlikka surilish xosiyati bor», degan nasixatiga ko‘ra, ilm-fan soxasiga ham katta e’tibor bilan qaragan.

Shunisi diqqatga sazovorki, Sulton 1019 yili musulmon olamida ilk davlat madrasasini ochib, unga noyob qo‘lyozmalarni to‘platgan.

Aslida Abul Qosim ismli fors shoiriga Firdavsiy taxallusini bergan ham Mahmud G‘aznaviy hisoblanadi. Sulton avval Firdavsiyga ijobiy munosabatda bo‘lgan. Lekin, shoir ijodi uchun munosib haq olmaganligini rukach qilib, berilgan 60 000 kumush dirxamni bir necha kishiga bo‘lib tarqatishi orqali hurmatsizlik ko‘rsatgach, Sulton bundan qattiq g‘azablanadi va uni o‘limga hukm qiladi. Ammo Firdavsiyning tavba-tazzarusidan keyin ko‘ngli yumshab, hukmni bekor qiladi va shahardan chiqib ketishni buyuradi. Shoir Tusga yo‘l oladi. Saldan keyin Sultonni hajv tig‘iga olgan baytlar yoza boshlaydi. Bu esa, Mahmud G‘aznaviy nomining keyinchalik ham Firdavsiy ijodida salbiy ohangda tilga olinishiga zamin hozirlaydi. Umuman olganda, boshqa forsiyzabon shoirlar masalan, Abulxasan Farruxiy, Abdulmajid Sanoiy va boshqalar Sulton saroyida samarali ijod qilganlar.

Mahmud G‘aznaviy buyuk olim Abu Ali ibn Sinoning ham o‘z saroyida xizmat qilishini hoxlagan. O‘z vaqtida Xorazmshoh Ma’mundan esa boshqa olimlar qatorida uni G‘aznaga yuborishini talab qilgan. Shu bois, Gurganjga Ibn Ali Mikol boshliq elchilarni ham maxsus jo‘natgan edi. Lekin, Masixiy va Ibn Sino Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyida xizmat qilishni istamay, Xorazmdan qochishga qaror qilishadi. Maxmud Gaznaviy ibn

Sinoni uz saroyiga jalb etishga ko‘p urindi, hatto uning siy whole 40 nusxada ko‘chirtirib, qanday qilib bo‘lmasin, uni topib keltirishga farmon beradi. Ta’kidlash joiz-ki, Ibn Sino va Sulton orasidagi munosabatlar chigal xususiyatga eta bo‘lib, hali yechimini kutayotgan masalalar qatoriga kiradi.

Sulton Mahmud G’aznaviy davlatning ustuni edi. Uning vafotidan so‘ng o‘g‘li Ma’sud (1030-1041 y.) shuxrat pog‘onasini Saljuqiylargaga topshirishga majbur bo‘ldi. Sulton Mavdudning (1041-1050 yy.) G’aznaviylar shuxratini qaytarish uchun sa’y- harakatlari deyarli besamar tugadi. Tez orada G’aznaviylar davlati qo‘li ostida Sharqiy Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonning bir qismi qoldi, xolos. G’uriylar hukmdori G’iyosidsin Muhammad 1186 yili oxirgi sulton Xisrav Malikni Panjobda o‘ldirib, butkul G’aznaviylar sulolasiga xotima beradi.

G’aznaviylar O’rta Sharq hududida yagona geosiyosiy maydonni birlashtirishga muvaffak buldilar, shuningdek ular xukmronligi davrida ma’naviy hayotga tazyiq soluvchi kuchlarga nisbatan chek qo‘yildi, ilm-fan, adabiyot, shaharsozlik qurilishida ma’lum taraqqiyot yuz berdi.

Mahmud G’aznaviy X asrnnnng bиринчи choragida musulmon sharqi siyosat maydonida katta o‘rin tutgan buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirdi. Har bir tarixiy shaxs kabi uning faoliyati ham ziddiyatli va qarama- qarshiliklardan holi bo‘lmagan. Ayniqsa, bu hol uning butun hukmronlik davrining asosiy mohiyatini tashkil etgan. Ushbu maqolada mazkur davlat arbobi shaxsi va davriga baholi qudrat nazar soldik, xolos. O’ylaymizki, bu haqda hali ko‘plab munozra- ra, fikr-mulohazalar davom etib, sharqshunos olimlarimiz yanada ko‘plab izlanishlar olib borib, tarixiy o‘tmishimiz xususida tegili tadqiqotlarni amalga oshiradilar.

5-6-mavzular: O’zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuvlar va talqinlar

Reja:

1. Turkistondagi istiqlolchilik harakati tarixiga oid tadqiqotlar
2. Sovet davri tarixining tarixshunosligi

O’zbekistan Respublikasi mustaqillikka erishgach, Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat tarixini ilmiy jihatdan xolisona o‘rganish uchun ob‘ektiv sharoit yuzaga keldi. Yigirma yildan ortiq muddat ichida mazkur muammoni tadqiq qilishda katta yutuqlarga erishildi.

Turkiston mintaqasida 1918-1924 yillarda sovet tuzumiga qarshi olib borilgan istiqlolchilik harakati tarixini yaxlit ravishda tadqiq etish va o‘rganish uchun so‘nggi yillarda muhim izlanishlar amalga oshirildi.

Ushbu tarixni qayta tiklash, to‘g‘rirog‘i, qanday bo‘lsa, shunday yoritish, tanqidiy tahlil, ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan keng ko‘lamdagisi yangi manbalar hisobiga boyitilgan hujjatlar asosida ko‘rsatib berilgan ma’lumotlar majmuini tasniflash va umumlashtirish, O’zbekiston va chet ellardagi tarixshunoslikka oid merosning istiqbolli yo‘nalishlarini nazarda tutishga imkon beradigan ilmiy-tarixiy fikrlarni o‘rganish va idrok etish, shuningdek, amalda ko‘rib chiqilmagan yoki hozirgi davr nuktai nazaridan qayta baholashni talab qilayotgan qator masalalarini ochib berishga asoslanadi.

Mustaqillik yillarda Turkiston, Xorazm, Buxoro respublikalaridagi mintaqaviy qurolli harakatlar, ularning butun Turkiston hududidagi ozodlik harakati rivojiga qo'shgan hissasi O'zbekiston tarixi fanida birinchi marta har tomonlama keng va chuqur o'rghanildi. Xususan, bu harakatlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanishi; harakatlantiruvchi kuchlarning etnik va ijtimoiy tarkibi; siyosiy, tashkiliy, harbiy shakli va tuzilishi; rahbarlari va mafkurachilari; qurolli harakatlarning mintaqadagi va umuman o'lkadagi siyosiy jarayonlarga ta'siri; xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari; mag'lubiyatga uchrash sabablari kabilar bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Mintaqaviy harakatlarning ushbu jihatlarini o'rghanish asosida mazkur maqolada ularning umumiyligi va o'ziga xos ko'rinishlari, butun Turkiston hududidagi ozodlik harakatidagi markazdan qochish va markazga intilish an'analarining o'zaro aloqalari xususidagi yangi nazariy fikrlar va xulosalar ilgari surilgan.

Mintaqaviy harakatlarning vujudga kelishi va avj olishining sabab-oqibatlari, mafkuraviy, siyosiy jihatlardan o'xshashligi, bu — shubhasiz hol. Aynan sovet tuzumining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy strategiya va taktikasining oqibatlari bu mintaqalarning har birida uzoq yillar davomida butun Turkiston mintaqasi siyosiy sahnasini harakatga keltiruvchi omillardan biri bo'lgan qurolli qarshilikning kelib chiqishiga sabab bo'lgan keskin vaziyatni yaratdi. O'lka aholisining barcha ijtimoiy qatlarni qamrab olgan mustamlakachilikka qarshi kayfiyati sovet tuzumiga qarshi qurolli kurashning umumxalq va ommaviy xarakgerga ega bo'lishini ta'minladi va turkistonliklarning ozodlik hamda mustaqillik uchun olib borgan ko'p asrlik milliy ozodlik harakatlaridagi o'ziga xos o'rmini belgilab berdi.

Turkiston o'lkasidagi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, tarixiy-madaniy rivojlanish, diniy omillar, avvalgi davrlarning g'oyaviy merosi, milliy o'z-o'zini anglashning an'anaviy shakllari, diniy islohotchilik ta'limoti, jadidchilikning liberal-ma'rifatparvarlik g'oyalari ta'sirida shakllangan yaxlit mafkura va turli konsepsiyanining murakkab zanjiri barcha mintaqalar uchun umumiyligi bo'lib, u o'zining milliy mustaqillik, milliy davlatchilikni qayta tiklash haqidagi yetakchi g'oyalari bilan birga, millatchilik mafkurasini tashkil etgan. Bu g'oyalarni amalga oshirish maqsadida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati, Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati, buxorolik qo'zg'olonchilarning Buxoroda monarxiyani qayta tiklashga intilganlari kabi tajribalar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ularning natijalariga ko'ra, bu tajribalar monarxiyaga asoslangan boshqaruv shaklini tiklash, islom respublikasini o'rnatishdan tortib, demokratik davlat qurishgacha bo'lgan o'zaro qarama-qarshi intilishlarni o'zida ifodalagan bo'lishiga qaramay, ularning barchasi mustaqillikni qo'lga kiritish, o'z milliy davlatchiligini qayta tiklashdan iborat yagona maqsadni ko'zda tutar edi.

Bu umumiylilik mintaqaviy harakatlarda qo'llaniladigan terminlarda ham namoyon bo'ldi: harakat qatnashchilari va rahbarlarining o'z-o'zlariga bergan nomlari, qo'zg'olonchilar qo'shinlari jangovar bo'linmalarining nomlanishi va boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilishi (qo'rboshilar qurultoylari va boshqalar). Terminlarning bir xilligi madaniy-tsivilizatsion merosning, xalq harbiy an'analarining mushtarakligi bilan belgilanadi.

Umuman olganda, maqsadlar, ijtimoiy negizlar, mafkuralar, tashkiliy tuzilmalarning umumiyligi mintaqaviy harakatlarni yagona-butun Turkiston mintaqasi miqyosidagi ozodlik

harakati atrofiga birlashtirish uchun ob'ektiv shart-sharoit mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Tadqiqot jarayonida ma'lum bo'lishicha, barcha mintaqaviy harakatlar namoyandalari ishtirokida butun Turkiston qurultoyini chaqirish orqali ba'zi qo'rboshilar va sarkardalar (Madaminbek, Anvar Posho) qo'zg'olonchilarning barcha jangovar bo'linmalarini yagona qo'mondonlik ostiga birlashtirishga uringanlar. Validiy tomonidan tashkil etilgan «Turkiston milliy birligi» maxfiy tashkiloti, jadidlarning «Milliy Ittihod» tashkiloti a'zolari, turkistonliklarning umumturkiston ittifoqi yo'lidagi tabiiy intilishlarining ifodachilari sifatida ongli ravishda bu kurashga qo'shilgan o'lka ulamolarining faoliyatidagi bosh masala xalqning birlashuvi edi. Lekin ko'ngillilar qo'shinining ularning turar joyiga ko'ra qarindosh-urug'chilik munosabatlari prinsipi asosida shakllanishi, xalq lashkarining kichik guruhlarga bo'linib ketganligi, tarqoq xarakterdaligidan kelib chiqqan mahallyi manfaatlarning ustuvorligi ba'zida nafaqat butun Turkiston hududi miqyosida, balki ayrim mintaqaviy darajada birlashish yo'lida ham yengib bo'lmas to'siqlarga aylandi. Bunga yana turli martaba va darajadagi ba'zi rahbarlarning kaltabinligini ham qo'shsak, masala butun mohiyati bilan oydinlashadi.

Shunday qilib, harakatning alohida olingen bosqichlarida markazdan qochish va markazga intilish tamoyillarining o'zaro hamkorligi ko'zga tashlansada, yalpi olganda, ular ko'pincha bir-birlariga qarshi kurashganlar. Bu barcha mintaqalardagi qo'zg'olonchilar saflarida ajralib chiqishga intilish tamoyilining ustunligida namoyon bo'ladiki, xuddi shu noxush hodisa Turkiston o'lkasidagi qurolli harakatning mag'lubiyatiga olib kelgan sabablardan biri hisoblanadi.

Turkiston mintaqasida 1918-1924 yillarda yuz bergan sovet rejimiga qarshi qurolli harakat tarixining ko'p yillik tadqiqi quyidagi fikrlarga asos bo'ldi:

- Turkistondagi istiqlolchilik harakati o'zining tarixiy ildizlari va sarchashmasiga ega mintaqqa xalqlarining muazzam bir kurashi sifatida maydonga chiqdi;

-sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning g'oyaviy-siyosiy ildizlariga islohotchilik va ozodlik g'oyalari kiradiki, aynan bu g'oyalari o'z paytida jadidchilik harakatining vujudga kelishi va rivojlanishida ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan edi;

- qurolli harakatdagi mustaqil davlatchilik g'oyalarda islom jumhuriyati barpo qilishdan to demokratik davlat qurishgacha bo'lgan intilishlar mavjud edi va unda uch muhim holat alohida ajralib turadi:

a) turkiy xalqlar birligi (birlashishi) - Turkiston mus-takilligi uchun kurash, yagona va bo'linmas Turkiston tuzishga qaratilgan harakatlar;

b) islomiy qarashlar - Turkiston musulmonlarining islom davlati — mustaqil islom jumhuriyatini tuzish (Katta Ergash, Shermuhammadbek, Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.).

v) demokratik qarashlar — Turkiston mintaqasida demokratik dunyoviy davlat qurish; respublika tuzumini o'rnatish (Madaminbek va b.);

qo'rboshilar qurultoylari va qo'shin boshqaruvi harbiy amaliyotlarni olib borish va dushmanqa qarshi kurashda muhim rol o'ynagan;

Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati o'z jo'g'rofiy doirasiga ko'ra uch hududga: Turkiston ASSR (asosan Farg'onha vodiysi va Samarqand viloyati), BXSR va XXSR hududlariga bo'lingan. U keyinchalik O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston SSR, Kirg'iziston ASSR, Qozog'iston ASSR da ham davom etdi;

— qurolli muxolifat harakati o‘z rivojlanish jarayoniga, shuningdek, janglar strategiyasi va taktikasiga ko‘ra ikki yirik davrni bosib o‘tdi:

- a) 1 -davr: 1918-1924 yillar;
- b) 2-davr: 1925-1935 yillar;

- har bir davr harakat qatnashchilarining miqdori, qo‘rboshilar, kurash taktikasi va janglar amaliyotiga ko‘ra, shuningdek, alohida xususiyatlari bilan bir-biridan o‘zaro farqlanuvchn mustaqil bir nechta bosqichlarga ham bo‘linadi.

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan yaqqol tanazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. Sobiq partiyaning bu boradagi harakatlari qulab borayotgan imperiyani saqlab qolishga qodir emas edi. «Qayta qurish» siyosati barbod bo‘lishi, ma’muriy - buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiyl manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo‘ygan, yagona partiyaning to‘la hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatgan edi. Bu vaqtda tarkibida 15 ta ittifoqdosh respublika bo‘lgan, jami 270 mln. aholi istiqomat qilgan butun sovetlar mamlakatdagi respublikalar, xususan, O’zbekiston ijtimoiy - iqtisodiy hayoti juda og‘ir ahvolda, xususan, sanoatning biryoqlama rivojlanib, «paxta» sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og‘irlashib, onalar va bolalar o‘limining oshib ketishi, suv, havo ifloslanishi holati o‘ta darajada og‘irlashib borishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib ketishi, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta’qib ostida qolishi kabilalar respublikani tang ahvolga solib qo‘ygan edi. Ayni paytda O’zbekiston respublikasi davlat siyosatining barcha jabhalarida O’zbekistonda istiqomat qilayotgan xalqlar va ularning manfaatlari bilan bog‘lik masalalar birinchi navbatda turar edi.

Yuzaga kelgan bunday holatdan kelib chiqib, tinch hayotni ta’minalash uchun davlatni boshqara oladigan, bo‘lib o‘tgan va o‘tayotgan iqtisodiy, siyosiy jarayonlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, millat ravnaqi yo‘li asoslarini boshlab bera oladigan rahbar respublika uchun juda zarur edi. 1989 yil O’zbekistonning rahbari sifatida ish boshlagan I.A.Karimov «O’zbekiston yetakchisi sifatida uzoq vaqtlar davomida yechilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, o‘tkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochib tashladi, mavjud ayanchli ahvolni tuzatish bo‘yicha Markaz rahbariyati oldiga qatiy talablarni prinsipial tarzda qayta-qayta qo‘yishdan cho‘chimadi».

I.A. Karimov o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridan respublikadagi ahvolni yaxshilashga e’tiborini qaratadi. 1989 yil sentyabrda KPSS MQ ning navbatdagi plenumi bo‘lib o‘tadi, unda Islom Karimov O’zbekistonning yangi rahbari sifatida Farg‘ona voqealari, «paxta ishi» oqibatlariga baho berar ekan, busiz ham respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy axvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. U o‘z ma’ruzasida O’zbekistondagi vaziyatni beqaror qilayotgan ahvol qatoriga asosiy masalalar, jumladan, aholini ish bilan ta’minalash masalasini ko‘tarib, respublikada ishlab chiqarishda band bo‘lmagan bir millionga yaqin aholi borligi, aholining o‘sish sur’atlari yuqoriligi, shu bois IJTIMOIY mehnat unumдорлиги pasayib, aholi daromadi kamligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, xalq xo‘jaligining biryoqlama rivojlanayotgani, ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi nuqsonlar ahvolni chigallashtirayotgani, xalqning yashashi uchun zarur bo‘ladigan uy-joy, maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat, savdo,

maishiy xizmat sohalarida kuchli oqsash mavjudligi, ekologik ahvolning og‘irligi, Orol fojeasi, go‘daklarning nobud bo‘lishi, aholining kasallanishi darajasining balandligi masalalari birma-bir ko‘rsatib o‘tiladi.

Biroq markaz respublikalar milliy manfaatlarini o‘ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar markazning qanchalik e’tiboridan chetda qolgan bo‘lsa, endilikda uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtida bu hol markazni umuman qiziqtirmas edi. Mana shu vaqtida respublika rahbarining haqiqiy millat lideri sifatidagi o‘rni yaqqol namoyon bo‘lgan edi. 1989 yil 19 avgustda O’zbekiston KP MQ ning plenumi bo‘lib o‘tadi. Unda ijtimoiy- iqtisodiy holatlar alohida ta’kidlanib, aholi turmush tarzini oshirish maqsadida O’zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar kun tartibiga qo‘yiladi. Plenumda yakka tartibdagi yordamchi xo‘jaliklarda, uy-joy qurilishini rivojlantirish, aholiga ajratilgan tomorqalarni kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan qator yangi vazifalarni birinchi o‘rinda hal etilishi lozimligi asoslab berildi. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligida:

- oziq-ovqat dasturini bajarish uchun shaxsiy xo‘jaliklar sonini, ularga ajratiladigan yerlar miqdorini ko‘paytirish;
- uy-joy tanqisligini hal etish, kishilarga uy-joy qurish uchun kerakli qurilish materiallarini yetkazib berishni tashkil etish;
- ishsizlik muammosini hal etish uchun xo‘jaliklarda g‘isht pishiradigan, duradgorlik va boshqa mahsulotlarni tayyorlaydigan korxonalar qurish;
- ayollarning ish bilan bandligini ta’minalash;
- ijtimoiy-siyosiy barqarorlik masalalarini hal etish, yoshlarni ish bilan ta’minalashni tezlashtirish¹ kabi vazifalar belgilab olinadi.

Garchi, O’zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lib, respublikani milliy ravnaqi va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi qiyin bo‘lsada, yangi rahbariyat O’zbekiston kelajagini belgilaydigan asosiy omillar, xususan, iqtisodiyotni ko‘tarish, ijtimoiy hayotni yangidan izga solish, madaniy-ma’naviy hayotni yuksaltirish, tarixiy haqiqat, ta’qib ostida bo‘lib kelgan urf-odat, an’analarni qayta tiklash kabilarga yetarli darajada e’tiborni qaratish bilan vaziyatni izga solish mumkinligini anglab yetgan edi.

Bular quyidagilarda ko‘rinar edi:

Birinchidan, 1980-yillar oxiriga kelib O’zbekiston iqtisodining bir tomonlama, zaif rivojlanishi oqibatlari ijtimoiy-iqtisodiy ahvolda yaqqol namoyon bo‘lib, ularni izga solish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilab, amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqish muhim edi. Bu masala O’zbekistonning yangi rahbari I.Karimov tomonidan ko‘tarildi. Ushbu tadbirlar, avvalo, respublikada oziq-ovqat dasturini bajarish uchun shaxsiy xo‘jaliklar sonini, ularga ajritiladigan yerlar miqdorini ko‘paytirish, uy-joy tanqisligini hal etish, kishilarga uy-joy qurish uchun kerakli materiallarni yetkazib berishni tashkil etish, ishsizlik muammosini hal etish uchun xo‘jaliklarda g‘isht pishiradigan, duradgorlik va boshqa mahsulotlarni tayyorlaydigan korxonalar qurish, ayollarning ish bilan bandligini ta’minalash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik masalalarini hal etish, yoshlarni ish bilan ta’minalashni tezlashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish ko‘rsatib o‘tilgan edi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida O’zbekiston rahbari «ijtimoiy va iqtisodiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O’zbekistonning mavqeい va o‘rnini o‘zgartirishning

muqobil yo'llari e'tiborga olinmaganligini» aloxida kursatib utgan edi.

Natijada O'zbekistonning yangi rahbariyati respublikada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuldan chiqish choralarini markazdan holi bo'lgan holda amalga oshirishga kirishdi. 1989 yil 15 avgustda qishloq mehnatkashlari uchun uy va yer ajratib berish haqida qaror qabul qilindi. Mazkur qaror qabul qilinganidan so'ng o'tgan bir yil mobaynida 60 mingdan ziyod oilaga yer uchastkalari ajratib berildi. Respublikada mavjud bo'lgan tomorqalar butun ekin maydonlarining 5 foizini tashkil etgan holda, jami 200 ming hektar yerni tashkil etdi. Ayni paytda bu yerlarning har gektaridan 12 ming so'mdan ko'proq daromad olindi. 1990 yil 1 noyabrga kelib qishloqda yashovchi 2.220.129 oiladan 1.327.149 oila yangi tomorqa uchastkalari olish va mavjudlarni kengaytirishga muhtoj bo'lgan holda ularning 394.098 nafar oilasi yangi yer uchastkalari olishdi. Ularga foydalanishlari uchun 55.036 hektar yer ajratib berildi. O'z uchastkalarini kengaytirishga muhtoj bo'lgan 933.164 oiladan hammasining talabi qondirildi. Ularga qo'shimcha ravishda 101.117 hektar yer ajratildi.

Natijada, qishloq mehnatkashlarining davlat tomonidan oлган yerlari 156.153 hektarga yetdi. Bundan tashqari, bu qaror bajarib bo'lingandan so'ng yangi oilalarga ham maydoni 11.009 hektar bo'lgan 87.515 ta tomorqa uchastkasi ajratib berildi. Mazkur tashkil topgan xo'jaliklarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish maqsadida davlat 1990 yilda 765.862 ta shartnomaga tuzdi. Yer uchastkalari yiriklashtirilgan holda dehqon shaxsiy yordamchi xo'jalikda yetishtirilgan mahsulotining oilasidan ortgan qismini bozorga chiqarish imkoniga ham ega bo'ldi. Natijada, mayda tovar ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshlandi. Bunday yordamchi xo'jaliklar bozor munosabatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga muayyan hissa qo'sha boshladilar.

Tabiiyki, bunday yo'l xomashyo manbaiga aylanib qolgan respublika uchun og'ir bo'lsa-da, O'zbekiston shu yillari RSFSR ning ayrim hududlari, ittifoqdosh respublikalari bilan ham mustaqil iqtisodiy aloqalar o'rnatdi. Ayni paytda Respublika Davlat reja qo'mitasi, Moliya vazirligi, ilmiy - tadqiqot institutlari va Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi bilan hamkorlikda «O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini» tayyorlashga kirishildi. 1990 yilda «O'zbekiston xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari va bozor iqtisodiyotiga o'tishning qoidalari» loyihasi e'lon qilindi va 17 oktyabrda umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Budgetni shakllantirish maqsadida «O'zbekiston SSR budgetini shakllantirish prinsiplari» haqidagi deklaratsiya respublikaning hamma daromadlariga o'zi egalik qilish huquqini berdi. Tadqiq etilayotgan yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning samarali amal qilinishi va xalq farovonligini o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat berildi. Natijada mol - mulkni saqlash va ko'paytirib borish uchun barcha zaruriy shart - sharoitlar yaratib berildi. Qisqa vaqt ichida QQASSR va ma'muriy - hududiy tuzilmalar mahalliy bo'ysunuvidagi mulklardan tashqari bo'lgan ishlab chiqarish sohalari respublikaga bo'ysunadigan bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu harakatlar xalq xo'jaligini barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish orqali vujudga kelgan murakkab ahvoldan qutulishning amaliy yo'li edi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda sobiq sovet davlati hukmronlik qilgan yillari zo'rlik bilan ko'chirilgan, o'sha vaqtarda kam sonli hisoblangan xalqlar milliy manfaatlarini himoya qilib, ona vatanlariga ko'chib ketish harakatlarini boshlagan edilar. Misol uchun, «Qayta

qurish» e'lon qilinganidan beri o'tgan vaqt mobaynida qrim-tatarlarining vatanlariga ko'chib ketishi uchun markazga yozgan arznomalari 250 jildni tashkil etdi, mesxeti - turklari ham vatanlariga qaytish uchun chora - tadbirlarni ko'ra boshlagan edilar.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, tili va dini, madaniyati tutash bo'lgan o'zbeklar bilan mesxeti turklari, yelkadosh bo'lib dalalarda mehnat qildilar, bir-birlariga hamdard, qon - qarindosh, quda-anda bo'lib, ahil bo'lib yashadilar. Bag'rikeng va mehmondo'st o'zbek xalqi boshqa xalqlar kabi ularni ham quvvatlab keldi. Yarim asrga yaqin vaqt davomida millatlararo munosabatlar borasida biror marta oddiy ixtiloflar chiqmadi. 1989 yil Farg'ona vodiysida Farg'ona fojealari avj olgan pallada ham aksariyat o'zbek xonardonlari ko'plab mesxeti turklari oilalarini o'z uylarida, kasalxonalardagi xamshiralar esa qayerga qochib borishni bilmay turgan turklarni yerto'la va boshqa joylarga yashirdilar. Qishloq aholisi to'polonlar kuchaygan kunlari jabrlangan mesxeti turklarga tegishli bo'lgan qoramollarni to'plab, ular kimga tegishli ekanini aniqlab, vaqtincha boqish uchun kolxozi molxonalariga topshirdilar.

1989 yil 24 iyunda O'zbekistonning Islom Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyati saylandi. Shu vaqtdan boshlab Farg'ona vodiysida mesxeti-turklari va o'zbeklar o'rtasida turli ig'veolar va bo'htonlar natijasida boshlangan mojarolarga extiyotkorona va bosiqlik bilan qarash boshlandi. Islom Karimov O'zbekistonning yangi rahbari sifatidagi ish faoliyatining birinchi kunidan Farg'ona vodiysida sodir bo'lgan voqealarga bosiqlik bilan yondoshib, mojarolar ildizini bilib, uning kuchayib ketishining oldini olish choralarini belgilagan holda siyosat yuritdi.

Mojarolar tufayli zarar ko'rganlarga, xususan turklarga oziq - ovqat bilan ta'minlash uchun savdoga chiqariladigan zaxira hisobidan 15 tonna go'sht, davlatga reja bo'yicha topshiriladigan mahsulotlar hisobidan qo'shimcha yana 26 tonna go'sht ajratildi. Jabrlanganlarga yordam berish uchun har kishi boshiga 300 rubldan, jami 5 mln. rubl moddiy yordam puli ajratildi. Qo'shimcha tarzda yana O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining zahiradagi mablag'idan katta yoshdag'i har bir kishiga kuniga

- 1 rub. 20 kop., bolalarga - 1 rub. 60 kop.dan pul ajratildi. Tibbiy xizmat ko'rsatish yuzasidan Farg'ona viloyati ijroiya qo'mitasi zonaning o'zida 240 o'rinli statsionar, bir sutkada 150 kishini qabul qila oladigan poliklinika ochildi. Vayron bo'lgan uylarni ta'mirlash uchun esa kerak bo'ladigan qurilish materiallarini yetkazish, mesxeti turklariga yetkazilgan zararlar miqdorini belgilash va qoplash kabi vazifalari belgilanib, zarar ko'rgan shaxslarning uy-joylari, mol-qo'ylari sug'urta qilinmagan bo'lsa, yolg'iz fuqarolarga 1200 rubl, ikki kishidan iborat oilalarga 2000 rubl, oilaning boshqa a'zolariga 500 rubldan pul to'lash belgilandti. Ko'chib ketganlarning uy-joylari mahalliy hokimiyatlar nazorati ostida qoldirildi. Viloyat ijroiya qo'mitasining farmoni bilan ko'chib ketayotgan mesxeti turklarning uy-joylarini ta'mirlab, avvalgi holatiga keltirib, uy egalari bergen ishonch qog'ozlariga binoan sotish lozimligi ko'rsatildi.

Farg'ona voqealari asoratlari tugatilishi bilan birga O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida milliy madaniy markazlar tuzila boshlandi. Bu markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston SSR Madaniyat ishlari vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi va ularning soni 1989 yilda 12 taga yetdi. Ushbu markaz uchun milliy madaniy markazlar faoliyatiga rahbarlik qilish, turli millatlarning urf-odat, diniy

qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishda ko‘mak berish asosiy vazifa qilib belgilandi. O’sha yillari butun mamlakatda bo‘lganidek, milliy madaniy markazlar faoliyatida ko‘p narsalar birinchi marotaba sodir bo‘ldi.

Bunday markazlar, xususan, polyak milliy madaniy markazi «Svetlitsa Polska», koreys milliy-madaniy markazi «Vozrojdeniye» (Tiklanish), ozarbayjon milliy madaniy markazi «Gardashluk» (Do‘stlik), nemis milliy-madaniy markazi «Vidergeburt» (Tiklanish, Wiedergeburt), kabilar respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xalqlar o‘rtasida do‘stlik, qardoshlikni mustahkamlashda sharaflı xizmatni o‘tadi. Masalan, tadqiqotchi D. Inoyatovaning ta’kidlashicha, O’zbekistonda «Wiedergeburt» nomli nemis milliy-madaniy markazi 1989 yildan boshlab O’zbekistonda istiqomat qiladigan nemis xalqi milliy manfaatlarini himoya qilib, o‘sib kelayotgan nemis yoshlariga nemis tili, xalq bayramlari, xalq qo‘shiq va raqslarini o‘rgatishdan boshlaydi. Birinchilardan bo‘lib Rojdestvo - «Weihnachten» bayramini tiklaydi. 1990 yilda Toshkentda nemis Yevangelist - Lyuteran cherkovi tiklanadi. 1993 yilda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning farmoyishi bilan Yevangelist-Lyuteran cherkovi O’zbekistonda istiqomat qilayotgan nemis xalqiga topshiriladi. 1992 yildan esa «Wiedergeburt» nomi bilan rasmiy ro‘yxatga olinib, butun respublika xususan, O’zbekistonning Toshkent, Farg‘ona, Samarcand, Buxoro va boshqa shaharlaridagi nemis milliy-madaniy markazlarini boshqara boshlaydi.

1989 yil O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi 1989—1990 o‘quv yildan boshlab umumta’lim o‘rta maktablarida tojik, qozoq, turkman va kirg‘iz tilida o‘qitish darajasini kengaytirish, respublika oliy o‘quv yurtlarida qozoq, tojik, qirg‘iz tillarida o‘qitish bo‘limlari va ularni darslik hamda o‘quv ko‘rgazmalari bilan qurollantirish vazifasini ham belgiladi. Shu yillari O’zbekistonda yashayotgan turli millat va elatlarning madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma’lum chora - tadbirlar belgilandi. O’zbekistonda 259 ta maktabda tojik tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg‘iz tilida, 12 ta maktabda grek tilida hamda 7 ta sinfda koreys tilida ta’lim berish yo‘lga qo‘yildi. Samarcand, Nukus Universitetlari, Toshkent va Samarcanddagi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayoni o‘zbek tili bilan birgalikda tojik, qozoq, qrim-tatar tillarida olib borildi. Samarcand, Buxoro, Farg‘ona, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlarida har haftada tojik tilida radioeshittirishlar uyushtirildi.

O’zbekiston SSR Yozuvchilar Soyuzida tojik, qrim tatar, Buxoro yahudiyları, uyg‘ur va koreys adabiyotları bo‘limlari tuzildi. 9 ta rayon gazetasi tojik tilida, 5 ta rayon gazetasi qozoq tilida nashr qilina boshlandi. 1989 yilda Fofur Fulom nomli nashriyotda rus tilida 27 ta nomda badiiy adabiyot chiqarilib, adadi salkam 2 mln. nusxani tashkil etdi. O’zbekiston rahbariyati bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi munosabati bilan ijtimoiy himoya masalalariga asosiy e’tiborni qaratdi. SSSR da ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqa 1944 yilda qabul qilingan qaror asosida to‘lanar, bu bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida, ayni paytda inqirozga uchragan tuzumdan qolgan qiyin iqtisodiy ahvolda mutlaqo talabga javob bermas edi. Shu maqsadda O’zbekiston SSR Oliy Soveti va Ministrler Soveti «Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish yuzasidan qo‘srimcha tadbirlar belgilash to‘g‘risi»da qaror qabul qildi. Unga ko‘ra, respublikada mablag‘i hisobidan to‘liq bo‘limgan mehnat stajiga ega bo‘limgan kishilarga, halok bo‘lgan jangchilarning oilalariga to‘lanadigan nafaqlar 2 baravarga oshirildi.

Uchinchidan, sobiq sovet davlatining «qayta qurish» ni e’lon qilishi xalqlarning milliy

mfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq ekan, O’zbek tiliga ham Davlat tili maqomini berish uchun harakatlar kuchayib borayotgan edi. Matbuotda esa bu haqida turli qarashlar va fikrlar bildirilar, aniq bir natija belgilashning imkonini bo‘lmash edi. 1989 yil o‘zbek tiliga Davlat tili maqomini berish uchun yangi komissiya tuzish ehtiyoji sezildi va yangi tuzilgan komissiya tarkibiga norasmiy tashkilotlarning vakillari ham kiritildi. Loyiha muhokama qilinayotgan to‘rt oy davomida komissiyaga jami to‘rt mingga yaqin maktub kelib tushdi, bu xatlarga jami 150 mingdan ortiq kishi imzo chekkan edi. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bu takliflar o‘rganib chiqildi va tezda qonun loyihasining yangi uch varianti yuzaga keldi.

Bular komissiya loyihasi, yozuvchilar uyushmasi tuzgan loyiha, norasmiy tashkilotlar vakillari tuzgan loyihalardan iborat edi. Barcha loyihalar ochiq, xolis muhokama etildi va ularni o‘rganish, umumlashtirish asosida yangi loyiha tayyorlanib, u 1989 yil 11 oktabr kuni matbuotda e‘lon qilindi. Loyiha umumxalq muhokamasidan so‘ng O’zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989 yil 21 oktyabrda bo‘lgan 11 sessiyasida «O’zbekiston SSR ning Davlat tili haqida» Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish jarayonida O’zbekiston SSR Ministrlar Soveti qabul qilgan «O’zbekiston SSR ning davlat tili haqida»gi qonunni amalga oshirishning davlat Dasturiga to‘liq amal qilinishi zarur edi. O’zbek tiliga davlat maqomi berish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar ham hisoblab chiqildi. O’sha vaqtida respublikadagi og‘ir iqtisodiy vaziyat e’tiborga olinib, bu mablag‘lar bosqichma - bosqich sarflanishi rejalashtirildi.

Ayni vaqtida davlat tili haqidagi qonunga amal qilish, qonunni bajarilishini nazorat qilish masalalarini to‘liq hal etish lozim edi. O’zbek tilini bilmaydigan fuqarolarga davlat tilini bepul o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar ham belgilab olindi. Umumiyligining inlarda davlat tilini bilmaydiganlarga ma’ruzalar matnini tarjima qilib berish masalalari ham kiritildi. Shundan so‘ng davlat tilini izchil takomillashtirish maqsadida keng harakatlar boshlandi. Qonunda belgilangandek, Respublikada qonun loyihasini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar aniq belgilangan holda faqat rahbar xodimlargina emas, balki turli millat vakillari bilan muntazam aloqada bo‘luvchi kishilar, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, ijtimoiy ta’minot, xalq maorifi, madaniyat va sog‘liqni saqlash, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, aloqa, transport, kommunal xo‘jalik, ommaviy axborot vositalari xodimlari, o‘z vazifalarini bajarishi uchun yetarli darajada davlat tilini bilishlari kerakligi ta’kidlangandi.

Ta’kidlash lozimki, O’zbekiston rahbariyati o‘zbek tilini davlat tili darajasiga ko‘tarishda respublikada istiqomat qiladigan boshqa xalqlarning milliy manfaatlarini ham hisobga oldi. Davlat tili haqidagi qonunda o‘zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishi boshqa milliy tillarning manfaatlariga zid kelmasligi lozim edi. Qonunga respublikada yashovchi barcha xalq va millat vakillari teng huquqli ekanini ko‘rsatuvchi modda ham kiritildi. Shuningdek, harbiy, diniy va boshqa sohalarda kerakli til belgilanishiga urg‘u berildi.

Yangi qonunda davr sharoitlaridan kelib chiqib respublikada ittifoq tasarrufidagi yoki davlat tili yetakchilik qila olmaydigan mehnat jamoalari borligi ham inobatga olindi. Shuni e’tiborga olib qonunda bu jamoalarda ish yuritishni rus tilida ham, boshqa tillarda ham olib borish mumkinligi e’tirof etildi. Bu tadbir hali sovet davlati saqlanib turgan murakkab bir davrda respublikadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubormaslik zaruriyati

bilan izohlangan edi.

Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida barcha idoralarda Davlat tilida ish yuritishga o‘tish muddati ikki yil bo‘lishi kerak, degan taklif kiritilgan bo‘lsada, bu amalga oshirish mumkin bo‘lmagan muddat edi. Chunki, boshqa millat vakillari uchun ikki yil mobaynida o‘zbek tilini o‘rganib, unda ish yuritishga o‘tishning imkoniy yo‘q edi. Hatto, ikki yil ichida o‘zbek tilida ish yuritishga o‘tishga mahalliy millatga mansub bo‘lgan rahbarlarning anchagini qismi ham tayyor bo‘lmagan. O‘zbekiston KP MQ birinchi kotibi I. A. Karimovning vaziyatni chuqur o‘rganib, kiritgan taklifiga binoan ish yuritishida davlat tiliga to‘la o‘tish muddati sakkiz yil deb belgilandi. Bu murakkab muammoni o‘sha davrlarda oqilona hal etishning yagona va to‘g‘ri yo‘li edi.

Qonunni bosqichma-bosqich amalga oshirish muddatlari ham rejalashtirilgan, jumladan, qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston SSR Soveta qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra qonunning 4,7,8-moddalari 8 yil davomida, 5 va 24-moddalari 3 yil davomida, 16-moddasi esa 1991-1992 o‘quv yilidan boshlab kuchga kiritilishi ko‘rsatib o‘tildi. 22-moddasi 1991 yildan kuchga kirishi belgilandi. Qolgan moddalari qonun qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirdi.

O‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnikaviy atamalarini tartibga keltirish va takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida maxsus Atamalar qo‘mitasi tashkil etildi. Bu qo‘mita oldiga tegishli vazifalar qo‘yildi. Qo‘mita dastlabki vaqtan boshlab matbuotda berilgan, radio va teleko‘rsatuvlarda qo‘llangan atamalarni, 15 ta vazirlik, qo‘mita va idoralardan kelgan, shu idoralarga taalluqli atama va nomlanishlarni to‘plab, muhokama etdi. Masalan, tibbiyat seksiyasi sog‘liqni saqlashda qo‘llaniladigan eng dolzarb atamalarni to‘plab o‘z seksiyasida muhokama qildi. To‘plangan atamalar qo‘mita byurosida muhokama qilinib, yana muhokamaga 22 tashkilotga (O‘zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi, gazeta va jurnallar tahririylari, ijtimoiy-siyosiy fanlar seksiyalariga, partiya tarixi instituti, O‘zTAG radioeshittirish va teleko‘rsatuv qo‘mitasiga — X.Yu.) yuborildi. 1990 yilga kelib, atamashunoslik qo‘mitasi bilan hamkorlikda O‘zSE nashriyoti «Yosh kimyogar ensiklopedik lug‘ati», «Yosh fizik ensiklopediyasi», «O‘zbek tilida ish yuritish», «Mehnat» nashriyoti chorvachilik va paxtachilik bo‘yicha, «O‘zbekiston» nashriyoti avtomobil transporti bo‘yicha lug‘atlarni chop etdi.

Umuman, 1989 yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun ayrim kamchiliklardan holi bo‘lmasada, biroq bu qonunning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qabul qilinganini hisobga olsak, bunday kamchiliklarning sabablarini tushunib olish qiyin emas edi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o‘rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo‘l ochib berdi. Shu ma’noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo‘lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobjiy ta’sir etdi.

To‘rtinchidan, Ma’muriy-buyruqbozlik avj olgan milliy his tuyg‘ularni poymol etish evaziga shovinistik ruh bilan shakllangan kommunistik tuzum XX asr 80 - yillarda butun O‘zbekiston xalqini ta’na-dashnom va tuhmatlar domiga tortgan edi. «Paxta ishi» yoki keyinchalik «o‘zbek ishi» nomini olgan uydirmalar sovet tuzumi qatag‘onining yangi bosqichi bo‘lgan edi. Paxta yakkahokimligi maydoniga aylantirilgan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yildan yilga mo‘l hosil berish «majburiyatini» olgan bo‘lsa ham o‘zbek

dehqonining ahvoli og‘ir bo‘lib, u markaz hukmi doirasiga tortilgan edi. Yuzaga kelgan turli ijtimoiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolar mavjud salbiy vaziyatni keskinlashtirib yuborgan edi. Biroq 1989 yilning ikkinchi yarmidan respublikadagi o‘zgarishlar «paxta ishi» qatag‘onlari bilan bog‘liq bo‘lgan T. Gdlyan guruhiga nisbatan munosabatni ham o‘zgartirib yuborgandi.

1989 yilga qadar respublika aholisi orasida qo‘rquv hissini uyg‘otib kelgan «paxta ishi» yoki «o‘zbeklar ishi» uydirmalariga ham 1989 yilning ikkinchi yarmidan boshlab barham berila boshlagan edi. «Paxta ishi» bilan bog‘liq bo‘lgan qonunbuzarliklarni fosh etish, begunoh kishilarni oqlashda O‘zbekistonning I.A. Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyati muhim ishlarni boshladи. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi 1989 yil 12 sentyabrda «paxtachilikdagi qo‘sib yozishga yo‘l qo‘ygani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilarni avf etish maqsadida hujjatlar tayyorlaydigan» komissiya tashkil etdi. Ushbu komissiya tayyorlagan hujjatlarga tayanib, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi jinoiy javobgarlikka tortilgan 43 kishini gunohidan o‘tishni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetidan so‘radi. Unda ko‘plab shaxslarga belgilangan jazo muddatlarini yengillashtirish choralar so‘ralgan edi. Ma’lum bo‘lishicha, «paxta ishi»da sudlanganlar soni 4018 kishini tashkil etgan bo‘lsa, respublikada boshlangan ijobiy o‘zgarishlardan so‘ng reabilitatsiya qilinganlar soni 2940 kishini, qayta tergovga yuborilganlar 63 kishini, asossiz sudlanganlar 1016 kishini tashkil etdi.

Umuman, 1990 yilga kelib sovet davlatining xukmronligi inkirozga uchrayotgan, ittifokdosh respublikalar uz milliy mustaqilligi uchun keng harakatlarni olib borayotgan davr bo‘ldi. O‘zbekistonning yangi rahbariyati ham mustabid tuzum uchun butkul yot bo‘lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan maydonga chiqdi. Aynan mana shu davr respublikaning mustaqillik sari yo‘l olishi bilan ifodalandi. Ushbu yo‘l tarixiy - ma’naviy tiklanish, markaz tomonidan olib borilgan qatag‘onlik siyosatiga chek qo‘yish, o‘zbek xalqi sha’nini himoya qilish, iqtisodiy tanazzul holatini cheklash, ichki bozorni himoyalash, butkul yangi ijtimoiy himoya siyosatini olib borish, markaz ta’sirini kamaytirish va boshqa keng kamrovli tadbirdan iborat bo‘ldi.

V. GLOSSARIY

Termin	Izohi
➤ Innovatsiya-	yangilanishni, o‘zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.
➤ Innovatsiyalar-	bu bilimlar va g‘oyalarni mablag‘larga aylantirishdir.
➤ Ideografik yozuv	(yun. idea – ideya (g‘oya), obraz va grapho — yozaman) — belgilar (ideogrammalar) butun bir so‘zni yoki tushunchani bildiradigan yozuv turi. Qad. yozuv sistemalaridan Misr yozuvi, Xitoy yozuvi va boshqa ayrim yozuvarlar ideografik yo‘sinda bo‘lgan. Ideografik yozuv juda murakkab; ko‘pgina xalqlarda nisbatan soddaroq yozuvarlar — bo‘g‘inli yozuv va harfli yozuv taraqqiy yetgan.
➤ Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik –	ancha vaqt urug‘ni o‘simlik va hayvon yegulik mahsulotlari bilan ta’minlab kelgan ziroatchilik va chorvachilikdir. Ziroatchilik termachilikdan boshlangan, chorvachilik yesa ov va hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishdan kelib chiqqan.
➤ Sivilizatsiya -	(lotincha «tsivilis»-fuqaroviylar, ijtimoiy, ya’ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz) — jamiyatning o‘z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarining hamda ularni yanada ko‘paytirib takomillashtirib borish usullarining majmui.
➤ Eng qadimgi urug‘chilik tizimi -	insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo‘lgan, hamma odamlar hamkorlikda mehnat qilgan bir davridir.
➤ Stadiy –	qadimgi yunonlarda qo‘llangan masofa o‘lchovi. 1 stadiy 150-190 metrga teng bo‘lgan.
➤ Shahriston –	o‘rta asrlarda Sharqdagi

	shaharlarning markazi, ya’ni mudofaa devori bilan mustahkamlangan shaharning asosiy qismi. Shahristonda saroy, jome masjidi, yopiq yoki ochiq bozor, bosh maydon – registon, muhim ma’muriy binolar, hukmdor va uning yaqinlarini qo‘rg‘onlari, shuningdek, oddiy aholi xonadonlari va boshqalar bo‘lgan.
➤ Renessans -	so‘zi fransuzchada «qayta tug‘ilish, yangi ruhda o‘sish» ma’nolarini bildiradi va o‘zbekchada ba’zan, «uyg‘onish», deb ham yuritiladi.
➤ G’oziy –	Islom dini uchun g‘ayridinlarga qarshi muqaddas urush – g‘azavot ishtirokchisi. Shariatga ko‘ra, bunday urushda oti va qurol-yarog‘i bor har bir musulmon yerkak qatnashishi shart bo‘lgan. Kambag‘allar, qullar, nogironlar va keksa kishilar bundan ozod yetilgan.
➤ Bosqoq –	mo‘g‘ullar hukmronlik qilgan XIII – XIV asrlarda mahalliy hokim
➤ Muzoriy –	ziroatkor dehqon, polizkor
➤ Sudsi faxriy –	sekstant (astronomik uskuna)
➤ Sadrlar -	vaqf mulklarini boshqaruvchilari bo‘lib, vaqf muassasasining boshliqlari bo‘lgan mutavallilar sadrlarga bo‘ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig‘i shartlarida qayd yetib qo‘yilgan. Ular vaqf xo‘jaligi daromadining ma’lum qismini olardilar.
➤ Tanho –	O’rta Osiyoda mavjud bo‘lgan suyurg‘olning bir ko‘rinishi bo‘lib, u faqat harbiylarga berilgan. Tanho ham suyurg‘olga o‘xshab pul, mol-mulk, yer-suv tariqasida berilgan.
➤ Tarxon –	O’rta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat soliqlaridan ozod qilingan yer-suv, mol-mulkleri.
➤ Qozi urdu –	Xiva xonligida qozi askar shunday atalgan. Amalda u harbiy

	xizmatdagilarning qozisi-sudyasi bo‘lgan.
➤ Qal’abon –	Qo‘qon xonligida xonlikning chegara hududlarida joylashgan qal’a va istehkomlarning hokimi. Ushbu vazifaga, odatda, harbiy maqsadlardan kelib chiqqan holda doddxohdan qo‘shtebegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan.
➤ Jadidchilik –	usuli jadid, ya’ni “yangilik uchun” iborasidan kelib chiqqan bo‘lib, yangilik uchun kurashganlar va ularning g‘oyasi shunday deb atalgan.
➤ Ko‘nka –	to‘rt yoki oltita ot bilan harakatlantirilgan bir vagonli, tor izli shahar transporti. Toshkentda ko‘nka XIX asr oxirlarida qurilib, Xadra bilan temir yo‘l vokzali orasida qatnagan. Undan 1915 yilgacha foydalanilgan.
➤ To‘ra –	Turkiston o‘lkasida podsho ma’murlari nomiga hurmat yuzasidan qo‘shib aytilgan atama.
➤ Uezd –	Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston o‘lkasida joriy yetilgan ma’muriy-hududiy bo‘linma.
➤ Muvaqqat –	vaqtinchalik, doimiy bo‘lmagan.
➤ Muxtoriyat –	o‘ziga mustaqil; avtonomiya.
➤ Nozir –	o‘rta asrlarda O’rta Osiyo xonliklarida saroy ta’minoti va uni xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdar. XX asr boshlarida Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo‘yicha xalq nozirlari tayinlangan bo‘lib, ular o‘sha soha bo‘yicha ishning borishiga javobgar shaxs hisoblanganlar.
➤ «Quloqlar» sifatida ro‘yxatga olingan badavlat xo‘jaliklar -	mol-mulki to‘liq musodara qilinib, oilalari Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog‘iston, Uzoq Sharq kabi

	o‘zga yurtlarga surgun qilingan badavlat xo‘jaliklar.
➤ Tanazzul –	orqaga qarab ketish; inqiroz, tushkunlik.
➤ Qaramlik —	mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil yo‘llar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarning hukmronligi o‘rnatalishi oqibatida davlat hokimiyatining oliylik va suverenlik belgilaridan mahrum bo‘lishi. Qaram davlatlar metropoliya davlatlariga siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qaramlik zanjirlari bilan bog‘langan bo‘ladilar.
➤ «Qizil imperiya» -	1917-1991 yillarda mavjud bo‘lgan sobiq sho‘ro davlatiga nisbatan ishlatiladigan atama. «Imperiya» so‘zi lotincha bo‘lib, mutlaq hokimiyatga yega hokimni, mahkumlar, mazlumlar ustidan cheklanmagan huquqqa yega, jabrzulm va yezishga asoslangan idora yetish va boshqarish usulini, mustamlakalarga yegalik qiluvchi va qaram xalqlarni asoratga solib shafqatsiz yekspluatasiya qiluvchi yirik tajovuzkor davlatni bildiradi.
➤ Hokimiyatning uch asosiy tarmog‘i -	davlat hokimiyatining taqsimlanishi tamoyili, ya’ni davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo‘linishi demokratik huquqiy davlatga xosdir.
➤ Huquqiy demokratik davlat -	jamiat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning yeng mukammal shakli va mazmuni. Huquqiy demokratik davlat uchun kurash bundan to‘rtbesh asr muqaddam boshlanib, faqat XX asrning ikkinchi yarmida haqiqatga aylana boshladi.
➤ Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari -	O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasi va

	«Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi Qonunning 1-moddasiga binoan, shahar, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini-o‘zi boshqarish organlari.
➤ To‘rtinchchi hokimiyat -	jamiyatdagи ommaviy axborot vositalari (OAV)ning, ya’ni gazetalar, jurnallar, radio, televideniye va ommaviy axborot tarqatishning boshqa vositalarining jamiyat a’zolariga ta’sir kuchiga aytildi.
➤ GKChP -	Favqulodda holat Davlat Komiteti
➤ Milliy qadriyatlar —	millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga yega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma’naviy bokliklar. Milliy qadriyatlari bo‘lmagan millat yoki yelat yo‘q. Millat — milliy qadriyatlarning sohibi; millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlар millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil yetgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.
➤ Qadriyatlar —	borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar bilan bog‘liq masalalar hayotning yeng asosiy mavzulari bo‘lib hisoblanadi.
➤ Globallahuv (globalizasiya) —	lotincha «glob» so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni «dumaloqlashuv», «kurrelashuv» deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi

	bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.
➤ Lizing -	molivayiy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq yevaziga yegalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.
➤ Ombudsman –	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabдор shaxs bo‘lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabдор shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda yerkinliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga riosa yetilishi ustidan parlament nazoratini ta’minlash vakolatlari berilgan.
➤ Parlament	(ingl. parliament, frans. parle — gapirmoq) — demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada Belgiya, Moldova, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda oliy vakillik organi “parlament” deb yuritiladi; AQShda va Lotin Amerikasining ko‘pgina mamlakatlarida p. kongress deb, Rossiya Federasiyasida — Federal Majlis — Rossiya Federasiyasi P. deb, Litva va Latviyada — Seym deb ataladi. Tuzilishiga ko‘ra p. bir palatali yoki ikki palatali bo‘ladi (qarang: Ikki palatali tizim, Bir palatali tizim). Tarixda uch palatali p. ham bo‘lgan (masalan, JARda 1984-1994 yillarda). P. birinchi marta XIII asrda Angliyada

	tabaqalarning vakillik organi sifatida tashkil qilindi.
➤ Xususiylashtirish –	“jismoniy shaxslarning” va davlatga taalluqli bo‘limgan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.
➤ Ekologik nazorat –va ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlar yig‘indisini o‘z ichiga oladi.	tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va yekologik xavfsizlikni ta’minlash qoidatalablarini barcha vazirlik, davlat qo‘mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o‘rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo‘llash bilan bog‘lik siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagı “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagı “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagı “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagı 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi “Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

18. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
19. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
20. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
21. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.
22. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
23. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
24. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.
25. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
26. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
27. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
28. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
13. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
29. Grant E.A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
30. H.Q. Mitchell, MarileniMalkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
31. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
32. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
33. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
34. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI:

<https://doi.org/10.36713/epra4787>

35. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017.– p. 193.
14. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooksAccoun 2015. - 134 pp.
36. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
37. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
38. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
39. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
40. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
15. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
41. Aydyn Arif oglы A. Xroniki muslimanskix gosudarstv I – VII vekov xidjry. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
42. Alimova D.A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istorya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
43. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
44. Bolshakov O. G. Istorya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
45. Gabrielyan S. I. Istorya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.
46. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
47. Yevropa mamlakalariva AQSh 1640–1918 yillarda. /A.Xolliyevtahririostida.– Toshkent: Universitet, 2010.
48. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.Ye.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
49. Istorya noveyushchego vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. Ye.Yazykova. – Moskva: Nauka, 2015.
50. Istorya noveyushchego vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.
51. Istorya srednih vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.

52. Mommzen T. Istorya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.
53. Muslimov N. Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
54. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladynin I., Novikov S. Istorya drevnego mira. Vostok, Gretsya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
55. Problemy istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
56. Rtveladze E.V. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
57. Rusina Yu.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.
58. Xoliqulova X. Mustaqillik yillarda O’zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so’z, 2017.
59. Sheypak A. Istorya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

IV. Internet saytlari

60. O’zbekistonRespublikasiOliyvao‘rtamaxsusta’limvazirligi: www.edu.uz.
61. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
62. www.Ziyonet.uz
63. O’zbekistonRespublikasiPrezidentiningrasmiysayti: www.gov.uz
64. O’zbekistonRespublikasiOliyvao‘rtamaxsusta’limvazirliginingrasmiysayti: [http://www.edu.uz/modules/ wfchannel](http://www.edu.uz/modules/wfchannel)
65. “Xalqso‘zi” gazetasi – [wwwinfo XS. Uz](http://wwwinfo.XS.Uz).
66. “Turkiston” gazetasi – wwwturkistonsarkor.uz.
67. “Ma’rifat” jurnali – [wwwma’rifat – inform](http://wwwma’rifat-inform).
68. “Jamiyatvaboshqaruv” jurnali – wwwrzultacademyfreenetuz.
69. “Moziydan sado” jurnali – [www moziy dostlink. Net](http://www.moziy.dostlink.net)

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil
mart oyida o'tkaziladigan O'zbekiston tarixi yo'nalishi o'quv-uslubiy
majmualari bo'yicha
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil mart oyida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining "O'zbekiston tarixi" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savolari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

Ekspertlar

G'oibov Bobur Sobirovich	SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrasi professori, t.f.d.	
Xoliqurov Rustam Sharipovich	SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.n.	
Meliev Baxtiyor Abduxomidovich	SamDU mintaqaviy markaz bo'lim boslig'i, g.f.f.d.	
Murodov Qodir Qo'ldoshevich	SamDU mintaqaviy markaz muhandis-dasturchi	



ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Об учебно-методических комплексах по направление истории Узбекистана, которые пройдут в марте 2022 года в Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете

В марте 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «История Узбекистана». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

**Зарубежный эксперт:
Профессор Педагогического института
Таджикистана в городе Пенджикент
доктор исторических наук:**



Вахидов Ш.Х.

